

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
O‘RTA MAXSUS, KASB-HUNAR TA‘LIMI MARKAZI

SH.E. UMIDOV, Z.A. DJABBOROV

NAZORAT VA STANDARTLASHTIRISHNING HUQUQIY ASOSLARI

Kasb-hunar kollejlari uchun o‘quv qo‘llanma

TOSHKENT
«NISO POLIGRAF»
2017

UO‘K: 351.821
KBK 67.401s
N18

Umidov, Sh.E. va boshq.

Nazorat va standartlashtirishning huquqiy asoslari.
Kasb-hunar kollejlari uchun o‘quv qo‘llanma. /Sh.E. Umidov
va boshq. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim
vazirligi. – T.: «Niso Poligraf», 2017. – 120 b.

**UO‘K: 351.821
KBK 67.401s**

Taqrizchilar:

Tadjibayeva G. – Toshkent sanoat kasb-hunar kolleji bo‘lim boshlig‘i;

Ahmedov T. – TashDAU Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti va marketingi
kafedrasi katta o‘qituvchisi.

Mazkur o‘quv qo‘llanma kasb-hunar kollejlari o‘quvchilari, talabalar, magistrantlar va o‘quvchilarning keng ommasiga mo‘ljallangan. O‘quv qo‘llanma nazorat va standartlashtirishning huquqiy asoslariga bag‘ishlangan bo‘lib, standartlashtirishga doir hujjatlashtirish, unda metrologiya xizmati, sertifikatlashtirish asoslari to‘g‘risida ma’lumotlar keng yoritib berilgan.

O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi markazi ilmiy-metodik
Kengashi tomonidan nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9943-4870-6-2

© Sh.E. Umidov va boshq., 2017
© «Niso Poligraf», 2017

KIRISH

O'zbekistonimiz ko'hna madaniy va ma'rifiy meroslarga boy ega. Ushbu meros G'arb falsafasining shakllanishida, buyuk olim va allomalarning dunyoga tanilishida munosib o'rin egallagan. Bundan tashqari, respublikamiz «Buyuk ipak yo'li» asosiy tomirida joylashganligi va yirik savdo markazlariga ega bo'lganligi sababli xalqaro iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishida alohida ahamiyat kasb etgan. Vatanimizdan yetishib chiqqan allomalarning hozirda ham ahamiyatli bo'lgan kashfiyotlari va ilmiy yutuqlari jahon fanlari taraqqiyotida munosib o'rin egallagan. G'arbda Alfraganus nomi bilan tanilgan Ahmad Farg'oniyning Nil daryosining sathini o'lchash uchun mo'ljallangan «Miqyosi Nil» qurilmasi, mashhur Ulug'bekning oddiy va sodda o'lchash asboblari bilan o'ta yuqori aniqlikda tuzilgan «Yulduzlar jadvali», qomusiy olim Beruniyning moddalar tarkibini aniqlash borasidagi ulkan yutuqlari va hokazolar shular jumlasidandir.

Ma'lumki, respublikamizda tub iqtisodiy islohotlar orqali bozor munosabatlarini shakllantirishga kirishishda, eng avvalo, uning strategik maqsadlari belgilanib olindi. Bu maqsadlar ichida «raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarishni ta'minlash» alohida ahamiyatga ega. Iqtisodiy islohotlarning ustuvor yo'nalishlarida ham quyidagilarni ko'rishimiz mumkin:

- ilg'or texnologiyalarni joriy qilish orqali tayyor eksport-bop mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish;
- aholini yuqori sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash;

- mamlakatning eksport quvvatidan to‘la-to‘kis foydalanish, uni jadallik bilan rivojlantirish.

Bu borada respublikamizda qisqa muddat ichida ulkan ishlar amalga oshirildi va natijada O‘zbekistonga faqat xomashyo zonasi sifatida qaralishiga barham berildi.

Hozirgi kunda har bir mutaxassis o‘z faoliyat sohasidagi parametrlarni va ularni o‘lchash usullarini, o‘lchash vositalarini, ularning texnikaviy tavsiflarini bilishi zarur. Bundan tashqari, texnika yo‘nalishidagi mutaxassislar o‘lchanadigan va baholanadigan kattaliklarni nazorat qilish vositalari hamda ularni ishlatish bilan bog‘liq bo‘lgan masalalarni bilmog‘i lozim.

Ilmiy-texnika taraqqiyotining asosiy yo‘nalishlaridan biri kattaliklarni yanada aniqroq o‘lchaydigan mukammal nazorat-o‘lchash asboblari, qurilmalari va tizimlarini yaratishdir.

Metrologiya, standartlashtirish va sertifikatlashtirish sohalarini o‘rganish talabalarda metrologiya, standartlashtirish va sertifikatlashtirish bo‘yicha qoidalarni, talablarni, me‘yorlarni standartlashtirish va sifatni boshqarishdagi davlat bayonnomalarini, me‘yoriy hujjatlarni bilishini taqozo etadi.

Bu esa bugungi kunda, ayniqsa, jahon andozalariga mos keluvchi mahsulotlarni ishlab chiqarish va ularning raqobatbardoshligini ta‘minlashda, eng muhimi, respublikamizning iqtiso-diy salohiyatini oshirishda o‘ta muhim masalalardan biri sanaladi.

I bob. STANDARTLASHTIRISH HAQIDA **UMUMIY TUSHUNCHALAR**

1.1. Standartlashtirishning asosiy maqsadlari

Standart soʻzi inglizcha «standart» soʻzidan olingan boʻlib, meʼyor, oʻlcham, andoza degan maʼnolarni bildiradi. **Standart** – bu koʻpchilik manfaatdor tomonlar kelishuvi asosida ishlab chiqilgan va maʼlum sohalarida eng maqbul darajali tartiblashtirishga yoʻnaltirilgan hamda faoliyatning har xil turlariga yoki natijalariga tegishli boʻlgan umumiy va takror qoʻllaniladigan, umumiy qonun-qoidalar, tavsiflar, talablar va usullar belgilangan va tan olingan idora tomonidan tasdiqlangan meʼyoriy hujjatdir.

Standartlar fan, texnika va tajribalarning umumlashtirilgan natijalariga asoslangan va jamiyat uchun yuqori darajadagi foydaga erishishga yoʻnaltirilgan boʻlishi kerak.

Standartlar darajasiga qarab xalqaro, mintaqaviy, davlatlararo, milliy va korxona miqyosida faoliyat koʻrsatadi.

Davlat standartlari mahsulotni ishlab chiqish va uni ishlab chiqarishga qoʻyish bosqichida yangi mahsulotlarning yuqori sifatli turlarini yaratish va oʻzlashtirishni tezlashtirishga, ishlab chiqaruvchi, tayyorlovchi va isteʼmolchi oralaridagi munosabatlarni yaxshilashga yoʻnaltirilgan.

Standartlashtirish tizimi yangi buyumga oʻz vaqtida yuqori sifatli loyiha-konstruktorlik hujjatlar berish, korxonaning yangi mahsulotini berilgan sifat koʻrsatkichlariga asosan tayyorlashni va kerak boʻlsa, mahsulotni ishlab chiqarishdan olib tashlashni belgilaydi.

Standartlashtirish mahsulot muomalada bo'lganida va sotish bosqichlarida mahsulotni joylashtirish (upakovka)da yaxshi tartib va sharoitlar yaratishga, yuklashga va joylashtirishga, saqlashga, omborlarda mahsulot sifatini buzilmay saqlashga, transportda olib yurishda, buyumni tarqatishda, sotish tashkilotlariga talablar belgilaydi.

Standartlashtirishning asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:

- mahsulotlar, ishlar va xizmatlarning (keyingi o'rinlarda mahsulotlar deb yuritiladi) aholining hayoti, salomatligi va mol-mulki, atrof-muhit uchun xavfsizligi, resurslarni tejash masalalarida iste'molchilar va davlatning manfaatlarini himoya qilish;

- mahsulotlarning o'zaro bir-birining o'rnini bosishi va bir-biriga monandligini ta'minlash;

- fan va texnika taraqqiyoti darajasiga, shuningdek, aholi va xalq xo'jaligining ehtiyojlariga muvofiq mahsulotlarning sifati hamda raqobatbardoshligini oshirish;

- resurslarning barcha turlarini tejashga, ishlab chiqarishning texnikaviy-iqtisodiy ko'rsatkichlarini yaxshilashga ko'maklashish;

- ijtimoiy-iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy dasturlar va loyihalarni amalga oshirish;

- tabiiy va texnogen falokatlar va boshqa favqulodda vaziyatlar yuzaga kelishi, xavf-xatarni hisobga olgan holda xalq xo'jaligi obyektlarining xavfsizligini ta'minlash;

- iste'molchilarni ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar nomenklaturasi va sifati to'g'risidagi to'liq va ishonarli axborot bilan ta'minlash;

- mudofaa qobiliyatini va mustahkamligini ta'minlash;

- o'lchashlar birligini ta'minlash;

- ishlab chiqaruvchi (sotuvchi, ijro etuvchi) ma'lum qilgan mahsulot sifati to'g'risidagi ko'rsatkichlarini tasdiqlash.

Standartlashtirishning asosiy vazifalari:

- iste'molchi va davlatning manfaati yo'lida mahsulotning sifati va nomlariga nisbatan eng maqbul talablarni qo'yish;
- davlat, respublika fuqarolari va chet el ehtiyoji uchun tayyorlangan mahsulotga kerakli talablarni belgilovchi me'yoriy hujjatlar tizimini va uni ishlab chiqish qoidalarini yaratish, ishlab chiqish va qo'llash, shuningdek, hujjatlardan unumli foydalanishni nazorat qilish;
- standart talablarining sanoati rivojlangan chet mamlakatlarning xalqaro, mintaqaviy va milliy standartlari talablari bilan uyg'unlashuvini ta'minlash;
- bir-biriga mosligining barcha (konstruktiv, elektrik, elektromagnitli, axborot, dasturli va boshqalar) turlarini, shuningdek, mahsulotning o'zaro almashuvchanligini ta'minlash;
- parametrik va turlar o'lchovi qatorlarini, tayanch konstruksiyalarni, buyumlarning konstruktiv jihatdan bir xil qilingan modullashgan bloki tarkibiy qismlarini aniqlash va qo'llash asosida birxillashtirish;
- mahsulot, uning tarkibiy qismlari, buyumlari, xomashyo va materiallar ko'rsatkichlari va tavsiflarining kelishib olinishi va bog'lanishi;
- material va energiya sig'imini kamaytirish, kam chiqindi chiqaruvchi texnologiyalarni qo'llash;
- mahsulotning ergonomik xossalariga talablarning belgilanishi;
- metrologik me'yor, qoida, nizom va talablarning belgilanishi;
- standartlashtirish bo'yicha xalqaro tajribadan foydalanishni keng avj oldirish, mamlakatning xalqaro va mintaqaviy standartlashtirishda ishtirok etishini kuchaytirish;
- xorijiy mamlakatlarning talablari O'zbekiston Respublikasining xalq xo'jaligi ehtiyojlarini qondira olgan hollarda ularning xalqaro, mintaqaviy va milliy standartlarini mamlakat standart-

lari va texnikaviy shartlari tariqasida to'g'ridan to'g'ri qo'llash tajribasini kengaytirish;

- texnologik jarayonlarga talablarni belgilash;
- mahsulotni standartlashtirish va uning natijalaridan foydalanish sohasida xalqaro hamkorlik qilish yuzasidan ishlarni tashkil qilish;

- texnika-iqtisodiy axborotni tasniflash va kodlash tizimini yaratish va joriy qilish;

- sinovlarni me'yoriy-texnika jihatidan ta'minlash, mahsulot sifatini sertifikatlashtirish, baholash va nazorat qilish.

Standartlashtirish deganda mavjud yoki bo'lajak aniq masalalarga nisbatan umumiy va ko'p marta tatbiq etiladigan talablarni belgilash orqali ma'lum sohada eng maqbul darajada tartiblashtirishga yo'naltirilgan ilmiy-texnikaviy faoliyat tushuniladi. Bu faoliyat standartlarni va texnikaviy talablarni ishlab chiqishda, nashr etishda va tatbiq qilishda namoyon bo'ladi. Standartlashtirishning muhim natijalari, odatda, mahsulot, jarayon va xizmatlarning belgilangan vazifaga mos kelishi, savdodagi g'ovlarni bartaraf qilish hamda ilmiy-texnikaviy hamkorlikka ko'maklashishda namoyon bo'ladi.

Odatda, standartlashtirish obyekti sifatida standartlashtiriladigan narsa (mahsulot, jarayon, xizmat) tushuniladi.

«Standartlashtirish obyekti» tushunchasini keng ma'noda ifodalash uchun «mahsulot», «jarayon», «xizmat» iboralari qabul qilingan bo'lib, buni har qanday materialga, tarkibiy qismlarga, asbob-uskunalarga, tizimlarga, ularning mosligiga, qonun-qoidasiga, ish olib borish uslubiga, vazifasiga, usuliga yoki faoliyatiga teng darajada daxldor deb tushunmoq lozim.

Standartlashtirish har qanday obyektning muayyan jihatlari (xususiyatlari) bilan cheklanishi mumkin. Masalan, oyoq kiyimga nisbatan yondashiladigan bo'lsa, uning katta-kichikligi va pishiqligini alohida standartlashtirish mumkin.

Standartlashtirish obyekti sifatida xizmat – xalqqa xizmat qilishni (xizmat shartlarini qo‘shib) va korxona hamda tashkilotlar uchun ishlab chiqarish xizmatini o‘z ichiga oladi. Standartlashtirishning boshqa obyektlari faoliyatining birlashtirilgan sohalarida O‘zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi, Davlat arxitektura va qurilish qo‘mitasi hamda Sog‘liqni saqlash vazirligi tomonidan belgilanadi.

Odatda, *xalqaro, mintaqaviy, milliy* standartlashtirish idoralari mavjud.

Xalqaro standartlashtirish faoliyatida barcha mamlakatlarning tegishli idoralari erkin holda ishtirok etishi mumkin.

Mintaqaviy standartlashtirish deganda dunyo miqyosida birgina jug‘rofiy yoki iqtisodiy mintaqaga qarashli mamlakatlarning tegishli idoralari uchun erkin holda ishtirok etishlari mumkin bo‘lgan standartlashtirish tushuniladi.

Milliy standartlashtirish – bu muayyan bir mamlakat doirasida o‘tkaziladigan standartlashtirish faoliyati.

Standartlashtirish har xil faoliyat turlari va uning natijalariga daxldor qoidalar, umumiy qonun-qoidalar yoki tavsiflarni o‘zida qamrab olgan me‘yoriy hujjat hisoblanadi.

«*Me‘yoriy hujjat*» atamasi standartlar, texnikaviy shartlar, shuningdek, umumiy ko‘rsatmalar, yo‘riqnomalar va qoidalar tushunchasini ham o‘z ichiga qamrab oladi.

Standartlashtirish maqsadlari ko‘p qirrali bo‘lib, ular, asosan, quyidagilardan iborat: birxillashtirish (har xillikni boshqarish), bir turga keltirish, moslashuvchanlik, o‘zaro almashuvchanlik, sog‘liqni saqlash, xavfsizlikni ta‘minlash, tashqi muhitni asrash, mahsulotni himoyalash, savdodagi iqtisodiy ko‘rsatkichlarni yaxshilash va boshqalar. To‘g‘ri yondashilgan standartlashtirish borasida bir maqsadning amalga oshishida bir vaqtda boshqa maqsadlarning ham amalga oshishi mumkin.

Standartlashtirishda mahsulotning vazifasiga *muvofigligi* deganda belgilangan sharoitlarda muayyan vazifalarini buyum, jarayon yoki xizmatlar tomonidan bajarish qobiliyati tushuniladi.

Moslashuvchanlik esa, ma'lum sharoitlarda belgilangan talablarni bajarish uchun nomaqbul ta'sir ko'rsatmasdan mahsulot, jarayon yoki xizmatlarning birgalikda qo'llanishiga yaroqliligi deb tushuniladi.

O'zaro almashuvchanlik – bir xil talablarni bajarish maqsadida bir buyum, jarayon, xizmatdan foydalanish o'rniga boshqa bir buyum, jarayon, xizmatning yaroqliligidir.

Harxillikni boshqarish (unifikatsiyalash yoki birxillashtirish) deb, muayyan ehtiyojni qondirish uchun zarur bo'lgan eng maqbul o'lchamlarni yoki mahsulot, jarayon va xizmat turlarini tanlashga aytiladi.

1.2. O'zbekiston Respublikasida standartlashtirish davlat tizimi

Respublikamizda standartlashtirish jarayoni 3 bosqichdan iborat:

- atamalarni standartlashtirish;
- o'lchovlarni, o'lchash, sinov uskunalarini va ularni konstruksiyaga va mahsulot texnologiyasiga bog'lab standartlashtirish;
- mahsulotning o'zini standartlashtirish.

ISO/MEK tomonidan yaratilgan konsultativ kengash texnika rivojining yo'nalishini quyidagicha tavsiya qiladi:

- standartlarni yaratishda va ularni kelishishda yangi mexanizmlarni yaratish;
- xarajatlarni ilk tadqiqotlarga va real istiqbolga ega bo'lgan texnikaviy yutuqlarga to'plamoq;
- bor texnikaviy qo'mitalarning ilmiy tadqiqot, tajribaviy konstruktorlik ishlarini, shu jumladan, ekologiya sohasidagi ishlarni e'tiborga olgan holda yangi rejali ishlarni yaratish;

– yetakchi mutaxassislar boshchiligida o‘tkaziladigan seminarlar, ilmiy ma’ruzalar shaklidagi ikkilamchi mexanizmlardan foydalanish;

– sanoatning yuqori rahbarlari orasida yangi g‘oyalarni targ‘ibot qilishga e’tiborni qaratmoq.

Mana shuning uchun standartlashtirishda atamalarni bir yerga to‘plamoq, ular asosida ta’riflar yaratmoq va nihoyat, bu sohada standartlar yaratmoq hozirgi kunning talabi, iqtisodiyotni rivojlantirishning dolzarb masalalari hisoblanadi.

Shu maqsadda standartlashtirish sohasidagi atamalarni to‘plashda xalqaro standartlashtirish tashkilotining hujjatlariga, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasida ilk yaratilgan hujjatlarga murojaat etildi.

Bu sohadagi asosiy tushunchalar 61 atamadan iborat bo‘lib, ularning mohiyati ketma-ketligi bo‘yicha ma’lum tartibda joylashtirilib, hozirgi vaqtda chop etilgan O‘zRST 1.10-93 «O‘zbekiston Respublikasining standartlashtirish davlat tizimi. Asosiy atamalar va ta’riflar» standarti yaratildi.

Standartlashtirish sohasidagi bir qancha asos bo‘luvchi hujjatlar O‘zstandart agentligi huzuridagi standartlashtirish, metrologiya, sertifikatlashtirish instituti (SMSITI)da yaratilmoqda. Bular qatoriga dastlabki standartlar O‘zRST 1.0-92, O‘zRST 1.1-92, O‘z RST 1.2-92, O‘z RST 1.3-92 va boshqalar kiradi.

O‘z RST 1.0-92 «O‘zbekiston Respublikasi standartlashtirish davlat tizimi standartlashtirishning asosiy vazifa va maqsadini, standartlashtirish ishlarining tashkil etilishi va asosiy qonun-qoidalarini, me’yoriy hujjatlarning toifasini, standartlar turlarini, xalqaro hamkorlik bo‘yicha asosiy qoidalarni, standartlar va texnikaviy shartlarning qo‘llanishini, standartlarga va o‘lchash vositalariga nisbatan davlat nazoratini belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasi hududida standartlashtirish obyektlariga qo'yiladigan talablarni belgilovchi me'yoriy hujjatlarning quyidagi toifalari amal qiladi:

- xalqaro (davlatlararo, mintaqaviy) standartlar;
- O'zbekiston Respublikasining standartlari;
- tarmoq standartlari;
- texnikaviy shartlar;
- korxona standartlari;
- xorijiy mamlakatlarning milliy standartlari.

Xalqaro standart – bu standartlashtirish bilan (standartlashtirish bo'yicha) shug'ullanadigan xalqaro tashkilot tomonidan qabul qilingan va iste'molchilarning keng doirasiga yaroqli bo'lgan standartdir.

Mintaqaviy standart esa, standartlashtirish bilan shug'ullanadigan mintaqaviy tashkilot tomonidan qabul qilingan va iste'molchilarning keng doirasiga yaroqli bo'lgan hujjatdir.


Davlatlararo standart «GOST» – bu standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish bo'yicha davlatlararo kengash tomonidan qabul qilingan, bajarilishi shart bo'lgan hujjatdir.

Milliy standart – bu standartlashtirish bilan shug'ullanadigan milliy idora tomonidan qabul qilingan va iste'molchilarning keng doirasiga yaroqli bo'lgan standartdir.

Korxona standarti – bu mahsulotga, xizmatga yoki jarayonga korxonaning tashabbusi bilan ishlab chiqiladigan va uning tomonidan tasdiqlangan hujjatdir.

Standartlarni qo'llashda turli usullar mavjud. Bir mamlakat doirasida standartlar yangidan yaratilishi hamda xalqaro, mintaqaviy va davlatlararo standartlarning to'g'ridan to'g'ri qo'llanilishi ham mumkin.

Standartlardan tashqari rahbariy hujjatlar, texnikaviy shartlar, standartlashtirish bo'yicha tavsiyanomalar, yo'riqnomalar (qoidalar) ham mavjuddir.



Rahbariy hujjat deganda standartlashtirish idoralarining va xizmatlarning vazifalarini, burchlarini va huquqlarini, ularning ishlari yoki ishlarining ayrim bosqichlarini bajarish usullari, tartibi va mazmunini belgilaydigan me'yoriy hujjat tushuniladi.

Texnikaviy shartlar (O'ZTSH) – bu buyurtmachi bilan kelishilgan holda, ishlab chiqaruvchi yoki buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan aniq mahsulotga (xizmatga) bo'lgan texnikaviy talablarni belgilovchi me'yoriy hujjatdir.

Yo'riqnoma (qoidalar) – instruksiya – bu ishlarni yoki ularning ayrim bosqichlari mazmuni va tarkibini belgilovchi me'yoriy hujjatdir.

Standartlashtirish obyektlariga, o'z navbatida, quyidagilar kiradi:

- yagona texnikaviy tilni qo'shib hisoblaganda umumtexnikaviy obyektlar, umumiy mashinasozlikda qo'llaniladigan buyumlarning namunaviy konstruksiyalari (mahkamlash vositalari, asboblari va boshqalar), materiallar va moddalarning xususiyati haqidagi ishonchli ma'lumotlar, texnikaviy-iqtisodiy axborotni tavsiflash va kodlash;

- aniq maqsadga yo'naltirilgan davlat ilmiy-texnikaviy, ijtimoiy-iqtisodiy dasturlar va loyiha obyektlari;

- respublikaga (yoki muayyan korxonalarga) mahsulot yoki texnologiyasining raqobat qilish qobiliyatini oshirishini ta'minlash imkoniyatini beradigan fan va texnika yutuqlari;

- respublikada ichki ehtiyojni qondirish uchun, shuningdek, boshqa davlatlarga eksport sifatida yetkazib berish uchun ishlab chiqariladigan mahsulotlari;

- standartlarning talablari va texnikaviy shartlari xalqaro, mintaqaviy va sanoati rivojlangan xorijiy mamlakatlarning milliy standartlari talablari bilan uyg'unlashtirilishi.

«O'zstandart» agentligi, Davlat arxitektura va qurilish qo'mitasi, Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi va Sog'liqni

saqlash vazirligi standartlashtirish bo'yicha tarmoqlararo ishlarni tashkil qilish va muvofiqlashtirish uchun o'z huquqlari doirasida yo'riqnomalar, qoidalar, nizomlar, uslubiy ko'rsatmalar, rahbariy hujjatlarni (RH) va tavsiyalarni (T) ishlab chiqadilar va manfaatdor tomonlar bilan kelishilgan holda tasdiqlaydilar.

O'zbekiston Respublikasining standartlarini ishlab chiqish, kelishish, tasdiqlash va ro'yxatga olish tartibi O'z RST 1.1-92 standarti bilan belgilanadi.

Standartlashtirish obyektining o'ziga xos xususiyatlariga va unga belgilanadigan talablar mazmuniga bog'liq ravishda O'zbekiston Respublikasi standartlashtirish tizimi asosiy turdagi standartlarni nazarda tutadi:

- asos bo'luvchi standartlar;
- umumtexnikaviy standartlar;
- texnikaviy shartlar (mahsulot, jarayon, xizmatlar uchun) standartlari;
- texnikaviy talablar standartlari;
- nazorat usullari (sinovlar, tahlillar, o'lchashlar, ta'riflar) standartlari.

Lozim bo'lgan taqdirda mahsulotning asosiy texnikaviy-iqtisodiy ko'rsatkichlarini, uning nomlarini (turlarini), oqilona tarkibi va boshqa talablarni aniq belgilaydigan bir turdagi mahsulot guruhiga standart ishlab chiqilishi mumkin.

Asos bo'luvchi standartlar tashkiliy-texnikaviy jarayonlarning bajarilishi, ishlab chiqish, ishlab chiqarish va mahsulotni qo'llash jarayonlari tartibini (qoidalarini), shuningdek, faoliyatning muayyan sohasida ishlarni tashkil etishning asosiy (umumiy) qoidalarini belgilaydi.

Umumtexnikaviy standartlar mahsulotning texnikaviy jihatdan bir-biriga mos bo'lishini va o'zaro almashuvini ta'minlash uchun zarur bo'lgan ishlab chiqish, ishlab chiqarish va mahsulotni qo'llashning umumtexnikaviy talablarini, shuningdek, mehnat

xavfsizligi, atrof-muhitni (ekologiya) zararli ta'sirlardan (shovqin, tebranish va boshqalardan) himoya qilish, namunaviy texnologik jarayonlar, mahsulot sifatini nazorat qilish (sinash) usullari, hujjatlarni birxillashtirish talablarini belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasi standartlari va texnikaviy shartlarini ishlab chiqish, odatda, har bir manfaatdor korxona va tashkilotning muxtor vakili bo'lgan mutaxassislardan tashkil topgan texnikaviy qo'mitalar (TQ) kuchi bilan yoki standartlashtirish bo'yicha tayanch tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladi.



NAZORAT SAVOLLARI

1. Standart deb nimaga aytiladi?
2. Standartlashtirish deb nimaga aytiladi?
3. Standartlashtirishning asosiy tamoyillari haqida nimani bilasiz?
4. O'zbekistonda standartlashtirishni qaysi milliy idora amalga oshiradi?
5. Umumtexnikaviy standartlar nima?
6. Texnik shartlar qanday hujjat hisoblanadi?
7. Rahbariy hujjatlar deganda nimani tushunasiz?

II bob. STANDARTLASHTIRISHNING QONUNY ASOSLARI VA NAZORAT QILISHNI TASHKILLASHTIRISH

2.1. O‘zbekistonda standartlashtirish sohasining rivojlanish tarixi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 1993-yilning 28-dekabrida imzolangan «Standartlashtirish to‘g‘risida»gi Qonuni standartlashtirish bo‘yicha qoidalar, me‘yoriy hujjatlar, standartlar ustidan davlat nazorati, unga doir ishlarining moliyaviy ta‘minoti va ularning hayotga tatbiq etilishi, standartlashtirish bo‘yicha ishlarni o‘tkazishning yanada yuqoriroq rivojlanish bosqichiga ko‘tarilishiga asos bo‘ldi.

«Standartlashtirish to‘g‘risida»gi Qonun 5 bo‘limdan iborat bo‘lib, bu bo‘limlar 12 moddani o‘z ichiga olgan. Respublikamizda standartlashtirish tizimi, standartlashtirish ishlarini o‘tkazish, qonun hujjatlari, xalqaro shartnomalar, me‘yoriy hujjatlar, davlat nazorat organlari, davlat inspektorlari, ularning huquqlari va javobgarligi, standartlashtirish va nazorat qilishga doir ishlarining moliyaviy ta‘minoti, standartlarni qo‘llashni rag‘batlantirish bo‘yicha keng ma‘lumotlar berilgan.

Qonunga muvofiq, standartlashtirish ishlarini o‘tkazishning umumiy qoidalarini, manfaatdor tomonlarning davlat boshqaruv organlari, jamoat birlashmalari bilan olib boriladigan hamkorlikdagi ishining shakl va usullarini «O‘zstandart» agentligi belgilaydi.

Respublikamizda standartlashtirish ishlarini o‘tkazishning umumiy texnik qoidalarini tartibga solib turuvchi davlat stan-

dartlashtirish tizimi faoliyat ko'rsatadi. Shuningdek, qonunga muvofiq davlat boshqaruv organlari o'z vakolatlari doirasida standartlar va texnik shartlarni ushbu qonunni qo'llashga doir yo'riqnomalar va izohlarni ishlab chiqadilar, tasdiqlaydilar, nashr etadilar. Standartlarni nashr qilish va qayta nashr etishni ularni tasdiqlagan organlar amalga oshiradilar.

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasida standartlashtirishga doir me'yoriy hujjatlar, shuningdek, standartlashtirish qoidalari, normalari, texnik-iqtisodiy axborot klassifikatorlarini ishlab chiqish va qo'llash tartibi «O'zstandart» tomonidan belgilanadi.

Qonunning II bo'lim 6-moddasiga binoan standartlashtirishga doir me'yoriy hujjatlar Vatanimiz hamda chet el fan va texnikasining zamonaviy yutuqlariga asoslangan, O'zbekiston Respublikasining manfaatlari himoya qilinishini va ishlab chiqarilayotgan mahsulotning raqobat qila olish imkonini ta'minlash uchun asosli hollarda standartlarda istiqbolga mo'ljallangan, an'anaviy texnologiyalarning imkoniyatlaridan ildamlashgan dastlabki talablar belgilab qo'yilishi alohida ko'rsatilgan.

Qonunda davlat yo'li bilan standartlashtirish va nazorat qilishga doir ishlarning moliyaviy ta'minoti, mahsulot ishlab chiqarishni amalga oshirayotgan va mahsulotlarni standartlarga muvofiqlik belgisi bilan tamg'alash huquqini olgan xo'jalik faoliyati subyektlarini iqtisodiy qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish chora-tadbirlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanishi ko'rsatilgan.

O'zbekistonda standartlashtirishning rivojlanish sanalari

Respublikamizda standartlashtirish ishlarining boshlanishi 1923-yilda Toshkent shahrida Turkiston tosh tarozilar Markaziy byurosining tashkil etilishi bilan belgilanadi.

1926-yil iyun oyida O‘zbekiston Respublikasi Xalq Komissariatining Ishchi-dehqon Inspeksiyasi qoshida Standartlashtirish byurosi tashkil etildi.

1933-yilda Standartlashtirish byurosi Butunittifoq standartlashtirish komitetining O‘zbekiston bo‘yicha tosh va tarozilar ishlari bo‘yicha markaziy boshqarmaga aylantiriladi. 1939-yilda ushbu boshqarma O‘zbekiston Ministrlar Soveti qoshida tashkil etiladi va uning tarkibida Standartlar va o‘lchov asboblari davlat nazorati Respublika laboratoriyasi (O‘z RLGN) tuziladi va keyinchalik bu laboratoriya Standartlashtirish va metrologiya O‘zbekiston markaziga (O‘z SSM) aylantiriladi.

1973-yilda O‘zbekiston Ministrlar Soveti qoshidagi o‘lchov va o‘lchov asboblari boshqarmasi Gosstandart qoshidagi O‘zbekiston Respublikasi standartlashtirish boshqarmasiga (O‘zgosstandart) aylantiriladi.

1992-yilda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining №93 qaroriga asosan Vazirlar Mahkamasi qoshida O‘zbekiston Respublikasi Standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish markazi (O‘zgosstandart) yangidan tashkil etiladi.

2002-yilda esa O‘zgosstandart O‘zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligiga («O‘zstandart» agentligi) aylantirildi.

2.2. Standartlashtirishga doir me‘yoriy hujjatlar

Respublika standartlashtirish bo‘yicha ishlarning tashkil etilishini, muvofiqlashtirilishini va ishlarning maqbul darajada olib borilishini quyidagi idoralar ta‘minlaydilar:

- tarmoqlararo yo‘nalishga belgilangan mahsulot bo‘yicha – «O‘zstandart» agentligi;

- qurilish va qurilish sanoati, loyihalash va konstruksiyalash bo‘yicha – O‘zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo‘mitasi;

– tabiiy resurslardan foydalanishni yo‘lga qo‘yish, atrof-muhitni ifloslanishdan va boshqa zararli ta’sirlardan muhofaza qilish sohasi bo‘yicha – O‘zbekiston Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi;

– tibbiyot yo‘nalishidagi mahsulotlar, tibbiy texnika buyumlari, dorivor moddalar va respublika sanoati ishlab chiqaradigan mahsulot tarkibida inson uchun zararli moddalar miqdorini tartibga solish sohasida – O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi.

O‘zbekiston Respublikasida standartlashtirish bo‘yicha ishlarni vazirliklar, texnikaviy qo‘mitalar, korxonalar, birlashmalar va boshqa manfaatdor tashkilotlarning istiqbolli rejalari asosida tuzilgan yillik reja bo‘yicha «O‘zstandart» agentligi amalga oshiradi.

Respublika standartlashtirish rejasiga, birinchi navbatda, milliy standartlar talablari bilan uyg‘unlashtirishni, kishilarning hayoti va sog‘lig‘i uchun xavfsizlikni, atrof-muhitni muhofaza qilishni, iste’molchilar huquqining himoya qilinishi, milliy ijtimoiy-iqtisodiy va milliy texnikaviy dasturlarning amalga oshirilishini ta’minlaydigan milliy standartlarni ishlab chiqish kiritiladi.

«O‘zstandart» agentligi, Davarxitektqurilish qo‘mitasi, Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi, Sog‘liqni saqlash vazirligi (biriktirilgan sohalar bo‘yicha) respublika standartlarini ko‘rib chiqadilar, tasdiqlaydilar, ularning qo‘llanish muddatini cho‘zadilar va bekor qiladilar hamda unga o‘zgartirishlar kiritadilar.

Respublikada ishlab chiqilgan standartlar va ularga o‘zgartirishlar tasdiqlanishi darajasidan qat’i nazar O‘zstandart davlat ro‘yxatidan o‘tkazilishi lozim.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va shaharlarda standartlashtirish bo‘yicha ishlarni tashkil qilish, muvofiqlashtirish va uning muqobil darajasini ta’minlash ishlarini O‘zstandart,

O'zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo'mitasi, Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi va Sog'liqni saqlash vazirligining tegishli hududiy idoralari va boshqarmalari amalga oshiradi.

Sanoat va qishloq xo'jaligi tarmoqlarida standartlashtirish bo'yicha ishlarni tashkil qilish va ularni muvofiqlashtirish uchun zaruriyat bo'lgan hollarda, vazirliklar, idoralar, uyushmalar, konsernlar va boshqa xo'jalik tuzilmalarida bo'linmalar (xizmatlar) va (yoki) fan-texnikaning tegishli sohalaridagi yuqori ilmiy-texnikaviy imkoniyatlarga ega bo'lgan tashkilotlarda standartlashtirish bo'yicha tayanch tashkilotlari tuziladi.

O'zbekiston hududida yuritiladigan me'yoriy hujjatlar

«O'zstandart» agentligi tomonidan tasdiqlanadi.

- Davlatlararo standart – GOST.
- O'zbekiston davlat standarti – O'z DSt.
- Umumdavlat klassifikatori – O'z DT.
- Normalar va qoidalar –*).
- O'zbekiston rahbariy hujjati – O'z RH.
- Tavsiyalar – O'z T.

Tarmoqlar bo'yicha yuritiladigan me'yoriy hujjatlar

Tarmoq tashkilotlar tomonidan tasdiqlanadi.

- Tarmoq standarti – TSt.
- Tarmoq klassifikatori – TT.
- Norma va qoidalar –*).
- Rahbariy hujjat – RH.
- Tavsiyanomalar – T.

Ma'muriy-hududiy me'yoriy hujjatlar

Viloyat hokimlari tomonidan tasdiqlanadi.

- Ma'muriy-hududiy standart – MHSt.

Korxona bo'yicha me'yoriy hujjatlar

Korxona rahbarlari tomonidan tasdiqlanadi.

- Texnik shartlar – TSh.
- Korxona standarti – KSt.

Standartlashtirish tub mohiyati bilan ishlab chiqarishni tashkil etishning eng samarador shakllari haqidagi fandir.

Standartlashtirish iqtisod, texnologiya va fundamental fanlar singari asosiy yo'nalishlarni bir-biriga bog'lovchi vosita hamdir.

Ko'pgina texnika jihatidan ilg'or mamlakatlarda standartlashtirish masalalariga o'suvchi qiziqish qayd qilinmoqda, uning asosi bo'lgan standartlashtirishning nazariyasiga ham katta e'tibor berilmoqda.

Standartlashtirishni texnika taraqqiyotida, ishlab chiqarishda eng ratsional joriy qilish, mahsulot sifatini yaxshilash, mehnat xarajatlari va moddiy resurslarning ta'sirchan vositalaridan biri sifatida ko'rilmogda.

Yuqorida ta'kidlanganidek, 1993-yilning 28-dekabrida metrologiya va sertifikatlashtirish bo'yicha qabul qilingan qonunlar bilan bir qatorda «Standartlashtirish to'g'risida» Qonun ham qabul qilindi. Bu qonun respublikamizda standartlashtirish sohasi va standartlashtirish tizimi uchun asosiy hujjat hisoblanadi.

2.3. Standartlar ustidan davlat nazorati organlari va obyektlari

Metrologiya va standartlashtirishga oid faoliyatni davlat tomonidan boshqarishni metrologiya bo'yicha milliy organ – «O'zstandart» agentligi (keyinchalik «O'zstandart» deb yuritiladi) amalga oshiradi.

«O'zstandart»ga respublika hududida quyidagi davlat metrologiya tekshiruv va nazoratini amalga oshirish vazifasi ham yuklatilgan:

- o‘lchash vositalarini sinash;
- o‘lchash vositalarini tekshiruvdan o‘tkazish;
- yuridik va jismoniy shaxslarni o‘lchash vositalarini tayyorlash, tekshiruvdan o‘tkazish, ta’minlash, kalibrlash va sotish huquqini beradigan litsenziyalar bilan ta’minlash hamda akkreditlash;

– o‘lchash vositalarining holati va yo‘nalishini, o‘lchashlarning bajarilish uslubiyatlarini tekshiruvdan o‘tkazish, metrologiya qoidalariga rioya etilishini nazorat qilish.

Davlat metrologiya tekshiruvi va nazoratining obyektlari quyidagilar hisoblanadi:

- etalonlar;
- o‘lchash vositalari;
- modda va materiallar tarkibi hamda xossalariining standart namunalari;
- axborot o‘lchash tizimlari;
- o‘lchashlarni bajarish uslubiyatlari;
- metrologiya me‘yorlari va qoidalarida nazarda tutilgan o‘zga obyektlar.

Davlat metrologiya tekshiruvi va nazoratini ko‘pgina sohalarda tatbiq etish mumkin. Bu sohalarga quyidagilar kiradi:

- sog‘liqni saqlash, veterinariya, atrof-muhitni muhofaza qilish;

- moddiy boyliklar va energetik resurslarni hisobga olish;
- savdo, tijorat, bojxona, pochta va soliq operatsiyalarini o‘tkazish;

- zaharli, yengil alangalanuvchan, portlovchi va radioaktiv moddalarni saqlash, tashish hamda yo‘q qilib yuborish;

- davlat muhofazasini ta’minlash;
- mehnat xavfsizligini va transport harakati xavfsizligini ta’minlash;

- sertifikatlanadigan mahsulotning xavfsizligini va sifatini aniqlash;

- geodezik va gidrometeorologik ishlar;
- oʻlchash vositalarini davlat sinovidan, tekshiruvdan, kalibrlashdan, taʼmirlashdan va metrologik attestatlashdan oʻtkazish;
- foydali qazilmalarni qazib olish;
- milliy va xalqaro sport rekordlarini roʻyxatga olish.

Yuqorida keltirilgan sohalarida foydalanadigan, ishlab chiqarilishi va import boʻyicha chetdan olib kelinishi lozim boʻlgan oʻlchash vositalari davlat sinovlaridan yoki metrologik attestatlashdan oʻtishi lozim.

Standartlashtirish sohasi boʻyicha ham davlat nazorati ish olib bormoqda. Uning asosiy vazifasi vazirliklar, mahkamalar va korxonalar, yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan standartlar talablariga qatʼiy amal qilinishini, yangi standartlarni tatbiq etishni taʼminlash va nazorat etish hisoblanadi.

Davlat nazoratining yana bir muhim yoʻnalishi – turli standart toifalarini davlat qaydnomasidan oʻtkazishdan oldin ekspertiza qilishdir.

Metrologiya toʻgʻrisidagi qonunda koʻrsatilganidek, oʻlchash vositalarining davlat sinovlarini oʻtkazish, ularning turlarini tasdiqlash va davlat roʻyxatiga kiritish «Oʻzstandart» tomonidan amalga oshiriladi.

Qonunda yana bir masala – davlat roʻyxati belgisini qoʻyish toʻgʻrisida ham bayon etilgan. Metrologiya haqidagi qonunda aytilishicha, tasdiqlangan oʻlchash vositalariga yoki ularning foydalanish hujjatlariga ishlab chiqaruvchi davlat reyestri belgisi qoʻyilishi shart.

Maʼlumki, ishlab chiqarishdagi oʻlchash vositalarining holati va ularni vaqti-vaqti bilan tekshiruvdan oʻtkazib turish har doim eʼtiborda boʻlmoqligi lozim. Ular boʻyicha roʻyxatlar tuziladi va

o'lash vositalari turkumlarining ro'yxati «O'zstandart» tomonidan tasdiqlanadi.

«O'zstandart» agentligi standartlashtirish bo'yicha milliy idora hisoblanadi.

«O'zstandart» tarkibida bir necha bo'limlar, sektor, laboratoriya, guruhlar, har bir viloyat boshqarma va markazlari, ilmiy-tadqiqot instituti, Milliy Etalonlar Markazi mujassamlashgan.

«O'zstandart» agentligiga qarashli turli soha va tarmoqlarni o'z ichiga olgan, bir xil nomdagi bo'limlar ham bor. Bularga standartlar va mahsulotni sertifikatlashtirish bo'yicha davlat nazorati va o'lash vositalarini davlat qiyoslovidan o'tkazish va attestatlash sohaviy bo'limlari kiradi.

Standartlar va mahsulotni sertifikatlashtirish bo'yicha davlat nazorati sohaviy bo'limlar: og'ir sanoat, mashinasozlik, yengil sanoat, mahalliy sanoat hamda agrosanoat kompleksi doirasida o'z faoliyatini amalga oshiradi.

«O'zstandart» agentligining ilmiy-uslubiy markazi etib, O'zbekiston Respublikasida standartlashtirish, metrologiya, sertifikatlashtirish va mahsulot sifatini boshqarish sohalaridagi tadqiqot va mutaxassislar malakasini oshirish va qayta tayyorlash instituti – hozirda Standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish ilmiy-tadqiqot instituti tayinlangan.

Sertifikatlashtirish milliy idorasi quyidagi asosiy yo'nalishlar bo'yicha o'z faoliyatini amalga oshirmoqda:

- respublikada sertifikatlashtirishni qo'llash va takomillashtirishning umumiy siyosatini ishlab chiqish, qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi tegishli davlat idoralari bilan aloqalarni o'rnatish;

- sertifikatlashtirish masalalari bo'yicha boshqa mamlakat va xalqaro tashkilotlarning vakillari bilan, o'zaro kelishilgan asosda

aloqalarni o'rnatish, kerak bo'lsa, bu tashkilotlar faoliyatida O'zbekiston Respublikasining qatnashishini ta'minlash;

– sertifikatlashtirishda yagona qoida va ish tartiblarini belgilash, bularga rioya qilishning nazorati, sertifikatlashtirish natijalari bo'yicha hujjatlarni axborotli ma'lumot bilan ta'minlash.

Vazirlar Mahkamasining qarorini bajarish yo'lida «O'zstandart» o'zining viloyat boshqarmalarini (SMSHM) tuzib, ularning ishlariga har taraflama ko'mak ko'rsatmoqda. Respublikadagi sinov laboratoriyalarini akkreditlash ishlari jadallik bilan amalga oshirilmoqda. Farg'ona, Qo'qon, Qarshi, Buxoro, Samarqand shaharlaridagi sinov laboratoriyalari akkreditlanib, hozirda ular turli sinov amallarini o'tkazmoqdalar.


«O'zstandart» agentligi tarkibidagi oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini tekshiruvchi sinov laboratoriyasi akkreditlangan laboratoriyalardan hisoblanib, shu kungacha o'nlab muayyan turdagi mahsulotlarga muvofiqlik sertifikatini berildi.

Respublika hududiga keltiriladigan yoki undan chetga chiqariladigan mollar (mahsulotlar)ning xavfsizligini tasdiqlash bilan bog'liq bo'lgan amallar tegishli davlat idoralari bilan kelishilgan holda «O'zstandart» tomonidan tayyorlangan alohida hujjat bo'yicha bajariladi.


Xalqaro hamkorlikni rivojlantirish maqsadida Turkiya va Xitoy davlatlari bilan standartlashtirish, sertifikatlashtirish va metrologiya sohalarida hamkorlik qilish niyatida bitim tuzildi. Bu yo'ldagi ishlar o'z mevasini bermoqda. Turkiya mutaxassislari Toshkentda bo'lib, «O'zstandart» tomonidan uyushtirilgan respublika seminarlarida sertifikatlashtirish sohasida ma'ruzalar bilan qatnashmoqdalar.

O'zbekiston Respublikasi Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi qatoriga kiruvchi mamlakatlar bilan standartlashtirish, sertifikatlashtirish va metrologiya sohalarida yaqin hamkorlik qilmoqda.


**O‘zbekiston standartlashtirish va sertifikatlashtirish agentligi
(«O‘zstandart» agentligi) markaziy apparatining tuzilmasi**



O‘zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi («O‘zstandart» agentligi)ning tashkiliy tuzilmasi



**Hududiy standartlashtirish va metrologiya boshqarmalari (SMB)
apparating namunaviy tuzilmasi**



Standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish soha-larida ilmiy tadqiqot ishlari ham o'z yo'nalishiga egadir.

O'z SMSITI standartlashtirish, metrologiya va sertifikat-lashtirish sohaslarida asosiy ilmiy-uslubiy baza hisoblanadi. Ushbu institut yuqorida qayd etilgan sohaslar bo'yicha fundamental tadqiqotlar olib borishi bilan bir qatorda respublikaning ushbu sohaslar bo'yicha malaka oshirish va qayta tayyorlash instituti hamdir. Shu sohalardagi belgilangan maqsadlarni amalga oshirish uchun u:

- standartlashtirish, metrologiya, sertifikatlashtirish va mahsulot sifati sohalarida hozirgi xalqaro talablarga javob beradigan milliy ilmiy baza yaratadi;

- standartlashtirish, metrologiya, sertifikatlashtirish va mahsulot sifati milliy tizimlarini yaratishda ularning ilmiy va uslubiy asoslarini ishlab chiqadi;

- mahsulotning raqobatdoshlik xususiyatini ta'minlaydigan, atrof-muhitni ishonchli darajada himoya qilishga, inson sog'lig'ini saqlashga, mehnat xavfsizligini ta'minlashga, mudofaa qobiliyatini oshirishga qaratilgan xalqaro, me'yoriy va tashkiliy-uslubiy hujjatlar bilan uyg'unlashadigan, asos bo'luvchi hujjatlar ishlab chiqadi va joriy etadi;

- standartlashtirish va metrologiya sohalaridagi mavjud yoki uchraydigan muammolarni tadqiq qilish, davlat tilida me'yoriy hujjatlar, ma'lumotnomalar, lug'atlar yaratadi;

- yuqori malakali ilmiy kadrlar tayyorlaydi;

- standartlashtirish, metrologiya, sertifikatlashtirish va mahsulot sifatining ilmiy masalalari bo'yicha xalqaro milliy va mintaqaviy tashkilotlar bilan hamkorlikni amalga oshiradi;

- standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish sohalarida ishlayotgan mutaxassislarining malakasini oshirishni ta'minlaydi;

- sertifikatlashtirish sohasida ishlaydigan ekspert-auditorlarni tayyorlaydi va boshqalar.

Institut tashkil qilinganiga ko'p vaqt o'tmaganligiga qaramay, shu kunga qadar respublika hayotida muhim ahamiyatga ega bo'lgan bir qator hujjatlar yaratdi va yaratmoqda. Bu hujjatlarning ahamiyati beqiyos bo'lib, shu sohalaridagi ishlarga qo'yilgan birinchi poydevorlardan hisoblanadi.

Institut har taraflama tashkiliy, uslubiy va moddiy-texnika ta'minoti bo'yicha mustahkamlanmoqda hamda bu sohalarida

ishlaydigan tajribali, bilimdon mutaxassislarni tayyorlab, kelajakda mustaqil respublika oldida turgan dolzarb muammolarni yechishga o'zining salmoqli hissasini qo'shadi, degan umid-damiz.

2.4. Mahsulot sifati va raqobatbardoshligini aniqlash, me'yoriy hujjatlarni ekspertizadan o'tkazish

Belgilangan mahsulotning sifat ko'rsatkichlarining nomenklaturasini tanlash, bu ko'rsatkichlarning qiymatlarini aniqlash va ularni asos bo'luvchi qiymatlar bilan taqqoslashni o'z ichiga oluvchi ishlarning yig'indisi *mahsulot sifatining darajasini baholash* deb ataladi. Mahsulot sifatining darajasini baholash uchun mahsulotlar ikkita turkumga bo'linadi:

- foydalanishda sarflanadigan mahsulot;
- o'z resursini sarflaydigan mahsulot.

Mahsulot sifatining ko'rsatkichlar nomenklaturasini tanlab olishni asoslash quyidagilarni inobatga olgan holda amalga oshiriladi:

- mahsulotning ishlatilishidagi sharoitlari va vazifasini;
- iste'molchilar talablarining tahlilini;
- mahsulot sifatining tavsiflanuvchi tarkibi va tuzilishini;
- sifat ko'rsatkichlariga bo'lgan asosiy talablarni.

Mahsulot sifatiga ta'sir etuvchi omillarni to'rt toifaga bo'lish mumkin:


- texnikaviy;
- tashkiliy;
- iqtisodiy;
- ijtimoiy.

Texnikaviy omillarga uskunalarning jihozlanish, asboblarning hamda nazorat vositalarining, texnikaviy hujjatlarning holati; dastlabki materiallar, yarimfabrikatlarning sifati va shunga o'xshashlar kiradi.

Tashkiliy omillarga rejalik, bir maromda ishlash, texnikaviy xizmat va uskunalarni ta'mirlash; materiallar, komplektlanuvchi buyumlar, jihozlanishi, asboblarni texnikaviy hujjatlar va nazorat vositalari bilan ta'minlanganligi, ishlab chiqarish madaniyati; mehnatni ilmiy asosda tashkil etish; ovqatlanish, ish vaqtida dam olishni tashkil etish va boshqalar kiradi.

Iqtisodiy omillarga mehnatga pul to'lash shakllari; oylik maoshning miqdori; yuqori sifatli mahsulotni va ishni moddiy rag'batlantirish; mahsulotning yaroqsizligi uchun oylik maoshidan ushlab qolish; uning sifat darajasi; tannarxi; mahsulotning bahosi va shunga o'xshashlar kiradi.

Ijtimoiy omillarga kadrlarni tanlash, joy-joyiga qo'yish; malaka oshirishni tashkil qilish; ilmiy-texnikaviy ijodni, ijodkorlik va ixtirochilikni tashkil etish; turmush sharoitlari, o'zaro munosabatlar; jamoadagi psixologik iqlim va tarbiyaviy ishlar kiradi.



Sifat halqasi modeli

1. Marketing, mahsulotning bozorgirligini o'rganish, izlanish olib borish.

2. Loyihalash va texnik talablarni ishlab chiqish.
3. Moddiy-texnik ta'minot.
4. Texnologik jarayonni tayyorlash va ishlab chiqish.
5. Mahsulotni ishlab chiqarish.
6. Mahsulotni sinash va nazorat qilish.
7. Mahsulotni qadoqlash (upakovka) va saqlash.
8. Mahsulotni taqsimlash va sotish.
9. Montaj va ekspluatatsiya qilish.
10. Xizmat qilishda texnik yordam ko'rsatish.
11. Chiqindilarni qayta ishlash, utilizatsiya qilish.

Mahsulot sifatining tashkil topishi, uning hamma hayotiy bosqichlarida: tadqiqot va loyihalash ishlarida; ishlab chiqarishda; muomalada; iste'molda yoki ishlatishida namoyon bo'ladi.

Tadqiqot va loyihalash ishlari mahsulot sifatining oshirilishida belgilovchi o'rinni egallaydi. Bu bosqich sifat tashkil topishining boshlanishi hisoblanib, bunga ilmiy-texnika taraqqiyotining qo'llanishi natijasida hamda me'yoriy hujjatlarni mahsulot ishlab chiqarish uchun uni muomalaga, iste'molga yoki ishlatilishiga belgilangan iqtisodiy ko'rsatkichlariga rioya qilgan holda tayyorlash natijasida erishiladi. Bu bosqichda quyidagi tadbirlar amalga oshiriladi:

- andozalar, sifat ko'rsatkichlariga ega bo'lgan namunalarga yo'naltirilgan ilmiy-tadqiqot, tajriba-konstruktorlik va boshqa ishlarni bajarish;
- me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqish va joriy qilish;
- standartlarga rioya qilinishida o'z-o'zini nazorat qilishni amalga oshirish;
- mahsulot sifatining darajasini istiqbollash va me'yorlash;
- mahsulot sifatining rejalangan darajasiga erishish, turli usullarni tayyorlash choralarini joriy qilish, sinash va nazoratga yo'naltirilgan konstruktorlik va texnologik tadbirlarni ishlab chiqish;

– bizda va xorijda chiqarilayotgan shu xildagi mahsulot sifati haqidagi axborotni tahlil qilish;

– mahsulot sifatining ko‘rsatkichlarini va shuningdek, sifat darajasini baholashni tasniflash va aniqlash.

Mahsulot sifatini boshqarish tizimlari ishlab chiqish bosqichida texnikaviy daraja rivojlanishining doimo yuqori sur‘atlarda bo‘lishini ta‘minlaydi.

Murakkab va mas‘uliyatli buyumlar uchun ishlab chiqishda sifatni boshqarish jarayonida maxsus ish rejaları tuziladi. Maxsus konstruktorlik ilmiy-tadqiqot yoki loyihalash institutlarida, sanoat korxonalarida konstruktorlik texnologik bo‘lim (byuro)larda yangi mahsulot namunalarini ishlab chiqish mumkin. Bunda asosiy e‘tibor ushbu buyum namunasi haqiqatan yangi bo‘lishligiga yoki ishlab chiqarishdagi buyumlarning takomillashganligiga qaratiladi.

Mahsulotni ishlab chiqarishga tayyorlash bosqichida optimal texnologik jarayonlarni tanlash qiyin va u mas‘uliyatli vazifa, chunki bu bosqichda doimiy texnologiyaning qiyinlashishi hamda ishlab chiqarishning iqtisodiy ko‘rsatkichlarini yaxshilash zaruriyati bo‘ladi. Tayyorlash bosqichida mahsulot sifatini oshirish korxonaning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Mahsulotni ishlab chiqarish bosqichida esa quyidagi tadbirlar amalga oshirilishi mo‘ljallanadi:

- mahsulotni bevosita tayyorlash;
- uskunalarning, jihozlarning, nazorat-o‘lchash texnikasining sifati kerakli darajada bo‘lishini ta‘minlash va nazorat qilish;
- mahsulot sifatini oshirish, yaroqsizlikning oldini olish, me‘yoriy hujjatlarga mos kelmaydigan mahsulot ishlab chiqarish sabablarini bartaraf qilish tadbirlarini tayyorlash va amalga oshirish;
- me‘yoriy hujjatlarni joriy qilish va ularga qat’iy rioya qilish;
- korxonaga tushayotgan xomashyoning, materiallarning, yarimfabrikatlarning, komplektlanuvchi buyumlarning kirishdagi nazoratini o‘rnatish;

– chiqarilayotgan mahsulotning ish bajarishdagi, qabuldagi va sinashdagi nazoratini o‘rnatish;

– tekshiruvchan nazoratga, me‘yoriy hujjatlarga rioya qilish;

– ishlatilish bosqichidagi mahsulotning sifati haqidagi axborotni yig‘ish va to‘plash, uning yaroqsizligini, u haqidagi shikoyatlarni hisobga olish va tahlil qilish;

– xomashyo, materiallar, yarimfabrikatlar, komplektlanuvchi buyumlarni va tayyor mahsulotni omborlarda, korxona ichidagi transportlarda me‘yoriy hujjatlarning talablariga binoan olib yurilishini ta‘minlash va nazorat qilish;

– belgilangan sifat darajasidagi mahsulotni chiqazishda korxonaning xodimlarini moddiy va ma‘naviy rag‘batlantirish.

Ishlab chiqarish birlashmalarida, korxonalarda ishlab chiqarish bosqichida qo‘yilgan maqsadlarga va vazifalarga erishishda mahsulot sifatini boshqarish tizimlari ta‘minlanadi.

Har qanday boshqaruv tizimining muhim tashkil qiluvchi qisimlaridan biri nazoratdir. Mahsulot sifatini boshqarish tizimida – bu standart, texnik shartlarga rioya qilish, metrologik ta‘minot va sanoat mahsulotlari sifatini joriy qilish ustidan davlat nazorati va idoraviy nazorat. Mamlakatimizda mahsulot sifatini boshqarish umumiy tizimida davlat nazorati muhim o‘rin egallaydi. Davlat nazorati – respublikamizning butun hududida, xalq xo‘jaligining barcha sohalarida davlat nomidan «O‘zstandart» agentligi, uning hududiy organlari tomonidan tanlab o‘tkaziladigan nazorat. U xalq xo‘jaligining alohida sohalar, mahsulotning alohida turlari bilan chegaralanmagan, bu esa nazoratning eng samarali shaklini – mahsulotni ishlab chiqaruvchi korxonalarda tayyor mahsulotning standart talablari va texnik shartlarga mosligini tekshirish bilan bir qatorda uni tayyorlash uchun qo‘llanadigan xomashyo, material, butlovchi buyumlar, uzal, agregat va h.k.lar sifatini tekshiradigan kompleksli sohalararo tekshiruvni qo‘llashga imkon beradi. Turli

vazirliklar ishlab chiqaruvchi korxonalarning keng doirasini qamrab oluvchi kompleksli tekshiruv materiallarining tahlili chiqarilayotgan mahsulot sifati va topilgan kamchilik sabablari haqida xulosa chiqarishga imkon beradi.

Davlat nazorat organlarining sohalararo xarakteri har bir davrda e'tiborni xalq xo'jaligi uchun muhim bo'lgan mahsulot yoki alohida talab qo'yiladigan mahsulotga qaratish imkonini beradi.

Tekshiruvlar yuqori malakali mutaxassislar tomonidan nafaqat sifatning ishonchli bahosini olish uchun, balki mahsulot sifatini oshirish maqsadida korxona va yuqori tashkilotlarga tegishli ta'sir ko'rsatish uchun zarur bo'lgan hajmda rejalashtiriladi va amalga oshiriladi.

Standart, texnik shartlarga rioya qilish va ishlab chiqarishni metrologik ta'minlashni joriy qilish ustidan bir vaqtdagi nazorat o'lchash ma'lumotining sifatini ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifatiga bo'lgan ta'sirini baholashga va nafaqat talab qilinayotgan choralarni qo'llashga, balki ishlab chiqarish metrologik ta'minoti samaradorligini va chiqarilayotgan mahsulot sifatini oshirish maqsadida korxonalarga ta'sir ko'rsatishga imkon beradi.

Davlat nazoratining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- standart va texnik shartlarni o'z vaqtida joriy qilish va ularga rioya qilishni ta'minlash;

- o'lchash birliligi va talab qilinayotgan aniqlikni ta'minlash;

- standart, texnik shartlar hamda standartlashtirish va metrologik ta'minlash sohasidagi boshqa qoida talablari buzilishining sabablari, shuningdek, sifatsiz mahsulotlarni ishlab chiqarish sabablarini aniqlash;

- standart, texnik shartlar hamda standartlashtirish va metrologik ta'minlash sohasidagi boshqa qoidalar buzilishini, shuningdek, sifatsiz mahsulotlarni ishlab chiqarishning oldini olish va yo'qotish, davlat intizomini mustahkamlash va standart,

texnik shartlar hamda standartlashtirish va metrologik ta'minlash sohasidagi boshqa qoidalarining joriy qilinishi va ularga rioya qilinishi uchun korxonalar javobgarligini oshirish bo'yicha choralar ko'rish;

- zamonaviy xalq xo'jaligi talablariga javob bermaydigan me'yoriy texnik hujjatlarni aniqlash va standart hamda texnik shartlarning ilmiy-texnik darajasini oshirish bo'yicha choralar ko'rish;

- sanoat mahsulotini attestatlash bo'yicha ishlarning to'g'ri o'tkazilishini nazorat qilish;

- standartlashtirish xizmatlari va metrologik xizmatlar faoliyatini nazorat qilish;

- mahsulot sifatini boshqarish kompleksli tizimlari (MSB KT)ni ishlab chiqish, joriy qilish va ishlash holatini tekshirish.

Mahsulot sifatining shakllanishi uchun standartlarni joriy qilish bosqichi juda muhimdir. Standartlashtirish deganda mavjud yoki bo'lajak masalalarga nisbatan umumiy va ko'p marta tatbiq etiladigan talablarni belgilash orqali ma'lum sohada eng maqbul darajada tartiblashtirishga yo'naltirilgan ilmiy-texnikaviy faoliyat tushuniladi. Bu faoliyat standartlarni va texnikaviy talablarni ishlab chiqishda, nashr etishda va tatbiq qilishda namoyon bo'ladi. Standartlashtirishning muhim natijalari, odatda, mahsulot, jarayon va xizmatlarning belgilangan vazifaga mos kelishi, savdodagi to'siqlarni bartaraf qilish hamda ilmiy-texnikaviy hamkorlikka ko'maklashishda namoyon bo'ladi.

Odatda, standartlashtirish obyekti sifatida standartlashtiriladigan narsa (mahsulot, jarayon, xizmat) tushuniladi.

Shunday qilib, standartlashtirishning so'nggi maqsadi «umumiy optimal tejamkorlikka erishish»dir. Shuning uchun ishlab chiqilayotgan hujjatda nafaqat qoidalar ko'rsatiladi, balki ularning qo'llanishi qat'iy belgilanadi.

Bironta ham standart (yoki standartlar kompleksi) tarkibida qanchalik mukammal talab va ko'rsatkichlarga ega bo'lishiga qaramay, unda belgilangan qoida va me'yorlar bajarilmaguncha, mahsulot standart talablariga mos ravishda ishlab chiqarilmaguncha optimal tejamkorlikka erishilmaydi. Bundan standartlarni joriy qilish bo'yicha ishlar amalda xalq xo'jaligida standartlashtirish ishlarining butun kompleksi samaradorligini belgilashi kelib chiqadi.

Davlat standartlariga, shu jumladan, istiqbolga mo'ljallangan, an'anaviy texnologiyalarning imkoniyatlaridan ildamlashgan dastlabki talablarni o'z ichiga olgan standartlarga muvofiqlik belgisi bilan tamg'alangan mahsulotni ishlab chiqaradigan xo'jalik faoliyati subyektlari iqtisodiy qo'llab-quvvatlanishi va rag'batlantirilishini kafolatlaydi.

Mahsulot ishlab chiqarishni amalga oshirayotgan va mahsulotlarni standartlarga muvofiqlik belgisi bilan tamg'alash huquqini olgan xo'jalik faoliyati subyektlarini iqtisodiy qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish chora-tadbirlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Mahsulot (xizmat)lar sifati tadqiq etish, ishlab chiqish, loyihalash, tajriba-konstruktorlik ishlari bosqichlarida shakllantiriladi va me'yoriy hujjatlarda belgilanadi. O'zbekiston Respublikasining «Standartlashtirish to'g'risida»gi Qonunida ko'rsatilishicha, standartlashtirish bo'yicha me'yoriy hujjatlar mamlakatimiz, xorijiy fan va texnikaning zamonaviy yutuqlariga asoslangan bo'lishi va O'zbekiston Respublikasining qonunlariga mos kelishi lozim. Bu talablarni bajarish uchun me'yoriy hujjatlarning ilmiy-texnikaviy ekspertizasi (MH ITE)ni o'tkazish kerak. Ekspertiza O'zbekiston davlat standarti O'z DSt 1.21:2001 «O'z SDT. Me'yoriy hujjatlarni ilmiy-texnikaviy ekspertiza qilish»da belgilangan.

MH ITE me'yoriy hujjatlarning xalqaro, hududiy, davlatlararo, xorijiy standartlar bilan uyg'unlashtirilganlik darajasini o'rnatish, fan, texnikaning zamonaviy rivojlanganlik darajasiga muvofiqligini, amaldagi qonunlarga va O'z SDT, O'z O'DT, O'z SMT asos bo'luvchi me'yoriy hujjatlarga va boshqa standartlashtirish tarmoqlararo tizimlariga mosligini o'rnatish maqsadida bajariladigan tadqiqotdan iborat.

O'zbekiston standartlashtirish davlat tizimi talablariga muvofiq quyidagilar ekspertizadan o'tkaziladi:

- MH loyihalari;
- tasdiqlangan me'yoriy hujjatlar;
- davlat ro'yxatidan o'tkaziladigan MH;
- amaldagi MH;
- MH o'zgartirishlarning loyihalari;
- davlat ro'yxatidan o'tkaziladigan, MHning tasdiqlangan o'zgartirishlari.

Ekspertizaning quyidagi xillari o'rnatilgan:

- normallashtirish tekshiruvi;
- kelishishning to'liqligi;
- majburiy talablarga muvofiqligi;
- patent sofligiga tekshirish;
- ochiq chop etilmaydigan ma'lumotlar;
- texnik ekspertiza;
- iqtisodiy ekspertiza;
- metrologik ekspertiza;
- ekologik ekspertiza;
- terminologik ekspertiza;
- huquqiy ekspertiza;
- nashriyot tahriri;
- ilmiy-texnikaviy darajani baholash.

«O'zstandart» agentligining topshirig'i, buyurtmachining so'rovnomasi, shuningdek, zarurligiga qarab, standartlashtirish

obyektining xususiyatlariga qarab, ekspertiza alohida turlar bo'yicha o'tkazilishi mumkin.

«O'zstandart» agentligi, standartlashtirish bo'yicha texnik qo'mitalar, standartlashtirish bo'yicha tayanch tashkilotlar va ekspertiza o'tkazishga vakolatlangan boshqa tashkilotlar me'yoriy hujjatlarni ekspertizadan o'tkazadi.

Normallashtirish tekshiruvida quyidagilar tekshiriladi:

- me'yoriy hujjatning to'g'ri tuzilganligi va rasmiylashtirilgani;

- amaldagi me'yoriy va boshqa hujjatlarga to'g'ri va huquqiy havola qilinganligi;

- MHning zarur axborot qidiruv belgilari (nomi, belgisi, mahsulotning umumdavlat tasniflagichining kodi (MUT), standartlar umumdavlat tasniflagichining guruhi (SUT), simvollar, qisqartmalar, amalga kiritish sanasi va (yoki) amal muddati, hujjatning qaysi MH o'rniga ishlab chiqilganligi to'g'risida ma'lumotlar va h.k.);

- tekshiruvchi shaxslar, bajaruvchilar imzolarining mavjudligi;

- hujjatning tashqi ko'rinishi.

Kelishish to'liqligini tekshirishda me'yoriy hujjatning manfaatdor tashkilotlar ro'yxatiga muvofiq to'liq kelishilganligi, shuningdek, ro'yxatga kiritilmagan tashkilotlar bilan qo'shimcha ravishda kelishish zarurligi aniqlanadi. Fikr-mulohazalar to'plami, ilmiy-texnikaviy kengashlarning bayonnomalari, kelishuv majlislarining bayonnomalari, me'yoriy hujjatda fikr-mulohazalarning, takliflarning to'liq aks ettirilganligi tahlil qilinadi, ishlab chiquvchining fikr va takliflar bo'yicha xulosasining asosligi aniqlanadi.

Majburiy talablarga muvofiqlikni tekshirish majburiy talablarning O'zbekiston qonunlariga, mos xalqaro va milliy standartlarga, standartlashtirish tarmoqlararo tizimlarga muvofiq to'liq va to'g'ri bayon etilganligini aniqlashdan iborat.

Standartlashtirish obyektining *patent sofligi* patent formularining to'g'ri to'ldirilganligi (bunday hujjat mavjud bo'lganda) tekshirish yo'li bilan aniqlanadi.

Ochiq chop etilmaydigan ma'lumotlarning borligi mos yo'riqnoma bo'yicha tekshiriladi.

Texnik ekspertizani o'tkazishda:

- me'yoriy hujjat nomining texnik topshiriqqa (mavjud bo'lganda), me'yoriy hujjatning mazmuniga va standartlashtirish rejalari (dasturlariga) mosligi, standartlashtirish obyektining me'yoriy hujjat darajasiga muvofiqligi, me'yoriy hujjatning to'g'ri bayon etilganligi va mazmunining to'g'riligi aniqlanadi;

- me'yoriy hujjat ko'rsatkichlarining davlatlararo standartlar va milliy hujjatlarning talablariga muvofiqligi;

- tekshirilayotgan me'yoriy hujjatning o'xshash mahsulotga amaldagi me'yoriy hujjatlarning takrorlanganlik holi aniqlanadi.

Iqtisodiy ekspertiza tushuntirish yozuvidagi ma'lumotlarni tasdiqlovchi, me'yoriy hujjatni joriy etish texnik-iqtisodiy va ijtimoiy samaradorligi hisobining to'g'riligini tekshirishdan iborat.

Metrologik ekspertiza O'z RH 51 – 106:2001 bo'yicha bajariladi.

Terminologik ekspertiza o'rnatilgan ilmiy-texnikaviy atamalarning me'yoriy hujjatda to'g'ri qo'llanilganligini, davlatlararo va respublika terminologik standartlariga rioya qilinganlikni tekshirish bosqichi bo'ladi.

Huquqiy ekspertiza me'yoriy hujjat mazmunining amaldagi qonunlarning talablariga muvofiqligini tekshirishdan iborat.

Nashriyot tahriri me'yoriy hujjat matnini ilmiy va adabiy tahrir, texnik tahrir qilishdan iborat.

Ilmiy va adabiy tahrir me'yoriy hujjat mazmunini mantiqiy, texnik va adabiy jihatdan to'g'ri, savodli bayon etish, qabul qilingan qisqartmalarga rioya qilish, orfografik, sintaksis, stilistik xatolarni yo'qotish maqsadida bajariladi.

Texnik tahrir me'yoriy hujjatni bosmaxonada yoki boshqa usulda chop etishga tayyorlashdan iborat.

Loyihaning yoki tasdiqlangan me'yoriy hujjatning «Standartlashtirish to'g'risida» Qonun talablariga, xalqaro, davlatlararo, hududiy, xorijiy standartlarning talablariga muvofiqligini aniqlash, shuningdek, uyg'unlashtirilganlik darajasini aniqlash maqsadida me'yoriy hujjatlarning *ilmiy-texnikaviy darajasi* (ITD) baholanadi.

Baholash me'yoriy hujjatlarni ishlab chiquvchilar (standartlashtirish bo'yicha texnik qo'mitalar, standartlashtirish bo'yicha tayanch tashkilotlar, korxonalar, tashkilotlar), «O'zstandart» agentligining idoralari tomonidan O'z RH 51 – 077:1998 «O'z SDT. Mahsulotga me'yoriy hujjatning ilmiy-texnikaviy darajasini baholash metodikasi»ga muvofiq, ishlab chiquvchi tomonidan tuziladigan mahsulot texnik darajasi, sifati kartasini va (yoki) qiyoslash jadvalini qo'llanib, ko'rsatkichlarni qiyosiy baholash asosida bajariladi.

Me'yoriy hujjatlar ekspertizasining natijalari ixtiyoriy shaklda tuzilgan dalolatnoma ko'rinishidagi ekspert xulosa bilan rasmiylashtiriladi. Dalolatnomada o'tkaziladigan barcha turdagi ekspertiza natijalari aks ettiriladi. Xulosada ekspertiza obyektining umumiy tafsiloti quyidagicha yoziladi: «Me'yoriy hujjat (me'yoriy hujjat loyihasi) standartlashtirish davlat tizimi, o'lchashlar birligini ta'minlash davlat tizimi, O'zbekiston Respublikasi sertifikatlashtirish milliy tizimi talablariga va boshqa standartlashtirish tarmoqlararo tizimlariga muvofiq keladi (muvofiq kelmaydi)».

Dalolatnoma ekspert va ekspertizani o'tkazgan bo'limlar rahbarlarining imzosi bilan ishontiriladi va rahbariyat tomonidan tasdiqlanadi.

Kelishmovchiliklar bo'yicha oxirgi qarorni: me'yoriy hujjatni ekspertizaga jo'natgan tashkilot; Davarxitekturaqurilish, Davta-

biatqo'mita, O'zbekiston Respublikasining Sog'liqni saqlash vazirligi (o'z vakolati doirasida); O'zstandart agentligi xulosa shaklida qabul qiladi.

Me'yoriy hujjat ekspertizasining dalolatnomasi so'rovchiga va ishlab chiquvchi – asliyat egasiga jo'natiladi.

Dalolatnomaning bir nusxasi me'yoriy hujjat va barcha ilovalar bilan birga ekspertizani o'tkazgan tashkilotda saqlanadi. Barcha hollarda me'yoriy hujjat ekspertizasi dalolatnomasining bir nusxasi «O'zstandart» agentligiga jo'natiladi.

Ekspert xulosaning xolis (obyektiv)ligiga mas'ullik ekspertizani o'tkazgan mutaxassis-ekspertga yuklatiladi.

O'z RH 51 – 106:2001 metrologik ekspertiza o'tkazishning tuzilishi, umumiy qoidalari va tartibini belgilaydi.

Me'yoriy va texnik hujjatlarning metrologik ekspertizasi mahsulot va xizmatlarni ishlab chiqarish, ishlatish va ta'mirlash sifatini oshirish, qo'llab-quvvatlash va baholashga yo'naltirilgan ishlab chiqarishni boshqarishga doir texnik qarorlarning metrologik darajasini oshirish, nazorat-o'lchash vositalarining samaradorligini ta'minlash maqsadida o'tkaziladi.

Metrologik ekspertiza mahsulot va xizmatlarning hayotiy sikli barcha bosqichlari me'yoriy va texnik hujjatlariga o'tkazilishi lozim; umumtexnik me'yoriy hujjatlar (barcha daraja va turlarda); aniqlik me'yorlari, o'lchash vosita va usullari, metrologik qoidalar va o'lchanayotgan parametrlar nomenklaturasi, fizik parametrlarni ifodalash usullari, fizik konstantalar, modda va materiallar xossalari haqidagi ma'lumotlar, shuningdek, yuqorida ko'rsatilgan barcha hujjatlardagi o'zgartirishlar.

O'zbekiston Respublikasi o'lchashlar birliligini ta'minlash davlat tizimiga asos bo'luvchi me'yoriy hujjatlar metrologik ekspertizadan o'tkazilmaydi.

Metrologik ekspertiza quyidagilarga tatbiq qilinadi: «O'zstandart» agentligi axborot fondida ro'yxat qilinadigan davlatlararo,

davlat, tarmoq standartlari, shuningdek, mahsulot va xizmatlar uchun korxona standartlari loyihalari; mazmunida aniqlik me'yorlari va o'lchash vositasi, usuliyati va usuliga talablar bo'lgan rahbariy hujjat loyihalari; texnik shartlar loyihalari; import qilinadigan mahsulotni sinash usul va dasturlar loyihalari; o'lchash vositasini ishlab chiqish texnik topshiriqlari loyihasi, shuningdek, standart namunalari; o'lchash vositasining turini tasdiqlash bo'yicha sinash usuli va dasturining loyihalari; o'lchash vositalarini qiyoslash usuli loyihalari; qiyoslash sxemalariga me'yoriy hujjatlar loyihalari; standart namunalari attestatsiyasi va o'lchashlarni bajarish uslubiyati natijalari haqidagi texnik (ilmiy) hisobotlar yoki boshqa hujjatlar; konstruktorlik, texnologik, ekspluatatsion (ishlatish, foydalanish), ta'mirlash hujjatlari va boshq.

Me'yoriy va texnik hujjatlarning metrologik ekspertizasi amaldagi me'yoriy hujjatlarning me'yor, qoida va talablari asosida tartibga solinadi.

Metrologik ekspertizaning asosiy masalalari quyidagilar:

- me'yoriy (texnik) hujjatlarning mazmuni, tuzilishi va bayon qilinishining o'rnatilgan talablarga muvofiqligini o'rnatish;

- o'lchanayotgan parametrlar nomenklaturasi va o'lchash aniqligi me'yorining eng maqbulini topish;

- mahsulotni aniq va samarali nazorat talablari me'yoriy parametrlariga muvofiqligini o'rnatish, eng maqbul rejim va texnologik jarayonlarni boshqarish, shuningdek, shunga tegishli me'yoriy hujjatlar talablarini ta'minlash;

- me'yoriy parametrlar nazorati uchun o'lchash vositalari to'g'ri tanlanganligi va o'lchashlarni bajarish usuliyatini baholash;

- qo'llaniladigan o'lchash vositalarini qiyoslash (kalibrovka qilish) usul va vositalari bilan ta'minlanganligini baholash;

– o‘lchashlarni o‘tkazish sharoiti mehnat xavfsizligini ta’minlash va ekologik xavfsizlik talablariga muvofiqligini o‘rnatish;

– me’yoriy (texnik) hujjatlarni eksperiment ma’lumotlari (tanlashning hajmi va statistik birxilligi, eksperiment ma’lumotlarining yoyilish xususiyati va h.k.), matematik statistika me’yori va qoidalari talablariga muvofiqligini aniqlash;

– o‘lchash vositasi texnik xarakteristikasining texnik topshiriq talablariga muvofiqligini o‘rnatish;

– o‘lchash vositasi metrologik xarakteristikalarining GOST 8.009 talablariga muvofiqligini aniqlash;

– ko‘proq standartlashtirilgan o‘lchashlarni bajarish usullarini qo‘llashni o‘rnatish;

– parametrlarni nazorat qilish (konstruksiya yaroqliligini nazorat qilishda) imkoniyatlarini baholash;

– fizik konstantalar, moddalar va materiallar xususiyatlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarning o‘rnatilishi va qo‘llanilishi ishonchiligi va to‘g‘riligini aniqlash.

Metrologik ekspertiza bo‘yicha tashkiliy rahbarlik «O‘z-standart» agentligi, ilmiy-uslubiy rahbarlik esa SMSTI tomonidan amalga oshiriladi.

2.4. Ekspert auditorlar tayyorlash va ularga qo‘yilgan talablar

Sertifikatlashtirish bilan bog‘liq bo‘lgan faoliyatda faol qatnashuvchi shaxs – bu ekspert-auditordir. U, odatda, sifat tizimlarini, ishlab chiqarishni va mahsulotni sertifikatlashtirishda, sinov laboratoriyalarini akkreditlashda va boshqa ishlarda qatnashishi mumkin.

Ekspert-auditor deb, sertifikatlashtirish sohasida muassasa va korxonalar faoliyatini baholash va nazorat qilish huquqiga ega bo‘lgan attestatlangan shaxsga aytiladi.

Ekspert-auditor sifatida «O‘zstandart» tomonidan belgilangan tartibda attestatlangan fan, sanoat, maishiy xizmat, institutlar va boshqa tashkilotlarning vakillari hamda belgilangan hujjatlar bilan ishlashda yetarli chuqur bilimga ega bo‘lgan xususiy shaxs ham bo‘lishi mumkin.

Ekspert-auditor quyidagi vazifalarni bajaradi:

- mahsulot, jarayon, xizmatlarni, sifat tizimlarini va ishlab chiqarishni sertifikatlashtirish;
- sertifikatlashtirilgan mahsulot, jarayon va xizmatlarning tavsiflarini hamda sertifikatlashtirilgan sifat tizimlarini va ishlab chiqarishning turg‘unligini nazorat qilish;
- sertifikatlashtirish bo‘yicha akkreditlash idoralari, sinov laboratoriyalarini (markazlarini) va ularning faoliyatini nazorat qilish;
- sertifikatlashtirishda tavsiyalar berish.

Ekspert-auditor o‘z faoliyatini sertifikatlashtirish milliy idorasi, bir turdagi mahsulotni sertifikatlashtirish idoralari, sifat tizimlarini va ishlab chiqarishni sertifikatlashtirish doirasida amalga oshiradi.

Ekspert-auditor quyidagi talablarga javob berishi lozim:

- to‘liq oliy ma’lumotli va sertifikatlashtirish sohasida yetarli bilimga ega bo‘lib, faoliyati sertifikatlashtirishning ma’lum turi bo‘yicha attestatlangan bo‘lishi kerak;
- oliy o‘quv yurtini tamomlagandan so‘ng kamida 5 yillik amaliy stajga ega bo‘lishi, shundan kamida 3 yil standartlashtirish, metrologiya, sinovlar, sifatni boshqarish va ta’minlash sohalarida ishlagan bo‘lishi kerak.

Ekspert-auditor chuqur bilimli, tadbirkor bo‘lmog‘i lozim. U quyidagi sohalar bo‘yicha bilimlarni mukammal egallagan bo‘lishi shart:

- respublika sertifikatlashtirish milliy tizimining qoida va tartiblari;

- sertifikatlashtirish o'tkazish bo'yicha bilimlar va me'yoriy hujjatlarni tushunish;

- sertifikatlashtirish va akkreditlash bo'yicha asosiy ishlar mazmuni;

- sertifikatlashtirish va akkreditlash bo'yicha iqtisodiy va huquqiy asoslar;

- mamlakat ichidagi va chet ellardagi sertifikatlashtirish va akkreditlash tajribasi;

- standartlashtirish, metrologiya va sifat tizimlarining asoslari;

- tekshiruv o'tkazish va sifatni boshqarishning statistik usullari.

Ekspert-auditor tahlil qilish, mantiqiy asoslash, o'zining fikrini qattiq va asoslangan holda himoya qilish; ijodiy qobiliyatga va murakkab vaziyatda to'g'ri qaror qabul qilish xususiyatlariga ega bo'lishi; haqqoniy, mas'uliyatli, prinsipial ravishda xayrixoh, xushmuomala, odobli va o'zini tuta bilish kabi shaxsiy sifatlariga ega bo'lishi kerak. Ekspert-auditor tekshirilayotgan obyektning xodimlari bilan aloqada bo'lish va kerakli hujjatlar bilan tanishish; ma'lumot uchun har qanday qo'shimcha ma'lumotlar talab qilish (sertifikatlashtirish maqsadlari uchun); tizimda amaldagi me'yoriy-uslubiy hujjatlarni takomillashtirish bo'yicha o'z taklifini berish; sertifikatlashtiriluvchi mahsulot, jarayon, xizmatlar, sifat tizimi va ishlab chiqarish bo'yicha rejalarni tuzatish yuzasidan o'z mulohazalarini kiritish huquqiga egadir.

Korxonalarda sertifikatlashtirish sohasidagi ishlarni inobatga olib, sertifikatlashtirish milliy idorasi «O'zstandart» tomonidan ekspert-auditorlar tayyorlash maxsus kurslari tashkil etilib, bu sohadagi o'qishning tashkiliy tomonlari O'zSMSITining asosiy faoliyatlaridan biri deb qaralmoqda. Ekspert-auditorlarni tayyorlash, odatda, ikki bosqichda olib boriladi: nazariy bilim-

larni olish va attestatlash natijasida ularga tegishli rasmiy hujjatlar topshirish.

Maxsus kurs tinglovchilarining nazariy bilimlarini «Oʻzstandart» agentligi tomonidan tuzilgan maxsus komissiya baholaydi. Baholanish natijalari yetarli darajada boʻlsa, ularga sertifikatlashtirish milliy tizimining ekspert-auditori degan guvohnomasi beriladi (agar attestatlashdan oʻtmasa rad etiladi).

Ekspert-auditorlar ularga yuklatilgan vazifalari boʻyicha muayyan burch va masʼuliyatlarga egadirlar.

Mahsulotni sertifikatlashtirish va ishlab chiqarishni sertifikatlashtirish boʻyicha ekspert-auditorlarga qoʻyilgan talablar

Mahsulotni sertifikatlashtirish boʻyicha ekspert-auditorlar quyidagi masalalar boʻyicha bilimga ega boʻlishi kerak:

- mahsulotni sertifikatlashtirishning asosiy qonun-qoidalari, tartiblari;

- sertifikatlashtiruvchi mahsulotning xossalari, uning konstruksiyalari, ishlab chiqarish texnologiyasi, birikma va materiallar;

- sertifikatlashtiriluvchi mahsulotning texnikaviy tavsiflari, oʻlchanuvchi koʻrsatkichlar, ularni aniqlash usullari (oʻlchash va nazorat), dastavval qoʻllanilgan standartlardagi belgilangan va texnikaviy shartlar;

- aniq sinovlar va ularning xillari;

- ishlanma, attestatlash, sinov va oʻlchash uslublarining qoʻllanishi;

- sinov va oʻlchash natijalarini qayta ishlash, sinovlar natijalarni tahlil qilish, ularning aniqliligi va haqqoniyligini baholash usullari;

- mustahkamlik, sifat darajasi, pishqlik, ishlatishdagi tavsiflarni tahlil qilish, talablarni rad qilish va buzilganligini aniqlash;

- sifatning statistik nazorati, uni baholash usullari;
- sinov va o'lchash uskunalari, ularni attestatlash, metrologik ta'minlanishi;
- ishlab chiqarish texnologiyasi, texnologik imkoniyatlar va jihozlanishda ishlash xususiyatlari va vositalari;
- mahsulotni o'rash va joylashtirish, belgilash, saqlash, yetkazib berish va texnikaviy xizmatga bo'lgan talablar.

Sifat tizimlarini va ishlab chiqarishni sertifikatlashtirish bo'yicha ekspert-auditorga tavsiya etiladigan talablar

Sifat tizimlarini va ishlab chiqarishni sertifikatlashtirish bo'yicha ekspert-auditorlar quyidagi masalalar bo'yicha bilimlarga ega bo'lishlari kerak:

- sifat tizimlari, shu jumladan, Sifat tizimlariga oid standartlar;
- mahsulot sifatini va mustahkamlikni baholash usullari, hisoblash, tajriba-statistika, natijalarni qayd etish va ekspertlash;
- tayyor mahsulot sifatining nazorati, asosiy usullarning turlarini va texnikaviy vositalarini hamda statistik nazorat usullari;
- marketing bo'yicha ishlarni tashkil qilish;
- loyihalash bo'yicha ishlarni tashkil qilish va ularga talablar;
- material-texnika ta'minoti bo'yicha ishlarni tashkil qilish;
- xomashyoning, materiallarning va komplekt etuvchi buyumlarning kiritishdagi nazoratini tashkil qilish;
- ishlab chiqarish texnologiyasi, ishlash xususiyatlari va texnologik jihozlanish vositalari;
- texnologik uskunaning texnikaviy xizmati va ta'mirlash;
- ishlab chiqarishning metrologik ta'minoti bo'yicha ishlarni tashkil qilish;
- tekshirish va sinovlar o'tkazish bo'yicha ishlarni tashkil qilish;

- yuklash, ortish-tushirish, transport va ombor bilan bog‘liq bo‘lgan ishlarni o‘tkazish va ularga bo‘lgan talablar;
- mahsulotni o‘rash va joylashtirish, belgilash, saqlash, yetkazib berish va texnikaviy xizmatiga bo‘lgan talablar;
- sifat tizimlarini iqtisodiy tomondan baholash;
- sifat tizimlarida samarali qatnashuvchi texnikaviy xodimlar ishtirokini tashkil qilish va tayyorlash.

Sinov laboratoriyalarini akkreditlash bo‘yicha ekspert-auditor uchun tavsiya etiladigan talablar

Sinov laboratoriyalarini akkreditlash bo‘yicha ekspert-auditor quyidagi masalalar bo‘yicha bilimlarni puxta egallagan bo‘lishi kerak:

- sinoluvchi mahsulotning xossalari, ularning konstruktsiyalari, texnologiyasi, ishlab chiqarilishi, birikma va materiallar tarkibi;
- aniq sinovlar va ularning xillari;
- ishlanma, attestatlash, sinov va o‘lchash uslublarini qo‘llash;
- sinov va o‘lchash uskunalari, uning ishlatish va texnikaviy xizmati, attestatlash, o‘lchash usullari;
- sinovlarning metrologik ta‘minlanishi, qo‘llaniladigan o‘lchash vositalarni qiyoslash (kalibrlash);
- sinov va o‘lchash natijalarini qayta ishlash, ularning aniqlik va ishonchliligini baholash usullari hamda olingan natijalarni tahlil qilish;
- mustahkamlikka, sifat darajasiga bo‘ladigan talablarni aniqlash usullari, sifatning statistik nazorati, sifatni, mustahkamlikni baholash usullari, ishlatilishidagi tavsiflari, rad etish va shikastlanganligining tahlili;
- sinov laboratoriyasining malakali xodimlariga nisbatan talablar;

- sinov natijalarini rasmiylashtirish qoidalari;
- sinov laboratoriyasining xonalariga va undagi sharoitlarga talablar;
- chet ellardagi o'xshash sinovlarning darajasi.

Ekspert-auditorlar tayyorlash

Hozirgi bozor iqtisodiyoti davrida sifatli mahsulotlar yetkazib berish, ularning tashqi bozordagi xaridorbopligini oshirishda ekspert-auditorlarni tayyorlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Sertifikatlashtirish faoliyatiga qadam qo'yayotgan korxonalar jamoalari ichida sertifikatlashtirish faoliyatida ishlay oladigan, o'z kasbini sevadigan xodimlar talaygina topiladi. Lekin bu sohada ularni o'qitish ma'lum bir o'ziga xos xususiyatlarga ega. Yuqorida aytilgan talablarga javob beradigan xodimlarni tanlab olish, ularni sertifikatlashtirish va laboratoriyani akkreditlash ishlariga tayyorlash katta mas'uliyat talab qiladi.

Korxonalarda sertifikatlashtirish sohasidagi ishlarni inobatga olib, sertifikatlashtirish milliy idorasi «O'zdavstandart» tomonidan ekspert-auditorlar tayyorlash maxsus kurslari tashkil etilib, bu sohadagi o'qishning tashkiliy tomonlari O'zTMTIning asosiy faoliyatlaridan biri deb qaralmoqda. Ekspert-auditorlarni tayyorlash, odatda, ikki bosqichda olib boriladi: nazariy bilimlarni olish va attestatlash natijasida ularga tegishli rasmiy hujjatlar topshirish.

Nazariy bilimlarni olishda malakali o'qituvchilar xalqaro sertifikatlashtirish sohasidagi ma'lumotlar bilan, sertifikatlashtirishga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazish bilan bog'liq bo'lgan ma'lumotlar bilan sertifikatlashtirishda qatnashuvchi tomonlar va ularning vazifalari hamda burchlari bilan, laboratoriyalarni akkreditlashga bog'liq bilimlar bilan, sertifikatlashtirish faoliyatida metrologik ta'minot ma'lumotlari bilan, sertifikatlashtirishning huquqiy me'yorlari va ularga rioya qilishlikdagi

ma'lumotlar bilan, mahsulot sifatini yaxshilash va unga ta'sir ko'rsatuvchi omillar bilan keng va har taraflama tanishtiradi.

Talabalarning nazariy bilimlarini «O'zdavstandart» tomonidan tuzilgan maxsus komissiya baholaydi. Baholanish natijalari yetarli darajada bo'lsa, ularga sertifikatlashtirish milliy tizimining ekspert-auditori degan guvohnomasi beriladi (agar attestatlashdan o'tmasa rad etiladi).

Ekspert-auditorlar ularga yuklatilgan vazifalari bo'yicha muayyan burch va mas'uliyatlarga egadirlar.

Ekspert-auditorlar tekshiruv rejasi belgilangan doirada faoliyat yuritmoqlik; xolislik va tekshiruv natijalarini haqqoniy baholash; tekshirishga kerakli hujjatlarning ketma-ketligini va saqlanishini ta'minlash hamda boshqa shu kabi burchlarga egadirlar.

Ekspert-auditorlar o'z burchlarini vijdonan bajarmasligi, xizmat vazifalarni suiiste'mol qilish, shaxsiy manfaati yo'lida foydalanish, so'rovchini kamsitish yoki uning tijorat sirlarini ochib tashlash kabi xatti-harakatlari uchun qonun oldida javobgardirlar.

Ekspert-auditor faoliyati bilan bog'liq bo'lgan rasmiy hujjatlar ilovalarda keltirilgan.



NAZORAT SAVOLLARI

1. O'zbekistonda dastlabki standartlashtirish idorasi qachon faoliyat yurita boshlagan?
2. Nazorat organi nima?
3. Ekspert-auditorlar deganda kimlar tushuniladi?
4. Sinov laboratoriyasi kim tomonidan akkreditlanadi?

III bob. METROLOGIYA ASOSLARI

3.1. Davlat metrologiya xizmati haqida asosiy tushunchalar va uning vazifalari

O'lchash axborotiga nafaqat miqdor bo'yicha, balki sifat bo'yicha ham talablar qo'yiladi. Bunga uning (o'lchashning) aniqligi, ishonchliligi, tannarxi va samaradorligi kabi tavsiflar kiradi.

Bu sifat tavsiflarining barchasining asosida metrologik ta'minot yotadi. Metrologik ta'minotni shunday ta'riflash mumkin: o'lchashlar birliligini ta'minlash va talab etilgan aniqlikka erishish uchun zarur bo'lgan texnikaviy vositalar, tartib va qoidalarining, me'yorlarning, ilmiy va tashkiliy asoslarning belgilanishi va tatbiq etilishi.

Ushbu tavsifdan kelib chiqib aytish mumkinki, metrologik ta'minotning vazifasiga quyidagilar yuklatilgan:

- o'lchash vositalarining ishga yaroqliligini tashkil etish, ta'minlash va tatbiq etish;
- o'lchashlarni amalga oshirish, uning natijalarini qayta ishlash va tavsiya etish borasidagi me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqish va tatbiq etish;
- hujjatlarni ekspertizadan o'tkazish;
- o'lchash vositalarining davlat sinovlari;
- o'lchash vositalari va uslublarining metrologik attestatsiyasi va hokazolar.

Metrologik ta'minotning to'rtta tashkil etuvchisi mavjuddir:

1. Ilmiy asosi: metrologiya – o'lchashlar haqidagi fandir;

2. Texnikaviy asoslari – kattaliklar birligining davlat etalonlari, kattaliklar birligini etalonlardan ishchi vositalarga uzatish, o'lchash vositalarini yaratish va ishlab chiqishni yo'lga qo'yish, o'lchash vositalarining majburiy davlat sinovlari va ularni bajarish uslublarining metrologik attestatsiyasi, o'lchash vositalarini ishlab chiqishda, ta'mirlashda va ishlatishda majburiy davlat qiyoslashidan o'tkazish, modda va materiallarning tarkibi va xossalari bo'yicha standart namunalarni yaratish, standart ma'lumotnomalar, mahsulotning majburiy davlat sinovlari;

3. Tashkiliy asosi – davlat va mahkamalardagi metrologik xizmatdan tashkil topgan O'zbekiston Respublikasi metrologiya xizmati;

4. Me'yoriy-qonuniy asoslari – tegishli respublika qonunlari, davlat standartlari, davlat va tarmoqlarning me'yoriy hujjatlari.

Metrologik ta'minotning o'z oldiga qo'ygan asosiy maqsadlari:

- mahsulot sifatini, ishlab chiqarish va uni avtomatlashtirishning samaradorligini oshirish;

- detallar va agregatlarning o'zaro almashuvchanligini ta'minlash;

- moddiy boyliklarning va energetik resurslarning hisobini olib borish ishonchliligini ta'minlash;

- atrof-muhitni himoya qilish;

- salomatlikni saqlash va hokazolar.

Metrologik ta'minot darajasi mahsulotning sifatiga bevosita ta'sir qiladi. Bu ta'sir samaradorligini yanada oshirish maqsadida metrologik profilaktika ishlariga va ishlab chiqarishni tayyorlashdagi metrologik ta'minot masalalariga alohida ahamiyat beriladi. Bu esa o'z vaqtida respublikamizda bozor munosabatlarining yanada chuqurroq shakllanishiga va ishlab chiqarilgan mahsulotlarning eksport imkoniyatining oshirilishiga munosib zamin yaratadi.

3.2. Metrologiya sohasida qo'llaniladigan asosiy atamalar

Metrologiyada ishlatiladigan ayrim tushunchalar quyidagilardan iborat:

Metrologiya – o'lchashlar, ularning birliligini ta'minlash usullari va vositalari hamda kerakli aniqlikka erishish yo'llari haqidagi fan.

Nazariy metrologiya – metrologiyaning fundamental asoslarini ishlab chiqish predmeti bo'lgan sohasidagi metrologiya bo'limi.

Qonunlashtiruvchi metrologiya – metrologiya bo'yicha milliy idora faoliyatiga qarashli va birliklar, o'lchash usullari, o'lchash vositalari va o'lchash laboratoriyalariga davlat talablarini o'z ichiga olgan metrologiya qismi.

Amaliy metrologiya – nazariy metrologiya ishlanmalarini va qonunlashtiruvchi metrologiya qoidalarini amaliy qo'llash masalalari bilan shug'ullanuvchi metrologiya bo'limi.

Kattalik – sifat jihatidan ajratilishi va miqdor jihatidan aniqlanishi mumkin bo'lgan hodisalar, moddiy tizim, moddaning xossasi.

O'lchanadigan kattalik – o'lchash vazifasining asosiy maqsadiga muvofiq o'lchanishi lozim bo'lgan, o'lchanadigan yoki o'lchangan kattalik.

Kattalik o'lchami – muayyan miqdoriy obyekt, tizim, hodisa yoki jarayonga tegishli bo'lgan kattalikning miqdoriy aniqlanganligi.

Kattalikning qiymati – kattalik uchun qabul qilingan birliklarning ma'lum bir soni bilan kattalikning o'lchamini ifodalash.

Kattalikning sonli qiymati – kattalikning qiymatiga kiruvchi nomsiz son.

Parametr – berilgan kattalikni o'lchashda yordamchi sifatida qoraladigan kattalik.

O'lchash vositasi – metrologik tavsiflari me'yorlangan (MTM), o'lchami (belgilangan xatolik chegarasi) ma'lum vaqt oralig'ida o'zgaras deb qabul qilinadigan, kattalikning o'lchov birligini qayta tiklaydigan va (yoki) saqlaydigan, o'lchashlar uchun mo'ljallangan texnik vosita.

Kattalik o'lchovi – o'lchov qiymatlari belgilangan birliklarda ifodalangan va zarur aniqlikda ma'lum bo'lgan bir yoki bir nechta berilgan o'lchamlarning kattaligini qayta tiklash va (yoki) saqlash uchun mo'ljallangan o'lchash vositasi.

Etalon (o'lchashlar shkalasi yoki birligi etaloni) – kattalikning o'lchamini qiyoslash sxemasi bo'yicha quyi vositalarga uzatish maqsadida shkalani yoki kattalik birligini qayta tiklash va (yoki) saqlash uchun mo'ljallangan va belgilangan tartibda etalon sifatida tasdiqlangan o'lchashlar vositasi yoki o'lchash vositalarining majmuyi.

Birlamchi etalon – birlikni mamlakatda (shu birlikning boshqa etalonlariga nisbatan) eng yuqori aniqlik bilan qayta tiklanishini ta'minlaydigan etalon.

Maxsus etalon – birlikning alohida sharoitlarda qayta tiklanishini ta'minlaydigan va bu sharoitlar uchun birlamchi etalon bo'lib xizmat qiladigan etalon.

Davlat etaloni – davlat hududida ushbu kattalikning boshqa barcha etalonlari bilan qayta tiklanadigan, birliklarning o'lchamlarini aniqlash uchun asos sifatida xizmat qilishi vakolatli davlat idorasining qarori bilan tan olingan etalon.

Ikkilamchi etalon – birlikning o'lchamini mazkur birlikning birlamchi etalonidan oladigan etalon.

Nusxa-etalon – birlikning o'lchamini ishchi etalonlarga uzatish uchun mo'ljallangan ikkilamchi etalon.

Ishchi etalon – birlikning o'lchamini ishchi o'lchash vositalariga uzatish uchun mo'ljallangan etalon.

Xalqaro etalon – milliy etalonlar bilan qayta tiklanadigan va saqlanadigan birliklar o'lchamlarini muvofiqlashtirish uchun

xalqaro kelishuv bo'yicha xalqaro asos sifatida qabul qilingan etalon.

Milliy etalon – mamlakat uchun boshlang'ich etalon sifatida xizmat qilishi rasmiy qaror bilan tan olingan etalon.

O'lchashlar birliligi – o'lchash natijalari rasmiylashtirilgan kattaliklar birliklarida ifodalangan va o'lchashlar xatoligi berilgan ehtimollik bilan belgilangan chegaralarda joylashgan o'lchashlar holati.

O'lchashlar birliligini ta'minlash – qonunlar, shuningdek, o'lchashlarning birliligini ta'minlashga qaratilgan davlat standartlari va boshqa me'yoriy hujjatlarga muvofiq o'lchashlar birliligiga erishish va saqlashga qaratilgan metrologik xizmatlar faoliyati.

Metrologik xizmat – o'lchashlar birliligini ta'minlash ishlarini bajarish va metrologik tekshiruv va nazoratni amalga oshirish uchun qonunga muvofiq tashkil etiladigan xizmat.

Davlat metrologik xizmati – mamlakatda o'lchashlar birliligini ta'minlash bo'yicha ishlarni mintaqalararo va sohalararo darajada bajaruvchi va davlat metrologik tekshiruv va nazoratini amalga oshiruvchi metrologik xizmat.

Davlat boshqaruv idorasining metrologik xizmati – mazkur vazirlik (mahkama) doirasida o'lchashlar birliligini ta'minlash ishlarini bajaruvchi va metrologik nazorat hamda tekshiruvini amalga oshiruvchi metrologik xizmat.

Yuridik shaxs metrologik xizmati – mazkur muassasa (tashkilot)da o'lchashlar birliligini ta'minlash ishlarini bajaruvchi va metrologik tekshiruv hamda nazoratini amalga oshiruvchi metrologik xizmat.

Metrologiya bo'yicha milliy idora – davlatda o'lchashlar birliligini ta'minlash ishlariga rahbarlikni bajarishga vakolatli davlat boshqaruv idorasi.

Metrologik tekshiruv – o'lchash jarayoni elementlarining me'yoriy hujjatlar talablariga muvofiqligini aniqlash va tasdiqlashni o'z ichiga olgan vakolatli idoralar va shaxslar faoliyati.

Metrologik nazorat – oʻlchash jarayoni elementlarining holati, ishlatilishi va oʻrnatilgan tartibda metrologik qoidalar amalga oshirilganligini baholash uchun vakolatli idoralar va shaxslar faoliyati.

Oʻlchash vositalarini tekshiruvdan oʻtkazish – oʻlchash vositalarining belgilab qoʻyilgan texnikaviy talablarga muvofiq-ligini aniqlash va tasdiqlash maqsadida davlat metrologiya xizmati idoralari (vakolat berilgan boshqa idoralar, tashkilotlar) tomonidan bajariladigan amallar majmuyi.

Oʻlchash vositalarini kalibrlash – metrologik jihatlarning haqiqiy qiymatlarini va oʻlchash birliklarining qoʻllashga yaroqliligini aniqlash hamda tasdiqlash maqsadida kalibrlash laboratoriyasi bajaradigan amallar majmuyi.

Oʻlchash vositalarini ishlab chiqish, yaratish (taʼmirlash, sotish, ijaraga berish) **uchun litsenziya** – davlat metrologiya xizmati tomonidan yuridik va jismoniy shaxslarga beriladigan, mazkur faoliyat turlari bilan shugʻullanish huquqini guvohlan-tiruvchi hujjat.

3.3. Oʻlchamlar birligini taʼminlashning huquqiy asoslari

1960-yili oʻlchov va ogʻirliklarning XI Bosh konferensiyasi Xalqaro birliklar tizimini qabul qilgan boʻlib, mamlakatimizda buni SI (SI – Systeme International) xalqaro tizimi deb yuritiladi. Keyingi Bosh konferensiyalarda SI tizimiga bir qator oʻzgartirishlar kiritilgan boʻlib, hozirgi holati va birliklarga qoʻshimchalar va koʻpaytirgichlar haqidagi maʼlumotlar 1- va 2-jadvallarda keltirilgan.

Birlik va oʻlchamlarni belgilash va yozish qoidalari

Kattaliklarning birliklarini belgilash va yozish borasida standartlar asosida meʼyorlangan tartib va qoidalar mavjud. Bu qoidalar va tartiblar GOST 8.417-81 da atroflicha yoritilgan.

Kattalik		Birlik		
Nomi	Oʻl-chamligi	Nomi	Bel-gisi	Taʼrifi
Uzunlik	L	metr	m	Metr – bu yorugʻlik 1/299792458 s vaqt oraligʻida vakuumda bosib oʻtiladigan masofa.
Massa	M	kilogramm	kg	Kilogramm – bu massa birligi boʻlib, xalqaro kilogramm-prototipining massasiga teng.
Vaqt	T	sekund	s	Sekund – bu seziy-133 atomi asosiy holatining ikki oʻta nozik sathlari orasidagi bir-biriga oʻtishiga muvofiq keladigan nurlanishning 9 192 631 770 davridir.
Elektr toki (elektr tokining kuchi)	I	amper	A	Amper – bu vakuumda bir-biridan 1 m oraligʻda joylashgan, cheksiz uzun, oʻta kichik dumaloq koʻndalang kesimli ikki parallel toʻgʻri chiziqli oʻtkazgichlardan tok oʻtganda oʻtkazgichning har 1 m uzunligida $2 \cdot 10^{-7}$ H ga teng oʻzaro taʼsir kuchini hosil qila oladigan oʻzgarmas tok kuchi.
Termodynamik harorat	θ	kelvin	K	Kelvin – bu termodinamik harorat birligi boʻlib, u suvning uchlanma nuqtasi termodinamik haroratining 1/273,16 qismiga teng.
Modda miqdori	N	mol	mol	Mol – bu massasi 0,012 kg boʻlgan uglerod-12 da qancha atom boʻlsa, oʻz tarkibiga shuncha elementlarni olgan tizimning modda miqdoridir. Molni tatbiq etishda elementlari guruhlangan boʻlishi lozim va ular atom, molekula, ion, elektron va boshqa zarrachalar guruhlaridan iborat boʻlishi mumkin.
Yorugʻlik kuchi	J	kandela	cd	Kandela – bu berilgan yoʻnalishda 540–10 Hz chastotali monoxromatik nurlanishni tarqatuvchi va shu yoʻnalishda energetik yorugʻlik kuchi 1/683 W/sr ni tashkil etuvchi manbaning yorugʻlik kuchidir.

Izohlar:

1. Kelvin temperaturasi (belgisi T) tashqari $t = T - T_0$ ifoda bilan aniqlanuvchi Selsiy temperaturasi (belgisi t) qo'llaniladi, bu yerda ta'ri fi bo'yicha $T = 60273,15$ K. Kelvin temperaturasi Kelvinlar bilan, Selsiy temperaturasi – Selsiy graduslari bilan ifodalanadi (xalqaro va o'zbekcha belgisi $^{\circ}\text{C}$). O'lchovi bo'yicha Selsiy gradusi Kelvinga teng. Selsiy gradusi bu «Kelvin» nomi o'rniga ishlatiladigan maxsus nom.

2. Kelvin temperaturalarining ayirmasi yoki oralig'i kelvinlar bilan ifodalanadi. Selsiy temperaturalarining ayirmasi yoki oralig'i Kelvinlar bilan ham, Selsiy graduslari bilan ham ifodalashga ruxsat etiladi.

3. Xalqaro amaliy temperatura belgisini 1990-yilgi xalqaro temperatura shkalasida ifodalash uchun, agar uni termodinamik temperaturadan farqlash lozim bo'lsa, unda termodinamik temperatura belgisiga «90» indeksi qo'shib yoziladi (masalan, T_{90} yoki t_{90}).

Xalqaro birliklar tizimi (SI)ning hosilaviy birliklari

SIning hosilaviy birliklari SIning kogerent hosilaviy birliklarini hosil qilish qoidalariga muvofiq keltirib chiqariladi. SIning asosiy birliklaridan foydalanib keltirib chiqarilgan SIning hosilaviy birliklarining namunalari 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval

Nomlari va belgilari asosiy birliklar nomlaridan va belgilaridan tashkil topgan SIning hosilaviy birliklar namunalari

Kattalik		Birlik	
Nomi	O'lchamligi	Nomi	Belgisi
Maydon	L^2	metrning kvadrati	m^2
Hajm, sig'iruvchanlik	L^3	metrning kubi	m^3
Tezlik	LT^{-1}	sekundiga metr	m/s
Tezlanish	LT^{-2}	metr taqsim sekundning kvadrati	m/s^2

Kattalik		Birlik	
Nomi	O'lchamligi	Nomi	Belgisi
Zichlik	$L^{-3} M$	kilogramm taqsim metrning kubi	kg/m^3
To'lqin son	L^{-1}	metrning darajasi minus bir	m^{-1}
Solishtirma hajm	$L^3 M^{-1}$	metrning kubi taqsim kilogramm	m^3/kg
Elektr tokining zichligi	$L^{-2} I$	amper taqsim metrning kvadrati	A/m^2
Magnit maydonning kuchlanganligi	$L^{-1} I$	amper taqsim metr	A/m
Komponentning molar konsentratsiyasi	$L^{-3} N$	mol taqsim metrning kubi	mol/m^3
Ravshanlik	$L^{-2} J$	kandela taqsim metrning kvadrati	cd/m^2

SI ning maxsus nomiga va belgilanishiga ega bo'lgan hosilaviy birliklari 3-jadvalda ko'rsatilgan.

SI ning elektr va magnit kattaliklarining birliklarini elektromagnit maydoni tenglamalarini ratsionallashtirilgan shakliga muvofiq hosil qilish lozim. Bu tenglamalarga vakuumning magnit doimiyligi μ_0 kiradi. Uni aniq qiymati $4\pi \cdot 10^{-7} \text{ H/m}$ yoki 12,566 370 614... $\cdot 10^{-7} \text{ H/m}$ (aniq).

O'lchovlar va tarozilar XVII Bosh konferensiyasining – O'TBK (1983-y.) qarorlariga muvofiq uzunlik birligi – metrni yangi ta'rif bo'yicha, tekis elektromagnit to'lqinlarining vakuumda tarqalish tezligini qiymati $s_0 = 299792458 \text{ m/s}$ (aniq) ga teng deb qabul qilingan.

Bu tenglamaga, shuningdek, qiymati $8,854187817 \cdot 10^{-12} \text{ F/m}$ ga teng deb qabul qilingan vakuumning elektrik doimiyligi ϵ_0 kiradi.

Elektr birliklari o'lchamlarining aniqligini Jozefson effekti va Xoll kvant effekti asosida oshirish maqsadida O'lchovlar va tarozilar xalqaro komiteti (O'TXK) tomonidan 1990-yil 1-yanvaridan boshlab Jozefson konstantasining shartli qiymati $K_{j-90}=4,83579 \cdot 10^{14}$ Hz/V (aniq) [O'TXK 1 – tavsiyasi, 1988-y.] va Klitsing konstantasining shartli qiymati $R_{k-90}=25812,807 \Omega$ (aniq) [O'TXK, 2-tavsiyasi, 1988-y.] deb kiritildi.

Izoh. O'TXKning 1- va 2-tavsiyalari elektr yurituvchi kuch birligi volt va elektr qarshilik birligi – Om ta'riflari Xalqaro birliklar tizimida qayta ko'rib chiqilgan degan ma'noni bildirmaydi.

3-jadval

SI ning maxsus nom va belgilanishga ega bo'lgan hosilaviy birliklari

Kattalik		Birlik		
Nomi	O'lchamligi	Nomi	Belgisi	SI ning asosiy va hosilaviy birliklari orqali ifodalanishi
Yassi burchak	l	radian	rad	$m \cdot m^{-1}=1$
Fazoviy burchak	l	steradian	sr	$m^2 \cdot m^{-2}=1$
Chastota	T^{-1}	gers	Hz	s^{-1}
Kuch	LMT^{-2}	nyuton	N	$m \cdot kg \cdot s^{-2}$
Bosim	$L^{-1}MT^{-2}$	paskal	Pa	$m^{-1} \cdot kg \cdot s^{-2}$
Energiya, ish, is-siqlik miqdori	L^2MT^{-2}	joul	J	$m^2 \cdot kg \cdot s^{-2}$
Quvvat	L^2MT^{-3}	vatt	W	$m^2 \cdot kg \cdot s^{-3}$
Elektr zaryadi, elektr miqdori	TI	kulon	S	$s \cdot A$
Elektr kuchlanish, elektr potensial, elektr potensiallar ayirmasi, elektr yurituvchi kuch	$L^2MT^{-3}I^{-1}$	volt	V	$m^2 \cdot kg \cdot s^{-3} \cdot A^{-1}$
Elektr sig'im	$L^{-2}M^{-1}T^4I^2$	farad	F	$m^{-2} \cdot kg^{-1} \cdot s^4 \cdot A^2$
Elektr qarshilik	$L^2M^{-1}T^3I^2$	om	Ω	$m^2 \cdot kg \cdot s^{-3} \cdot A^2$

Kattalik		Birlik		
Nomi	O'lchamligi	Nomi	Belgisi	SI ning asosiy va hosilaviy birliklari orqali ifodalanishi
Elektr o'tkazuvchanlik	$L^{-2}M^1T^{-3}I^{-2}$	simens	S	$m^{-2} \cdot kg^{-1} \cdot s^3 A^{-2}$
Magnit induksiya-sining oqimi, magnit oqimi	$L^2MT^{-2}I^{-1}$	veber	Wb	$m^2 \cdot kg \cdot s^{-2} \cdot A^{-1}$
Magnit oqimining zichligi, magnit induksiyasi	$MT^{-2}I^{-1}$	tesla	T	$kg \cdot s^{-2} \cdot A^{-1}$
Induktivlik, o'zaro induktivlik	$L^2MT^{-2}I^{-2}$	genri	H	$m^2 \cdot kg \cdot s^{-2} \cdot A^{-2}$
Selsiy temperaturasi	θ	Selsiy gradusi	°C	K
Yorug'lik oqimi	J	lumen	lm	cd · sr
Yoritilganlik	$L^{-2}J$	lyuks	Ix	$m^{-2} \cdot cd \cdot sr$
Radioaktiv manbadagi nuklid-larning aktivligi (radionuklidning aktivligi)	T^{-1}	bekkerel	Bq	s^{-1}
Ionlovchi nurlanishning yutilgan dozasi, kerma	L^2T^{-2}	grey	Gy	m^2s^{-2}
Ionlovchi nurlanishning ekvivalent dozasi, ionlovchi nurlanishning effektiv dozasi	L^2T^{-2}	zivert	Sv	m^2s^{-2}
Katalizator aktivligi	NT^{-1}	katal	kat	$mol - s^{-1}$

Izohlar:

1. 3-jadvalga yassi burchak birligi – radian va fazoviy burchak birligi – steradian kiritilgan.

2. Xalqaro birliklar tizimini 1960-yili O'lchovlar va tarozilar XI Bosh konferensiyasida qabul qilishda uchta birliklar sinfi kirar edi: asosiy, hosilaviy va qo'shimcha (radian va steradian). O'TBK radian va steradian birligini «qo'shimcha» deb tasniflab, uning asosiy yoki hosilaviy ekanligi to'g'risidagi masalani ochiq qoldirdi. Bu birliklarning ikkilanma tushunilishini bartaraf qilish maqsadida O'lchovlar va tarozilar xalqaro komiteti 1980-yil (1-tavsiya) qo'shimcha SI birliklari sinfini o'lchamsiz hosilaviy birliklar sinfi deb tushunishni qaror qildi, O'TBK hosilaviy SI birliklari uchun ifodalarda ularni qo'llash yoki qo'llamaslikni ochiq qoldirdi. 1995-yil XX O'TBK (8-qaror) SI dan qo'shimcha birliklar sinfini olib tashlashga, boshqa hosilaviy SI birliklari uchun ifodalarda qo'llanish yoki qo'llanilmasligi mumkin bo'lgan (zaruriyatga ko'ra) radian va steradianni SI ning o'lchamsiz hosilaviy birliklari deb atashga qaror qildi.

Xalqaro birliklar tizimi birliklarini o'nli karrali va ulushli birliklarining nomlari va belgilarini hosil qilish qoidalari

SI ning o'nli karrali va ulushli birliklarining nomlari va belgilanishi 4-jadvalda keltirilgan ko'paytuvchi va old qo'shimchalar yordamida hosil qilinadi.

Birlikning nomiga yoki belgisiga ikki yoki undan ko'proq old qo'shimchalarni ketma-ket qo'shishga yo'l qo'yilmaydi. Masalan, birlik nomi mikromikrofarad o'rniga pikofarad yozilishi kerak.

**SI ning oʻnli karrali, ulushli birliklarning nomlari
va belgilanishini hosil qilish uchun foydalaniladigan
koʻpaytuvchi va old qoʻshimchalar**

Oʻnli koʻpaytuvchi	Old qoʻshimcha	Old qoʻshimcha belgisi	Oʻnli koʻpay- tuvchi	Old qoʻshimcha	Old qoʻshimcha belgisi
10^{24}	iota	Y	10^{-1}	desi	d
10^{21}	zetta	Z	10^{-2}	santi	s
10^{18}	eksa	E	10^{-3}	milli	m
10^{15}	peta	R	10^{-6}	mikro	μ
10^{12}	tera	T	10^{-9}	nano	n
10^9	giga	G	10^{-12}	piko	p
10^6	mega	M	10^{-15}	femto	f
10^3	kilo	k	10^{-18}	atto	a
10^2	gekto	h	10^{-21}	zepto	z
10^1	deka	da	10^{-24}	iokto	y



NAZORAT SAVOLLARI

1. Metrologiya soʻzining lugʻaviy maʼnosi nima?
2. Oʻlchamlar birligini taʼminlash deganda nimani tushunasiz?
3. Xalqaro birliklar tizimi qachon qabul qilingan?
4. Asosiy birliklar deganda nimani tushunasiz?
5. Hosilaviy birliklar deganda nimani tushunasiz?
6. Metrologiyaning asosiy tashkil etuvchilari nimalar?

IV bob. SERTIFIKATLASHTIRISHNING NAZARIY VA HUQUQIY ASOSLARI

4.1. Sertifikatlashtirishning asosiy tushunchalari

Sertifikatlashtirish mahsulot sifati va xavfsizligini ta'minlash shakllaridan bir sifatida butun dunyoda tan olingan. Sertifikatlashtirish uchun sertifikatlashtirish obyektlari va subyektlariga yagona talablarni belgilagan me'yoriy hujjatlar bor bo'lishi shart.

Atamalar va ta'riflarning birliligi qo'yilgan vazifalarni to'g'ri tushunish va sertifikatlashtirish jarayonlarini muvaffaqiyatli o'tkazish uchun zarur bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasida xalqaro standart ISO/MEK 2:1996 «Standartlashtirish va yondosh faoliyat turlari. Umumiy lug'at» asosida yaratilgan OzDSt 5.5:1999 O'z SMT. Asosiy atamalar va ta'riflar» va sifat menejmenti tizimlari bo'yicha OzDSt ISO 9000:2002 amalda qo'llanilmoqda.

Sertifikatlashtirish va akkreditlash bo'yicha ishlarni o'tkazishda foydalaniladigan ba'zi atamalar va ularning xos ta'riflari quyida keltirilgan.

Akkreditlash tizimi – akkreditlashni o'tkazish uchun tadbirlar va boshqaruvning o'z qoidalariga ega bo'lgan tizim.

Akkreditlash – tadbir bo'lib, uning vositasida vakolatli idora shaxs yoki idoraning muayyan ishni bajarish huquqiga ega ekanligini rasmiy tan oladi.

Akkreditlash bo'yicha idora – akkreditlash tizimini boshqaruvchi va akkreditlashni o'tkazuvchi idora.

Inspeksiya tekshiruvi – sertifikatlashtirish va akkreditlashda oʻrnatilgan talablarga muvofiqligini tasdiqlash maqsadida sertifikatlashtirilgan mahsulot, sifat yoki ishlab chiqarishni boshqarish tizimlari, sertifikatlashtirish boʻyicha idoralar, sinash laboratoriyalari (markazlari)ning faoliyatini takroriy baholash tadbiri.

Sertifikatlashtirish tizimi – muvofiqlikni sertifikatlashtirishni oʻtkazish uchun tadbirlar va boshqaruvning oʻz kreditlariga ega boʻlgan tizim.

Sertifikatlashtirish – tadbir boʻlib, buning vositasida uchinchi tomon mahsulot, jarayon yoki xizmatlarning topshiriqdagi talablarga muvofiqligini yozma shaklda tasdiqlaydi.

Sertifikatlashtirish boʻyicha idora – sertifikatlashtirishni oʻtkazuvchi idora.

Izoh – sertifikatlashtirish boʻyicha idora muvofiqlikka sinash va tekshirishni oʻzi oʻtkazishi yoki uning topshirigʻi boʻyicha boshqa idoralar tomonidan oʻtkaziladigan bunday faoliyat ustidan nazoratni amalga oshirishi mumkin.

Sinash laboratoriyasi – sinashlarni oʻtkazadigan laboratoriya.

Izoh – «Sinash laboratoriyasi» atamasi yuridik yoki texnik idora, yoki ikkalasini ifodalovchi maʼno sifatida foydalanilishi mumkin.

Sifat – oʻz tafsilotlari majmuyining talablarga muvofiqlik darajasi.

Isteʼmolchilarning qoniqqanligi – isteʼmolchilarning oʻz talablarining bajarilganlik darajasidan mamnun boʻlganlik hissiyoti.

Sifat menejmenti tizimi – sifatga nisbatan tashkilotga rahbarlik qilish va boshqarish uchun menejment tizimi.

Sifat sohasidagi siyosat – yuqori rahbariyat tomonidan ifodalangan sifat sohasida tashkilotning umumiy maqsad va faoliyat yoʻnalishi.

Tashkiliy tuzilma – mas’ullik, vakolatlik va o‘zaro munosabatlarning xodimlar o‘rtasida taqsimlanishi.

Manfaatdor tomon – tashkilotning faoliyatidan yoki yutuqlaridan manfaatdor shaxs yoki guruh.

Jarayon – kirish va chiqishlarni qayta o‘zgartiruvchi o‘zaro bog‘liq va o‘zaro ta’sir etuvchi faoliyat turlarining majmuyi.

Tadbir – faoliyatni yoki jarayonni amalga oshirishning o‘rnatilgan usuli.

Kuzatuvchanlik – kuzatilayotganning tarixi, qo‘llanilishi yoki joylashgan o‘rnini kuzatish imkoni.

Muvofiqlik – talabni bajarish.

Nomuvofiqlik – talabni bajarmaslik.

Sifat bo‘yicha rahbariyat – tashkilot sifat menejmenti tizimini belgilovchi hujjat.

Tahlil – qurilayotgan obyektning yaroqliligi, adekvatligi (aynan bir xilligi), natijaviyligini aniqlash yoki belgilangan maqsadlarga erishish uchun amalga oshiriladigan faoliyat.

Audit – audit guvohnomasini olish va auditning kelishilgan mezonlarini bajarish darajasini aniqlash maqsadida ularni beg‘araz baholash muntazam, mustaqil va hujjatlashtirilgan jarayoni.

Audit dasturi – muayyan vaqt davriga rejalashtirilgan va muayyan maqsadga erishishga yo‘naltirilgan bir yoki bir nechta auditlar majmuyi.

Kompetentlik (vakolatlilik) – o‘z bilim va ko‘nikmalarini qo‘llay olish qobiliyati.

4.2. Sertifikatlashtirishning tashkiliy asoslari

O‘zbekistonda sertifikatlashtirishni joriy etish bo‘yicha faol ishlar 1992-yilda, ya’ni chet ellardagiga nisbatan ancha kech boshlandi. 1992-yil 2-martda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar

Mahkamasining «O‘zbekiston Respublikasida standartlashtirish bo‘yicha ishlarni tashkillashtirish to‘g‘risida»gi qarori qabul qilindi. Shu yilning o‘zida davlat ilmiy-texnik dasturi asosida «O‘zbekiston Respublikasi sertifikatlashtirish milliy tizimini tatbiq etish va yaratish» mavzusida ilmiy-tadqiqot ishlari boshlandi. Sertifikatlashtirish tashkiliy, me‘yorlash, metodik va tuzilish sohalarida shakllana boshlandi.

1998-yilda standartlashtirishning huquqiy asoslari aniqlandi – O‘zbekiston Respublikasining «Mahsulot va xizmatlarni sertifikatlashtirish to‘g‘risida»gi Qonuni qabul qilindi.

Qonunga muvofiq standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish O‘zbekiston agentligi – «O‘zstandart» agentligi sertifikatlashtirish bo‘yicha Milliy idora va akkreditlash idorasi tashkil qilindi. Qonunga muvofiq, sertifikatlashtirish bo‘yicha ishlarni tashkillashtirish «O‘zstandart» agentligiga yuklatilgan. Bir turli mahsulotlarni sertifikatlashtirish bo‘yicha idoralar sertifikatlashtirish ishlarini bajaradi, bu idoralar majburiy ravishda akkreditlanadi. Majburiy sertifikatlashtirish subyektlariga «O‘zstandart» agentligi, sertifikatlashtirish bo‘yicha idoralar, sinash laboratoriyalari (markazlari), nazorat idoralari, mahsulotni tayyorlovchilar kiradi. Sertifikatlashtirish bo‘yicha idoralar bir turli mahsulotni sertifikatlashtirish tizimlarini yaratish, sertifikatlashtirish tarzini va so‘rovchilarga sertifikatlashtirilgan mahsulotga muvofiqlik belgisini qo‘llanishga ruxsat berish huquqiga ega.

Qonunda import bo‘yicha keltirilgan va eksportga chiqariladigan mahsulotni sertifikatlashtirish shartlari belgilangan. Sertifikatlashtirish shart bo‘lgan mahsulot uning o‘rnatilgan talablarga muvofiqligini tasdiqlovchi sertifikatga va muvofiqlik belgisiga ega bo‘lishi lozim. Muvofiqlik sertifikati yo‘q bo‘lganda bojxona tekshiruv idoralari keltirilgan mahsulotni sertifikatlashtirish Mil-

liy tizimi qoidalari bo'yicha sertifikatlashtirishni o'tkazish masalasini hal etishgacha to'xtatib qo'yadi.

Qonun yuridik va jismoniy shaxslarning tashabbusi bilan sertifikatlashtirishni ko'zda tutadi. Tashabbus bo'yicha ixtiyoriy sertifikatlashtirish mahsulotning me'yoriy hujjatlar talablariga muvofiqligini tasdiqlash uchun o'tkazilishi mumkin. Qonun tekshirish va nazorat masalalarini tartibga soladi. Tayyorlovchilarning majburiy sertifikatlashtirish qoidalariga amal qilayotganligi ustidan davlat nazoratini davlat inspektorlari amalga oshiradi. Sertifikatlashtirilgan mahsulotni, sifat tizimlarini, ishlab chiqarishlarning inspeksion tekshiruvini sertifikatlashtirish bo'yicha idoralar, akkreditlangan sinash laboratoriyalari (markazlari), sertifikatlashtirish bo'yicha idoralar va sertifikatlashtirish sohasidagi tekshiruv idoralarining faoliyati akkreditlovchi idora sifatida «O'zstandart» agentligi tomonidan tekshiriladi.

Qonunda sertifikatlashtirishni o'tkazish bilan bog'liq bo'lgan kelishmovchiliklarni ko'rib chiqish bo'yicha masalalar ham aks ettirilgan. Manfaaddor tomon sertifikatlashtirish natijasiga norozi bo'lganda «O'zstandart» agentligining Apellatsiya kengashiga murojaat qilish huquqiga ega. «O'zstandart» agentligining Apellatsiya kengashi sertifikatlashtirish bo'yicha idoralarning va sinash laboratoriyalari (markazlari)ning qarorlariga shikoyatlarni ham ko'rib chiqadi.

Qonunda tayyorlovchilarning majburiy sertifikatlashtirish qoidalarini buzganligi uchun javobgarlik, shuningdek, sertifikatlashtirish bo'yicha idoralarning sertifikati asossiz berilganligi va so'rovchining tijorat sirini oshkora qilganligi uchun mas'ulligi ko'zda tutilgan. Majburiy sertifikatlashtirilishi lozim bo'lgan, sertifikatlashtirilmagan mahsulotni xaridga chiqarganligi uchun aybdorlar o'rnatilgan tartibda javobgarlikka tortiladi.

O'zbekiston Respublikasining «Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida»gi Qonuni

O'zbekiston Respublikasining «Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida»gi Qonuni sertifikatlashtirishning qo'shimcha huquqiy asosini beradi. Jumladan, majburiy sertifikatlashtirilishi lozim bo'lgan molni sotishda iste'molchiga molning sertifikatlashtirilganligi to'g'risida ma'lumot berilishi qayd etilgan. Zarur axborot bo'lmaganda davlat boshqaruv idorasining yozma ko'rsatmasiga muvofiq molni sotish tugatiladi. Uzoq muddat foydalaniladigan mollarning barcha turlariga va xizmatlarga tayyorlovchi kafolat muddatini o'rnatishi lozim.

«Oziq-ovqat mahsulotining sifati va xavfsizligi to'g'risida»gi Qonun ham sertifikatlashtirishning huquqiy asosi bo'ladi. Bu qonun gigiyenik sertifikatlarni rasmiylashtirish zarurligini belgilaydi. Bunday sertifikat asosida oziq-ovqat mahsuloti davlat ro'yxatiga kiritiladi va muvofiqlikka sertifikatlashtirish o'tkaziladi.

O'zbekiston Respublikasining «O'simliklar karantini to'g'risida»gi Qonuniga muvofiq, 1997-yildan boshlab o'simlik mahsulotini O'zbekistonga kiritish va uning hududi orqali olib o'tish qoidalari belgilanadi. Mahsulotning har bir tupiga o'simliklar karantin bo'yicha davlat inspeksiya idoralari tomonidan beriladigan fitosanitariya sertifikati qo'shilgan bo'lishi lozim. Fitosanitariya tekshiruvigacha qo'shimcha mahsulot olib kirishda import qilishga ruxsat rasmiylashtiriladi.

Ekologik sertifikatning maqsadi – atrof-muhitni juda kam darajada iflos qiluvchi va iste'molchiga uning hayoti va sog'lig'i uchun mahsulotning xavfsizligiga kafolat beruvchi mollarni tayyorlash va texnologik jarayonlarni joriy etishda ishlab chiqaruvchini rag'batlashtirishdan iborat.

«O'zstandart» agentligiga «Mahsulotning xavfsizligi talablariga muvofiqligini deklaratsiyalash tartibi to'g'risida» nizomni

oʻrnatilgan tartibda ishlab chiqish topshirilgan. Qarorda, shuningdek, akkreditlangan idoralar va laboratoriyalarda sinash uchun keltirilgan mahsulotdan namuna ajratib olish eng koʻp meʼyorini koʻrsatish zarurligi qayd etilgan, shuningdek akkreditlangan idoralar va laboratoriyalarda sinashlarni takrorlamaslik uchun sinash turlarini aniqlash ham belgilangan. Qonunga muvofiq davlat idoralari tomonidan vakolatlanganlar muvofiqlik sertifikatining borligini faqat sertifikatlashtirilishi lozim boʻlgan mahsulotga nisbatan tekshirishi belgilangan. Qarorda, shuningdek, «Oʻzstandart» agentligiga majburiy sertifikatlashtirishi lozim boʻlgan mahsulotlar roʻyxatini nashr etish va joylarga yuborish vazifasi ham yuklatilgan. Bunda mahsulotning sifati va xavfsizligi koʻrsatkichlarini aniqlovchi meʼyoriy hujjatlar ham koʻrsatiladi. Shuningdek, sertifikatlashtirish sohasidagi barcha meʼyoriy-huquqiy hujjatlarni respublika tadbikorlarining keng ommasiga yetkazish, shu jumladan Internet vositasida xabar qilish ham qarorda qayd etilgan.

Oʻzbekiston Respublikasining «Mahsulot va xizmatlarni sertifikatlashtirish toʻgʻrisida»gi Qonunida koʻrsatilishicha, muvofiqlik sertifikatisiz mahsulot sotgan tadbirkorlik subyektiga nisbatan sotilgan mahsulot narxining 100 foiz miqdorida jarima yoziladi.

Milliy idoraga yuklatilgan vazifalar

«Oʻzstandart» agentligi Sertifikatlashtirish boʻyicha milliy idora boʻladi. Milliy idoraga quyidagi vazifalar yuklatilgan:

- sertifikatlashtirish sohasida davlat siyosatini amalga oshirish, sertifikatlashtirishni oʻtkazish boʻyicha umumiy qoidalarni oʻrnatish;

- sertifikatlashtirish tizimini takomillashtirish boʻyicha dasturlarning loyihalarini ishlab chiqish va ularni Oʻzbekiston Respublikasining hukumatiga koʻrib chiqish uchun taqdim etish;

– O‘zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasi bilan kelishilgan holda xalqaro Sertifikatlashtirish tizimlariga qo‘shilish, shuningdek, sertifikatlashtirish natijalarini o‘zaro tan olish bo‘yicha bitim tuzish to‘g‘risida qaror qabul qilish;

– sertifikatlashtirilgan mahsulotning davlat reyestrini boshqarish;

– sertifikatlashtirish qoidalariga rioya qilinishi va sertifikatlashtirilgan mahsulot ustidan davlat tekshiruvi va nazoratini amalga oshirish.

Standartlashtirish va sertifikatlashtirish sohasida davlat siyosatini va muvofiqlashtirishni amalga oshirish:

– muvofiqlik, metrologiya, standartlashtirish, sifat sohasida davlat siyosatini va muvofiqlashtirishni amalga oshirish;

– sertifikatlashtirish tizimini takomillashtirish bo‘yicha dasturlar loyihalarini ishlab chiqish va ularni hukumatga ko‘rib chiqishga taqdim etish;

– O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi bilan kelishilgan holda xalqaro sertifikatlashtirish tizimlariga qo‘shilish, shuningdek, sertifikatlashtirish natijalarini o‘zaro tan olish bo‘yicha bitim tuzish to‘g‘risida qaror qabul qilish;

– sertifikatlashtirilgan mahsulotning davlat reyestrini boshqarish;

– mahsulotning sifati, xavfsizligi, eksportga yo‘naltirilganligini ta‘minlashga, mollar (ishlar, xizmatlar)ning xavfsizligini ta‘minlovchi talablarni o‘rnatish, bularga rioya qilinishini tekshirish, shuningdek, sifatni boshqarish va 9000 va 14000 ISO xalqaro standartlarini hisobga olgan holda atrof-muhitni muhofazalash bo‘yicha tizimlarni ishlab chiqish va joriy etish yo‘li bilan iste‘molchilarning huquqlarini va respublikaning iqtisodiy manfaatlarini himoya qilishga yo‘naltirilgan standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish sohasida yagona siyosatni qonuniy shakllantirish va bajarish;

– mamlakat mollarining raqobatbardoshligini oshirish sohasida uzoq mo'ljallangan tadbirlarni o'tkazish. Bunday tadbirlar sertifikatlashtirish milliy tizimini takomillashtirish hisobiga, ishlab chiqaruvchining muvofiqligini deklaratsiyalash, muvofiqligi ixtiyoriy ravishda tasdiqlanadigan mahsulotlar nomenklaturasini kengaytirish, shuningdek, ishlab chiqarishlarda sifatni boshqarish tizimlarini tez sur'atlar bilan joriy etish va ularni 9000 seriyali ISO xalqaro standartlariga muvofiqlikka sertifikatlashtirish yo'li bilan muvofiqlikni tasdiqlash tizimiga bosqichma-bosqich o'tish hisobiga sifatni oshirish masalalari bo'yicha qator muammolarni yechishga imkon beradi.

Sertifikatlashtirish tizimi murakkabligiga sinashda uchinchi tomonning turli organlari mavjudligi nazarda tutiladi. Shuningdek, 1-tizimda faqat taqdim etilgan namunalarning namunaviy sinovlari o'tkazilganda bitta sertifikatlashtirish organi bo'lishi yetarli. Shu vaqtning o'zida, 5-tizimda sertifikatlashtirish organidan tashqari tizimda nazorat va andozalashtirish organlarining ishtiroki zarur.

Sertifikatlashtirish organi tizim va uning faoliyatini boshqaradi. O'z faoliyatida u:

- mamlakatning amaldagi qonunchiligi va aniq mahsulot sifati nazoratini tashkil qilishi bo'yicha me'yoriy aktlarga;
- mahsulot iste'molchilari va savdo tomonidan qo'yilgan talablar doirasida andozalarga rioya qilish bo'yicha majburiyatlarga amal qiladi.

Mazkur organ namunaviy sinovlarni o'tkazish, korxona va savdo doirasidagi mahsulot sifatini nazorat qilish, nazoratni tashkil etish va boshqa barcha uchinchi tomon ishlarini bajaradi. Sinovlar o'z laboratoriyalarida, agar ular bo'lmasa, alohida vazifalarni bajarishga ixtisoslashgan milliy organ va tashkilotlar laboratoriyalarida bajariladi.

Sertifikatlashtirish organining asosiy vazifalari:

- qabul qilingan tizim doirasida sertifikatlashtirish tartibini ishlab chiqish;
- sertifikatlashtirish sinovlarini o‘tkazish uchun sinov laboratoriyalarini attestatsiyalash;
- ishlab chiqaruvchi korxonalaridagi sifatni ta’minlash tizimlarini baholash;
- korxonalarni sertifikatlashtirish tizimlariga qo‘yish haqida qarorlar qabul qilish;
- muvofiqlik sertifikatlarini yoki mahsulotning muvofiqligi haqida tamg‘a qo‘yish huquqini berish;
- sertifikatlashtirish mahsulot ro‘yxatini olib borish;
- sertifikatlashtirish mahsulot sifati haqida da’volashuvlarni ko‘rish. Uchinchi tomondan sertifikatlashtirish tizimlari
 - ishlab chiqaruvchilar assotsiatsiyalari qoshida;
 - asosiy iste’molchi yoki iste’molchilar guruhlarida qoshida;
 - andozalashtirish bo‘yicha milliy tashkilotlar tomonidan;
 - yuqori xalqaro obro‘ga ega va tan olingan xususiy tashkilotlar tomonidan;
 - do‘konlarning ko‘p tarmoqlariga ega katta savdo tashkilotlar qoshida yaratilishi mumkin.

Sertifikatlashtirish tizimining muhim tarkibiy elementi korxonalaridagi sifatni ta’minlovchi tizimlar faoliyatini tekshiradigan nazorat organidir. Undan tashqari, u sertifikatlashtirish organining laboratoriyalarida sinovlar tashkil qilinishini davriy nazorat qilishi mumkin.

Uchinchi tomondan sertifikatlashtirish tizimiga andozalashtirish bo‘yicha milliy organ va metrologik xizmat kiradi. Birinchi organ zarur andozalar ishlab chiqalishini ta’minlaydi, ikkinchisi esa amaldagi qonunchilikka binoan korxona va sinov laboratoriyalarda o‘lchash vositalarini tekshiradi.

Aytib o'tish kerakki, xalqaro sertifikatlashtirish yagona xalqaro andozalarga rioya qilishni nazarda tutadi. Agar korxona o'z mahsulotini boshqa andozalar bo'yicha chiqarsa, u mazkur sertifikatlashtirish tizimidan tashqarida qoladi, uning mahsuloti esa raqobatbardosh bo'lmaydi.

Sertifikatlashtirish – mahsulot ma'lum talablar, aniq andozalar yoki texnikaviy shartlarga mosligining hujjatli tasdig'idir. Muvofiqlikning uch turi joriy qilingan:

- muvofiqlik haqida bayonot;
- muvofiqlikni attestatsiyalash;
- muvofiqlikni sertifikatlashtirish. Mahsulotning andozalar talablariga muvofiqligi muvofiqlik sertifikati va muvofiqlik belgisi bilan tasdiqlanadi.

O'z-o'zini sertifikatlashtirishda sertifikatlar ishlab chiqaruvchilar tomonidan beriladi, uchinchi tomondan sertifikatlashtirish begona tashkilotlar ishtirokini nazarda tutadi.

4.3. Sertifikatlashtirish obyektlari va subyektlari

Sertifikatlashtirishni o'tkazish uchun umumiy qoidalar o'rnatiladi. Bunday qoidalar majburiy va ixtiyoriy sertifikatlashtirishni tashkillashtirish va o'tkazishda qo'llaniladi. Bu qoidalar mamlakatimizda va xorijda tayyorlangan barcha sertifikatlashtirish obyektlariga nisbatan tatbiq etiladi.

O'zSMTda mamlakatimiz va xorijiy mahsulotni sertifikatlashtirishni bir turli mahsulotni sertifikatlashtirish bo'yicha akkreditlangan idoralar, bular yo'q bo'lganda esa – sertifikatlashtirish bo'yicha Milliy idora o'tkazadi.

Sertifikatlarni berish, shu jumladan, ishlab chiqarishni tekshirish, sinashlar va inspeksiya tekshiruvi bo'yicha so'rovlarni ko'rib chiqish, hujjatlarni ro'yxatga olish va zarur materiallarni tarjima qilish xarajatlarini so'rovchi o'rnatilgan tartibda to'laydi.

Sertifikatlashtirishni o'tkazish tartibida sertifikatlashtirish amallarining majmuyini tashkil etuvchi harakatlarning navbati o'rnatiladi. Bu tartib va bir turli mahsulotni sertifikatlashtirish tarzi sertifikatlashtirish bo'yicha idoraning hujjatlarida uni akkreditlashda o'rnatiladi. Orada sertifikatlashtiriladigan mahsulotga me'yoriy hujjatlar va sinash metodlari, shuningdek, sinashlarni o'tkazish uchun laboratoriyalar mavjud bo'ladi.

Gigiyenik va veterinariya ekspertizasi, karantin tekshiruvi yoki ekologik sertifikatlashtirish zarur bo'lganda, agar bular so'ralgan mahsulotning me'yoriy hujjatida o'rnatilgan bo'lsa, o'tkaziladi. Bunday tekshiruvlarni o'tkazish zaruriyatini sertifikatlashtirish bo'yicha idora so'ralgan mahsulotga MHda gigiyenik, veterinariya, fitosanitariya yoki ekologik talablarning mavjudligiga qarab aniqlaydi. Bu tekshiruvlar muvofiqlikni sertifikatlashtirish bilan barobar o'tkazilishi mumkin va tekshiruvchi idoralar tekshiruvlar tugagach, so'rovchiga mos hujjatlarni taqdim etadi, sertifikat berish to'g'risida qaror qabul qilishgacha bu hujjatlarning nusxalari sertifikatlashtirish bo'yicha idoraga beriladi.

So'rovchi gigiyenik sertifikatni olish uchun sanitariya-epidemiologik stansiyasi (SES)ga so'rovnoma berganda, bu SES veterinariya xulosasini olishni, agar MH talablariga ko'ra zarur bo'lsa, fitosanitariya yoki ekologik sertifikatlarni olish ishlarini ham tashkillashtirishi lozim.

Sertifikatlashtirish bo'yicha idora gigiyenik sertifikatni, veterinariya xulosasini, fitosanitariya yoki ekologik sertifikatlarini olish uchun mos tashkilotlar bilan hamkorlik xizmatlarini ko'rsatishga huquqlidir. Bunda sertifikatlashtirish bo'yicha idora namunalarni tanlab olish va ularni mos davlat idoralariga taqsimlash va so'rovchilarga bunday xizmatlar uchun ta'riflar to'g'risida xabar berish mas'ulligini o'ziga oladi.

Sertifikatlashtirish bo'yicha idora so'rovchilarga axborotlarni berish mumkin.

Sertifikatlashtirish bo'yicha idora so'rovchilarga, ularning talablari bo'yicha, quyidagilar to'g'risida axborot beradi:

- majburiy sertifikatlashtiriladigan mahsulot turlarining ro'yxati;

- bir turli mahsulotni sertifikatlashtirish qoidalari;

- sertifikatlashtirish bo'yicha xizmatlar preyskuranti yoki tarifi;

- tanishish uchun akkreditlash attestati.

Mahsulotni sertifikatlashtirish quyidagi asosiy ishlarni o'z ichiga oladi:

- sertifikatlashtirishga so'rovnoma berish va uni ko'rib chiqish;

- so'ralgan mahsulotga me'yoriy hujjatni va so'rovnomaga qo'shib berilgan boshqa hujjatlarni tahlil qilish;

- so'rovnoma bo'yicha qaror qabul qilish; sinovlar dasturini tayyorlash va tasdiqlash; namunalarni identifikatlash, ajratib olish va laboratoriyaga berish;

- namunalarni akkreditlash laboratoriyalarida sinash; mahsulotni ishlab chiqarish holatini baholash; natijalarni tahlil qilish va muvofiqlik sertifikatini berish to'g'risida qaror qabul qilish;

- muvofiqlik sertifikatini berish va muvofiqlikni tasdiqlash belgisining qo'llanish huquqini berish;

- mahsulotni muvofiqlikni tasdiqlash belgisi bilan tamg'alash yoki sertifikatlashtirilgan mahsulotni sotishda unga so'rovchi tomonidan muvofiqlik sertifikatini qo'shib berish;

- sertifikatlashtirish Davlat reyestrda ro'yxatga olish yo'li bilan sertifikatlashtirish natijalari to'g'risida axborot berish.

Seriyalab ishlab chiqarishda chiqariladigan mahsulot uchun ba'zi inspeksion tekshiruv o'tkazish tartibi. Seriyalab ishlab chiqariladigan mahsulot uchun sertifikatlashtirishning ba'zi sxemalari bo'yicha sertifikat berilgandan keyin sertifikatlashtirilgan mahsulotni davriy inspeksion tekshiruvdan o'tkazish ko'zda tutiladi.

Sertifikatlashtirish tadbirlariga xorijiy yoki xalqaro idoralar bergan muvofiqlik sertifikatlarini tan olish, shuningdek, berilgan apellatsiyalarni ko'rib chiqish, sertifikatlashtirishga so'rovnomani ko'rib chiqish va qaror qabul qilish, mahsulotga me'yoriy hujjatni tahlil qilish, sinovlar dasturini ishlab chiqarish, namunalarni identifikatlash va ajratib olish, sertifikatlashtirish sinovlarini o'tkazish, ishlab chiqarish holatini baholash, muvofiqlik sertifikatini rasmiylashtirish ham kiradi.

Sertifikatlashtirish bo'yicha faoliyatni xalqaro talablarga mos keltirish munosabati bilan «Muvofiqlikni tasdiqlash» tushunchasi kiritilgan.

4.4. Sertifikatlashtirish faoliyatiga doir umumiy talablar

Sertifikatlashtirishni o'tkazish uchun milliy tizimning asosiy nizomi.

O'zbekistonda sertifikatlashtirish, eng avvalo, iste'mol mollariga nisbatan qo'llaniladi va ularning xavfsizligi va ekologikligini tasdiqlaydi. Majburiy sertifikatlashtiriladigan mahsulot muhim hujjat hisoblangan ro'yxatga kiritiladi.

Sertifikatlashtirish milliy tizimi (O'zSMST)ni yaratishdan maqsad muvofiqlikni sertifikatlashtirishni amalga oshirish uchun tadbir va boshqarish qoidalarini o'rnatishdan iborat.

Sertifikatlashtirish tizimining asosiy vazifalari quyidagilar:

- sertifikatlashtirishda qo'llaniladigan hujjatlarning yagona tizimini o'rnatish;
- yagona atamalar va ta'riflarni o'rnatish;

– bir turli mahsulotni sertifikatlashtirish qoidalarini va tartiblarini oʻrnatish;

– sertifikatlashtirish uchun sinovlarni (sertifikatlashtirish sinovlarini) oʻtkazish qoidalarini oʻrnatish;

– sertifikatlashtirish ishtirokchilarining davlat boshqaruv idoralari bilan oʻzaro hamkorlik tartibini aniqlash.

Sertifikatlashtirish boʻyicha meʼyoriy hujjatlarga asosan ish yuritish.

Oʻz SMT Oʻzbekiston Respublikasining qonun va meʼyoriy hujjatlariga muvofiq ish koʻradi. Oʻz SMTda faoliyatning quyidagi turlari nazarda tutilgan:

– mahsulot va xizmatlarni sertifikatlashtirish;

– sifat va ishlab chiqarishlar tizimlarini sertifikatlashtirish;

– sertifikatlashtirilgan mahsulot, xizmatlar, sertifikatlashtirilgan sifat tizimlari va ishlab chiqarishlar ustidan inspeksion tekshiruv;

– majburiy sertifikatlashtirish qoidalariga rioya qilinishi ustidan nazorat.

Oʻz SMT tizimining qoidalarini tan olish sharti bilan sertifikatlashtirishni soʻrovchi boshqa davlatlar va tashkilotlar uchun ochiq hisoblanadi.

Sertifikatlashtirish mahsulot, jarayonlar va xizmatlarning talablarga muvofiqligini tasdiqlashni taʼminlaydi, jumladan: davlatlararo standartlarning talablariga; Oʻzbekiston Respublikasi standartlarining va boshqa rasmiy nashr etilgan, mahsulotga talablarni oʻrnatuvchi meʼyoriy hujjatlarining talablariga; Xalqaro va xorijiy milliy standartlarning Oʻzbekiston standartlashtirish Milliy idorasi qoʻshilgan sertifikatlashtirish tizimlari doirasidagi talablarga muvofiqligini taʼminlaydi.

Oʻz SMT mahsulotning majburiy va ixtiyoriy sertifikatlashtirilishini oʻtkazishni nazarda tutadi.

O'zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasi tasdiqlaydigan majburiy sertifikatlashtiriladigan mahsulotlar ro'yxatga kiritilgan, O'zbekiston Respublikasida tayyorlangan, import bo'yicha kiritiladigan va eksportga chiqariladigan mahsulotlar majburiy sertifikatlashtiriladi.

Me'yoriy hujjatlarda fuqarolarning hayoti, sog'lig'i va mulkiga xavfsizlikni ta'minlash, atrof-muhit muhofazasi, o'zaro almashinuvchanlik va mos keluvchanlik talablari o'rnatilgan mahsulotlar, shuningdek, fuqarolarning hayoti va sog'lig'i uchun xavfsizlikni ta'minlovchi vositalar ro'yxatga kiritiladi.

Molni bu ro'yxatga kiritish uchun mezonlar sifatida quyidagilar tanlangan:

- foydalanuvchilar uchun xavf tug'dirishi mumkinligi;
- mahsulotga me'yoriy hujjatda xavfsizlik talablarining borligi;
- mahsulotdan yalpi foydalanish;
- ro'yxatga impart mahsulotlari ham kiritiladi, bu to'g'rida chet mamlakatlarning rasmiy idoralari o'ziga xos yo'llar bilan xabardor qilinadi.

Mahsulot, xizmatlar, sifat tizimlari va ishlab chiqarishlarni ixtiyoriy sertifikatlashtirish tayyorlovchi, iste'molchi yoki yetkazib beruvchi (so'rovchi)ning tashabbusi bilan o'tkaziladi.

O'z SMTda reyestrlarni boshqarish.

O'z SMTda quyidagi reyestrlar boshqariladi:

- bir turli mahsulotni sertifikatlashtirish bo'yicha akkreditlangan idoralar;
- sifat va ishlab chiqarish tizimlarini sertifikatlashtirish bo'yicha akkreditlangan idoralar;
- akkreditlangan sinash laboratoriyalari (markazlari);
- sifat bo'yicha attestatlangan ekspert-auditorlar;
- sertifikatlashtirilgan mahsulot; sertifikatlashtirilgan sifat va ishlab chiqarish tizimlari;

– ro‘yxatga olingan bir turli mahsulotni sertifikatlashtirish tizimlarining reyestlari, O‘z SMTda Davlat reyestrini boshqarish qoidalari me‘yoriy hujjatlarda aniqlangan.

Sertifikatlashtirish bo‘yicha Milliy idora Davlat reyestri ma‘lumotlarini, shuningdek, sertifikatlashtirish bo‘yicha idoralardan va tizimning boshqa ishtirokchilaridan olinadigan axborotni davriy nashr etadi.



NAZORAT SAVOLLARI

1. Sifat sertifikati nima?
2. Muvofiqlik nima?
3. Sinash deb nimaga aytiladi?
4. Qiyoslash deb nimaga aytiladi?
5. Akkreditlash nima?
6. Sertifikatlashtirish organi deganda nimani tushunasiz?

V bob. SERTIFIKATLASHTIRISHNING TASHKILIY ASOSLARI

5.1. Sifat tizimini sirtidan baholash

Sifat tizimini sirtidan baholash – ekspert talabgor korxonada sertifikatlashtirishning potensial imkoniyatining mavjudligini yuzaga chiqarishi va keyingi ishlarini olib borish maqsadga muvofiqligini tasdiqlashi mumkin bo‘ladigan dastlabki baholashdir. Bu talabgor sifat tizimini sertifikatlashtirish bo‘yicha idoraga quyidagilarni taqdim etadi:

- Talabnoma;
- Sifat tizimi bo‘yicha hujjat;
- Sifat bo‘yicha qo‘llanma;
- Savollar anketasi javoblari bilan.

Agar bu materiallar tahlili ijobiy natijalarga ega bo‘lsa, sertifikatlashtirish bo‘yicha idora, talabgor bilan yakuniy tekshiruvini o‘tkazish uchun shartnoma tuzadi: shunga asosan sifatni boshqarish bo‘yicha korxona faoliyati turi va holati; ishlab chiqarish tizimi holati; ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifati bo‘yicha tekshiruv o‘tkaziladi. Sifat boshqaruvi bo‘yicha faoliyat, korxonada mavjud bo‘lgan talab qilingan xalqaro ISO 9000 seriyali standartlar talablariga yoki o‘xshash Rossiya davlat standartiga mosligi tekshiriladi.

Tekshiruv natijasiga ko‘ra quyidagi yakunlar chiqarish mumkin:

- tizim qo‘yilgan talablarga to‘liqligicha javob beradi;
- tizim umumiy holda talablarga mos keladi, ammo standartdan og‘ib chetlashishlar mavjud;

– tizim qo'yilgan talablarga mos kelmaydi.

Birinchi holda sertifikatlashtirish bo'yicha idora korxonaga davlat registrida ro'yxatga olingan, so'ng sifat tizimiga sertifikat topshiriladi. Ikkinchi holda korxonaga aniqlangan chetlashishlarni yo'qotish uchun vaqt beriladi, undan keyin uning talabnomasi asosida sertifikatlashtirish davom ettiriladi, ammo soddalashtirilgan sxema bo'yicha. Ijobiy natijalarda korxona sifat tizimiga sertifikat oladi. Agar tekshiruv natijasi salbiy bo'lsa, korxona butun dastur bo'yicha qaytadan sertifikatlashtirishni o'tkazishga imkoniyati bor.

Sertifikatlashtirilgan sifat tizimi ustidan inspeksion nazorat ikki shaklda olib boriladi: reja bo'yicha (yiliga bir martadan) va rejadan tashqari. Rejadan tashqari nazoratga asoslar: ma'lumotlarni sertifikatlashtirish idorasiga korxona mahsuloti-ning sifatiga e'tirozli ma'lumotlar kelib tushishi; texnologik jarayoni yoki mahsuloti konstruksiyasiga katta o'zgarishlar kiritish; korxonaning tashkiliy strukturasining o'zgarishi. Rossiya korxonalarida sifat tizimlarini sertifikatlashtirish sekin-asta rivojlanmoqda, mahalliy sertifikatlarni tan olish muammosi ham ahamiyatli bo'lib bormoqda. Shu bilan birga, Rossiya sertifikatlarni chet eldan olishi uchun tuzilgan GOST R. tizimi strukturasi sifat tizimi registridan tashqari, boshqa imkoniyatlar ham qo'llanmoqda. Ulardan biri qo'shma sertifikatlashtirishdir.

Shu maqsadda VNIIS Londonda shtab-kvartirasiga ega bo'lgan sertifikatlashtirish idorasi sifatidan dunyoning 30 mamlakatlarida akkreditlangan va u yerda o'z bo'limlariga ega bo'lgan Det Norske Veritas (DNV) firmasi bilan qo'shma sertifikatlashtirish haqida shartnoma tuzdi. Sertifikatlashtirish bo'yicha Rossiya idorasi VNIIS, Italiyada akkreditlangan DNV idorasi bilan hamkorlikda ishlamoqda. Bu shartnoma maqsadi Rossiya firmalarini va ularning mahsulotlarining chet elda

raqobatbardoshligini oshirish uchun erkin qo'shma sertifikatlashtirishni amalga oshirishdir.

Shartnoma doirasiga sertifikatlashtirish qo'shma VNIIS/DNV sxemasi bo'yicha va shuningdek, bu tashkilotlardan biri tomonidan o'z sxemasi bo'yicha o'tkazilishi mumkin. Shunday qilib, 1996-yilda Belgorodda joylashgan «Belenergomash» AJ korxonasida qo'shma sertifikatlashtirish o'tkazildi: issiqlik va atom elektrostansiyalari uchun truboprovodlar ishlab chiqarish sifatini ta'minlash tizimi sertifikatlashtirildi. Sertifikatlashtirish yakuni bo'yicha korxona bir vaqtning o'zida ikki muvofiklik sertifikatini oldi – GOST R. va DNV tizimida.

Bundan tashqari, ba'zi Rossiya korxonalari boshqa imkoniyatlardan ham foydalanishadi: bevosita talabnomalar bilan butun dunyoda tan olingan Tyuf-Sert, Lloyd Registri kabi sertifikatlashtirish bo'yicha firmalarga murojaat etadilar.

1995-yil «RWTUV» «Intersertifika» Rossiya–Germaniya qo'shma korxonasi tomonidan ko'rsatilgan xizmatlardan foydalangan korxonalar uchun yaxshi natijalar olib keldi. Sifat tizimlarini sertifikatlashtirish bu korxonalar uchun firmasining bo'limlari jahonning 40 dan ortiq davlatlarida faoliyat ko'rsatayotganligi sababli, butun dunyoda tan olingan TUV-CERT (Tyuf-Sert) sertifikatini olish huquqini beradi. Bunday korxonalar qatoriga Kaluga Turbin zavodi, Irkutsk kabel, Elektrostal mashina zavodi va boshqalar kiradi. Hammasi bo'lib Rossiya va Ukrainaga 1995-yilda TUV-CERT tomonidan 25 dan ortiq sertifikat berildi.

Bu qo'shma korxonaning maqsadi faoliyat ko'rsatuvchi tizimni baholash va sertifikatlashtirishgina emas, balki Rossiya korxonalarida sifatni ta'minlash tizimlarini o'rnatishga ko'maklashish hamdir. Buning uchun qo'shma korxona tomonidan tuzilgan 15 o'quv-konsultativ markazlari faoliyat ko'rsatmoqda.

Ishlab chiqarishni sertifikatlashtirish

Ishlab chiqarishni sertifikatlashtirish mustaqil jarayon yoki xuddi mahsulotni sertifikatlashtirish sxemasi kabi sifatni ta'minlash tizimini sertifikatlashtirishning tashkiliy qismi deb ham hisoblanishi mumkin. Ishlab chiqarish muvofiqligining umumlashgan mezonni sifatida tayyor mahsulotni me'yoriy hujjat talablariga mosligini turg'un ta'minlovchi qobiliyati hisoblanadi. Ishlab chiqarishni sertifikatlashtirish jarayoni har bir korxona uchun ishlab chiqarishni sertifikatlashtirish metodikasi asosida Rosdavstandart tomonidan o'rnatilgan qoidalar bo'yicha amalga oshiriladi. Metodika o'z ichiga quyidagilarni olgan: qat'iy talablar, isbotlangan baholash usullari; natijalarning qayta ishlanishi; tekshirish usullarining hammabopligi.

Ishlab chiqarishni sertifikatlashtirishda obyektlar quyidagicha baholanadi:

- tayyor mahsulotlar iste'mol va sotish davomida uning sifatini va aniqlangan nosozliklar sababini tahlil qilish;
- texnologik tizim (texnologik jarayonlar, yuklash ishlari holati, saqlash, o'rnatish);
- texnik nazorat va sinash tizimi (xomashyo boshlang'ich nazorati, texnologik operatsiya nazorati, tayyor mahsulot qabul qilish nazorati, malakali va davriy sinashlar).

Sifat tizimida kamchiliklar aniqlanmagan taqdirda ishlab chiqarishning asosiy bosqichlari 5-jadvalda keltirilgan. Ishlab chiqarishga tayyorlash jarayoni, Rossiya tajribasi ko'rsatishicha, korxonalar faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Masalan, texnologik intizom oshadi; iste'molchilar bilan aloqa yaqinlashadi, ishlab chiqarish turg'unligining miqdoriy vazifasi mezonlari ishlab chiqiladi, majburiy sertifikatlashtirilishi zarur bo'lgan, mahsulot xarakteristikasiga bevosita ta'sir qiluvchi texnologik jarayonlar bo'linmalari aniqlanadi.

T/r	Bosqich nomi	Qisqacha mazmuni	Bajaruvchi
1	Ishlab chiqarishni sertifikatlash-tirishga talab-nomani berish	Talabnomani rasmiylashtirish va yakuniy materiallarni tayyorlash.	Talabgor korxona
2	Oldindan baholash	Yakuniy materiallar ekspertizasi, sotilayotgan mahsulot sifati haqidagi axborotni yig'ish va mulohaza qilish, keyingi bosqichlarni o'tkazishning maqsadga muvofiqligini baholash.	Ishlab chiqarishni sertifikatlash-tirishni o'tkazuvchi idora
3	Ishlab chiqarishni sertifikatlash-tirish dasturini tuzish	Ishlab chiqarish jarayonlari, obyektlarini va qaror qabul qilish qoidalarini reglamentga solish (yoki amaldagi metodikani baholash).	Sertifikatlash-tirishni o'tkazuvchi idora
4	Ishlab chiqarishni tekshirish	Ekspertlar guruhini (komissiya) tuzish, sertifikatlashtirish metodikasiga ishlab chiqarishning mos kelishini tekshirish, tekshirish natijalari haqida hisobot va bayonnomalarni tuzish.	Sertifikatlash-tirishni o'tkazuvchi idora.
5	Ishlab chiqarishga muvofiqlik sertifikatlarini topshirish	Ishlab chiqarishga muvofiqlik sertifikatini rasmiylashtirish, uni Davlat registriga kirgizish, sertifikatni korxonaga berish.	Sertifikatlash-tirishni o'tkazuvchi idora
6	Sertifikatlash-tirilgan jarayon ustidan inspeksion nazorat o'rnatish	Sertifikatlashtirish metodikasiga mos kelgan holda mahsulotni tayyorlash sifati doimiyligi jarayonining nazorati.	Sertifikatlash-tirishni o'tkazuvchi idora

Mahsulotni GOST R. tizimi bo'yicha majburiy sertifikatlashtirishda (yoki GOST R. ga kiruvchi boshqa tizim bo'yicha) 5-sxema tanlansa, mahsulotga muvofiqlik sertifikatini olish uchun bu mahsulotni akkreditlangan sinash markazida (laboratoriyada) sinov o'tkazilishi zarur. Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, 5-sxema ishlab chiqarish texnologiyasi tashqi omillar ta'siriga sezgirligida qo'llaniladi (ya'ni asbobsozlik, radioelektronika, oziq-ovqat sanoati); korxonada xavfsizlikka yuqori talablar qo'yilgan (portlovchi moddalar, shaxsiy himoya vositalari, transport vositalari ishlab chiqarish) bo'lsa; iste'mol uchun amal muddati kichik bo'lgan mahsulotlar (tez buziluvchi oziq-ovqat mahsulotlari); korxona mahsulotni qo'shimcha ravishda modifikatsiyalaydi (kiyim-kechak, mebel va boshqalar).

Ishlab chiqarishni sertifikatlashtirishni maxsus akkreditlangan idorada o'tkazishni ko'zda tutgan, ammo hozirgi kunda ular kamchilik va u yoki bu ishlab chiqarish uchun sertifikatlashtirish bo'yicha idora mavjud bo'lmaganda, uning funksiyasini VNIIS vakiliy idora sifatida bajaradi.

5.2. Sifat tizimini sertifikatlashtirish bo'yicha mintaqaviy va xalqaro tashkilotlar

Sifat tizimini sertifikatlashtirish va baholash tarmog'i – EQNET sifat ta'minlash tizimini sertifikatlashtirish bilan shug'ullanuvchi 17 ta Yevropa milliy tashkilotlarini birlashtiradi. EQNET shunday tashkilotki, unga xohlagan davlatning sifat tizimi sertifikatlashtirish tashkiloti birlashishi mumkin.

EQNET ning faoliyati milliy idoralar tomonidan beriladigan ISO-9000 standarti xalqaro tan olish va keng ravishda tatbiq etishga qaratilgandir.

EQNET – sherik-tashkilotlar tan oladigan yagona sertifikat formasiga ega bo'lib, bu sertifikatning egasi talabgori sifat

tizimining sinovsiz, umumiy tarmoqqa kiradigan xohlagan milliy idoradan sertifikat olish huquqiga ega. Tarmoq ba'zi bir qo'shimcha xizmatlarni ham tavsiya qiladi:

- Dunyoning qariyb hamma mamlakatlaridagi sertifikatlarni tan olishda transmilliy korporatsiyalarga yordam berish;

- Mahsulotning ES direktivasiga muvofiqligi to'g'risida qo'shimcha sertifikatlashtirish.

- Ixtiyoriy sertifikatlashtirishdan o'tkazish.

EQNET auditorlari ish olib borishlari uchun asosiy hujjat bo'lib ISO 10011 «Sifat tizimi tekshirish bo'yicha asosiy ko'rsatmalar, sifat tizimi bo'yicha auditorlar uchun malaka mezonlari», «Sifat tizimini sertifikatlashtirish bo'yicha idoralarning baholash mezonlari» standarti va «Sifat tizimlarini sertifikatlashtirish idoralari baholash mezonlari» EN-45012 standartlari xizmat qiladi.

Sifat tizimini sertifikatlashtirish bilan bevosita sertifikatlashtirish idoralari akkreditlash ishlari ham olib boriladi. Bu borada sifat tizimlarini sertifikatlashtirish bilan shug'ullanuvchi idoralarni akkreditlash tashkilotlarning assotsiatsiyasi EAS alohida o'rin tutadi. EAS ning asosiy maqsadi bo'lib: o'zaro ishonchni o'rnatish uchun a'zo-davlatlar orasidagi har tomonlama hamkorlikni oshirish hisoblanadi.

Xalqaro mustaqil sertifikatlashtirish tashkiloti (IIOS) ham mavjud bo'lib, bu tashkilot mahsulotlar va sifat tizimlari sertifikatlashtirishi bo'yicha 7 ta katta xalqaro firmalarni – Det Norske Veritas, Registr Lloyd, Tyuf-Sert va boshqalarni o'z tarkibiga olgan. Tashkilotning asosiy vazifasi ISO-9000 seriyasidagi xalqaro standart bo'yicha sifat tizimlarini tatbiq etish va sertifikatlashtirishdan, eng muhimi, qayta sertifikatlashtirishlar o'tkazilishining oldini olish va sertifikatlashtirishga katta nufuz berishdan iborat.

9001 seriyali ISO standartiga mos keluvchi sifatni ta'minlash tizimlarini sertifikatlashtirish chet mamlakatlarida keng rivojlangan bo'lib, ayni paytda O'zbekistonda ham bu sohaga jiddiy e'tibor berilmoqda. Hozirgi kunda yurtimizda ko'pgina ishlab chiqarish korxonalari sifat tizimlarini sertifikatlashtirish ahamiyati va zarurligi anglaganlar va amalda undan foydalanmoqdalar.

Sifat tizimiga sertifikat – mahsulot yetkazib berish shartnomasini tuzishda asosiy omillardan biri bo'lib, G'arb ekspertlarining fikricha, yaqin kelajakda Yevropa bozorlarida 95% gacha shartnomalar mahsulot yetkazib beruvchi firmada sifat tizimi sertifikati bo'lgandagina tuzilishi ko'zda tutilmoqda. Sifatsiz mahsulot bilan bog'liq bo'lgan sud da'volari vujudga kelganda, tizim sertifikati sud tumonidan firma aybsizligining isboti sifatida baholanadi. Sifat tizimiga sertifikatning mavjudligi turli xil tenderlarda ishtirok etish uchun zaruriy shart hisoblanadi. Sifat tizimini sertifikatlashtirish firmaning (korxonaning) ichki ishlariga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi: sifat tizimini sertifikatlashtirishga tayyorgarlik jarayonida ishlab chiqish va korxonani boshqarishni tartibga solib bozor iqtisodiyotiga mos kelishi uchun zamin yaratiladi, mahsulotni sertifikatlashtirish ishlari yengillashadi.

Sertifikatlashtirilgan sifat tizimi korxonaning kerakli mahsulotni bir tekisda ishlab chiqarish qobiliyatini xarakterlaydi va buni firmaning ham ichki, ham tashqi bozorlarda raqobatbardoshligining muhim omili deb qarash mumkin. Endilikda o'z mahsulotlarini eksport qilishni rejalashtirgan mahalliy korxonalar uchun sifat tizimini sertifikatlashtirish – shartnoma tuzish va mahsulotni munosib sotish imkoniyatlarini belgilovchi muhim shart hisoblanadigan alohida bir atmosfera vujudga kelmoqda. Hozirgi vaqtda shunday muammoga duch kelgan korxonalar kam

emas. Achinarlisi shuki, chet el strukturalari bilan shartnomalar tuzish borasidagi muzokaralarda, sifat tizimiga sertifikatning mavjud emasligi shartnoma tuzmoqchi bo'lgan korxona uchun ko'zlangan imkoniyat doirasida qoniqarli bo'lmagan holda yakunlanishi mumkin.

Menejment tizimi (MT)ni sertifikatlashtirish, shuningdek, sifat menejmenti tizimini O'z DSt 5.6 (ISO/MEK 62) talablariga muvofiq O'zbekiston Respublikasi sertifikatlashtirish milliy tizimida akkreditlangan idoralar o'tkazadi. Har bir akkreditlangan sertifikatlashtirish idoralari, akkreditlashtirish idorasi tasdiqlagan faoliyati bo'yicha sertifikatlashtirish ro'yxati, ushbu idora uchun ruxsat etilgan akkreditatsiya sohasi mavjud. Faoliyat sohasining umumiy ro'yxati, ya'ni Xalqaro akkreditlashtirish bo'yicha forum IAF GD 2:2005 «ISO/MEK 62:1996 qo'llash bo'yicha tavsiyalar»da aniqlangan.

Menejment tizimi sohasida sertifikatlashtirish tadbiri bo'yicha, qaror qabul qiluvchi auditorlar malakasi O'z DSt ISO 19011 yoki O'z RH 51-014 ga muvofiq tasdiqlangan bo'lishlari lozim va ular O'z RH 51-21 bo'yicha davlat reyestrda ro'yxatga olingan bo'lishlari shart.

Menejment tizimi sertifikatlashtirish «O'zstandart» agentligi tasdiqlagan menejment tizimlarini sertifikatlashtirish qoidalari va O'z DSt ISO 19011 hisobga olib menejment tizimlarini sertifikatlashtirish bo'yicha idoralar ishlab chiqqan tadbir hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi. Audit uchun zaruriy qo'shimcha talablar, O'z DSt ISO 9001, ISO 14001, OHSAS 18001 va boshqalarda aniqlangan.

Sertifikatlashtirish bo'yicha idora, uning auditorlari va barcha mutaxassislari, shuningdek, auditorlik guruhi ishida qatnashishga jalb qilingan subpudratchilar tashkilot-arizachi auditi jarayonida olingan barcha ma'lumotlar maxfiyligiga rioya etishi va mustaqil, layoqatli bo'lishi shart.

Menejment tizimini sertifikatlashtirish auditi jarayoni quyidagi bosqichlardan iborat:

- tekshirilayotgan tashkilot bilan boshlang‘ich bog‘lanishni o‘rnatish;
- sertifikatlashtirishga arizani berish va ko‘rib chiqish;
- ariza bo‘yicha qaror qabul qilish;
- tashkilot hujjatlarini tahlil qilish;
- dastlabki audit (dastlabki audit o‘tkazish joyiga kelib ko‘rish);
- sertifikatlashtirishni o‘tkazishga tayyorlash (joyida audit);
- sertifikatlashtirish auditi (joyida audit);
- kuzatishda olinganlarni tahlil qilish va audit natijalari bo‘yicha xulosa tayyorlash, ro‘yxatga olish va muvofiqlik sertifikatini berish;
- sertifikatlashtirilgan muvofiqlik sertifikati amal qilish muddati davomidagi inspeksion nazorat.

Sertifikatlashtirish idorasi bog‘lanishni o‘rnatishda arizachiga o‘zining akkreditatsiya sohasi, sertifikatlashtirish tadbiri, ariza shakli va yuridik manzillari haqida to‘liq ma’lumotlarni taqdim qiladi. Bunda kelgusida sertifikatlashtirish tadbirlari uchun zururiy bog‘lanuvchi shaxs, tashkilot manzili, telefon, menejment tizimining qo‘llanish sohasi, tashkilotning boshqa ma’lumotlari aniqlanib, belgilanadi.

Menejment tizimini sertifikatlashtirishga talabgor tashkilot, milliy tizimda akkreditlangan Menejment tizimini sertifikatlashtirish bo‘yicha idoraga ariza jo‘natadi. Ariza bo‘yicha ijobiy qaror bo‘lsa, arizachi-tashkilot sertifikatlashtirish bo‘yicha idoraga sifat qo‘llanmasi, majburiy hujjatlashtirilgan tadbirlar, asosiy jarayonlar bo‘yicha hujjatlar va sertifikatlashtirish bo‘yicha idora so‘rovi yoki arizachi-tashkilot qiziqishi bo‘yicha boshqa hujjatlarni taqdim qilishi lozim.

Sertifikatlashtirish bo'yicha idoraga taqdim qilingan arizada Menejment tizimining qo'llanish sohasini va sertifikatlashtirish sohalari o'zining akkreditlash sohasi bilan muvofiqligini aniqlab, aniq va ravshan tasdiqlashi lozim.

Tekshirilayotgan tashkilot hujjatlarni tahlil qilishni audit mezonlariga muvofiqligini aniqlash maqsadida o'tkazadi. Tahlil qilishda tashkilotning faoliyati turlari, o'lchami va murakkabligi hamda audit o'tkazish sohasi va maqsadlari hisobga olinishi lozim.

Buyurtmachining talabi bo'yicha, maxfiylikka rioya qilish maqsadida, hujjatlar tahlili buyurtmachi auditi o'tkazilgungacha joyida o'tkazilishi mumkin.

Alohida holatlarda, agarda audit o'tkazish natijalariga zarar keltirmasa, hujjatlar tahlili audit o'tkazish davomida joyida o'tkazilishi mumkin.

Hujjatlar tahlilini Sertifikatlashtirish idorasi Menejment tizimini sertifikatlashtirish bo'yicha idora rahbari yoki auditorlar guruhi rahbari tayinlagan xodimlar amalga oshiradilar.

Dastlabki audit buyurtmachi tashkilotda zaruriyat tug'ilganda, masalan, auditni rejalashtirishda zaruriy ma'lumotlarni olish uchun yoki agarda hujjatlar tahlili natijalari jiddiy nomuvofiqliklar mavjudligini ko'rsatsa, sertifikatlashtirish auditini o'tkazish imkoniyati to'g'risida xulosa qilib bo'lmasa o'tkaziladi. Dastlabki audit korxonani sertifikatlashtirish auditga tayyorligini tekshirish uchun buyurtmachining xohishi bo'yicha ham o'tkazilishi mumkin.

Hujjatlar tahlili dastlabki audit natijalari ijobiy bo'lsa, auditorlar guruhi belgilanadi. Komissiya tarkibiga malakaga ega bo'lgan va sertifikatlashtirish bo'yicha idoraning akkreditlashtirish sohasiga muvofiq auditorlar va zaruriyat tug'ilgan holatlarda ekspertlar kiritiladi.

Auditorlar guruhi rahbari sertifikatlashtirish auditining rejasini ishlab chiqadi va tekshirilayotgan tashkilot bilan oldindan kelishib oladi. Guruh rahbari komissiya a'zolarini tekshirish obyektlariga taqsimlaydi, ular oldindan audit uchun savolnoma tayyorlaydilar.

Xalqaro akkreditlashtirish forumi IAF GD 2:2005 «ISO/MEK 62:1996 qo'llash bo'yicha tavsiyalar»da ko'rsatilgan, ya'ni ekspert-auditorlar ish kuni miqdori bo'yicha audit hajmi aniqlanadi.

Sertifikatlashtirish auditi quyidagi tartibda o'tkaziladi:

- kirish yig'ilishi;
- joyida audit: xodimlar, bo'linmalar yoki jarayonlarning ishchi holatdaligini (ish joyida, suhbatlashish, faoliyatini kuzatish) faoliyatini tekshirish;
- oraliq yig'ilish (zaruriyat bo'lganda);
- xulosalovchi (yakuniy) yig'ilish;
- sertifikatlashtirish auditi to'g'risidagi xulosani tayyorlash va taqdim etish.

Menejment tizimi auditini o'tkazish texnologiyasi quyidagi jarayonlarni o'z ichiga oladi:

- mavjud hujjatlarni tekshirish;
- hujjatlarni boshqaruvchanligiga standartlarda o'rnatilganlarga muvofiqligi va ichki talablariga tekshirish;
- menejment tizimi hujjatlari talablarining xodimlar tomonidan bajarilishini tekshirish;
- o'rnatilgan shaklda bayonnomalarga nomuvofiqliklarni va auditorlar hisobotlarining Menejment tizimiga muvofiq dalillarini qayd etish.

Auditorlar guruhi rahbari audit kuzatuvida olinganlarga asosan audit haqida hisobot tayyorlaydi. Hisobot O'z DSt ISO 19011 talabiga muvofiq tayyorlanib, arizachiga kelishilgan muddatda berilishi lozim.

Yakuniy yig'ilishda auditorlik guruhi audit natijalari, shuningdek, aniqlangan nomuvofiqliklar va kelgusida sertifikatlashtirish bo'yicha idora va arizachi o'rtasidagi o'zaro faoliyatlar to'g'risida ma'lumot beradi.

Sertifikatlashtirish barcha ro'yxatga olingan nomuvofiqlik bayonnomalari bartaraf qilinmasdan va sertifikatlashtirish bo'yicha idora auditorlari (tashkilotlarning qatnashishi yoki boshqa yo'l bilan) to'g'rilovchi amallarni tekshirmasdan oldin tugatilishi mumkin emas.

Auditorlik guruhi qaror qabul qilish uchun audit mezonlariga muvofiq audit davomida yig'ilgan boshqa ma'lumotlarni va audit kuzatuvini tahlil qiladi va bu to'g'risida xulosa tayyorlaydi.

Arizachi-tashkilotga sertifikatni berish yoki bekor qilish to'g'risidagi qarorni sertifikatlashtirish idorasi, sertifikatlashtirish jarayonida yig'ilgan ma'lumotlar va sertifikatlashtirish faoliyatiga taalluqli, ixtiyoriy boshqa ma'lumotlar asosida qabul qiladi. Auditga qatnashishga qabul qilingan xodim, sertifikatlashtirish bo'yicha qarorni qabul qilishda qatnashishi shart emas.

Sertifikatlashtirish bo'yicha idora ijobiy xulosa bo'lgan holatda O'z RH 51-021 ga muvofiq davlat reyestri tizimiga kiritish va ro'yxatga olish uchun sertifikatlashtirish milliy idorasiga taqdim etadi va o'rnatilgan shaklda sertifikatni rasmiylashtiradi. Sertifikatlashtirish idorasi ro'yxatga olganidan so'ng arizachiga sertifikat bilan birga muvofiqlik belgisini qo'llash va inspeksion nazoratni o'tkazish shartnomalarini beradi.

Qayta sertifikatlashtirish sertifikat berilganidan so'ng uch yil o'tganidan keyin o'tkaziladi. Bunda qayta sertifikatlashtirishga arizani sertifikatlashtirish bo'yicha idorasiga sertifikat muddati tugamasdan oldin berish tavsiya etiladi. O'tkazilgan inspeksion nazoratlar bo'yicha ma'lumotlarni hisobga olgan holda qayta sertifikatlashtirish auditi hajmi (auditor ish kuni miqdori)

dastlabki baholash hajmi (hujjatlar tahlili va sertifikatlashtirish auditi)dan uchdan birga qisqartirilishi mumkin.

Muvofiqlik sertifikati va belgisidan foydalanish

Sertifikatlashtirish bo'yicha idora muvofiqlik sertifikati va belgisidan foydalanishni nazorat qiladi. Agar sertifikatlashtirish bo'yicha idora Menejment tizimi sertifikatlanganligini namoyish qilish uchun muvofiqlik belgisidan foydalanish huquqini taqdim qilsa, tashkilot faqat shu shaklda sertifikatlashtirish bo'yicha idoraning rasmiy xati shaklida ruxsati bilan belgini qo'llashi mumkin. Bu belgi mahsulotga yoki uni mahsulotning muvofiqlik belgisi sifatida talqin qilinib qo'yilishiga ruxsat etilmaydi. Muvofiqlikni tasdiqlash belgisini qo'llash qoidalari O'z DSt 5.8 da, uning o'lchami va shakli O'z DSt 1.19 ga asosan aniqlanadi.

Menejment tizimi sertifikatlashtirish bo'yicha idora arizachi tomonidan muvofiqlik belgisi yoki sertifikat noto'g'ri qo'llanilgan holatlarida to'g'rilovchi chora-tadbirlarni qabul qilish uchun hujjatlashtirilgan tadbirini qo'llaydi. Sertifikatlashtirish bo'yicha idora o'rnatilgan tadbir bo'yicha sertifikatlashtirish hujjatlarining hisobi va saqlanishini ta'minlaydi.

Sertifikatlashtirish bo'yicha idora auditorlari, barcha xodimlari va auditorlik komissiya ishiga jalb qilinganlar sertifikatlashtirish jarayonida olingan barcha ma'lumotlarning maxfiyligiga rioya qiladilar.

5.3. Ixtiyoriy va majburiy sertifikatlashtirish

«Sertifikatlashtirish» tushunchasi birinchi marta Xalqaro standartlashtirish tashkiloti Kengashining sertifikatlashtirish masalalari bo'yicha maxsus qo'mitasi tomonidan ishlab chiqilib, bu muhim tushuncha «Standartlashtirish, sertifikatlashtirish va

sinov laboratoriyalarining akkreditlash sohasidagi asosiy atamaları va ularning qoidaları» qo'llanmasiga kiritilgan.

Qayta ishlangan Xalqaro standartlashtirish tashkilotining qo'llanmasida «sertifikatlashtirish» atamasining izohlari berilgan:

Sertifikatlashtirish umumiy atama bo'lib, mahsulot, texnologik jarayon va xizmatlarning sertifikatlashtirishda (muvofiglikni tasdiqlashda) uchinchi tomonning qatnashishi va unga xolisona baho berishi tushuniladi. Sifat tizimini baholash sohasidagi taraqqiyot sifat tizimini sertifikatlashtirish (tashkilotning sifatli mahsulot ishlab chiqarish imkoniyatlarini sertifikatlashtirish) bo'yicha yangi dolzarb yo'nalishni keltirib chiqardiki, ushbu yo'nalish bugungi kunda keng qo'llanilib, bozor iqtisodiyotidagi raqobatbardoshlik, o'zaro savdo-sotiqning samarasi va istiqbollilik darajalarini belgilab beradigan omillardan asosiysi sifatida sahnaga chiqmoqda.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so'ng sertifikatlashtirish sohasida juda katta ishlar amalga oshirildi va hozirgi kunda ham bu sohaning rivojlanishi, xalqaro miqyosda tan olinishi ustida «O'zstandart» agentligi tomonidan katta e'tibor berilmoqda. Binobarin, 1992-yil mustaqillikning ilk yillaridayoq Vazirlar Mahkamasi huzurida standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish Davlat markazi («O'zdavstandart») va keyinchalik, 2002-yilda ushbu sohani yanada rivojlantirish va takomillashtirish maqsadida mustaqil «O'zstandart» agentligi tashkilotiga aylantirilishini Hukumatimiz tomonidan bu sohaga berilayotgan ahamiyatning mahsuli sifatida qarash mumkin. Davlatimiz tomonidan sertifikatlashtirish ishlarini tashkillashtirish, uni tartibga tushirish va bu sohaning qonuniy asosini yaratish maqsadida 1993-yil «Mahsulot va xizmatlarni sertifikatlashtirish to'g'risida»gi Qonunning qabul qilinishi, buning natijasida ishlab chiqarilayotgan va chetdan olib kirilayotgan mahsulotlarning

xavfsizligi to'g'risida Qarorning qabul qilinishi, uni amalga oshirish maqsadida qator chora-tadbirlarning ishlab chiqilishi ham aytib o'tilgan so'zlarning yaqqol misolidir.

Har qanday faoliyat yoki yo'nalish nima maqsadni ko'zlashidan qat'i nazar, albatta, qonunlashtirilishi, tartibga tushirilishi, faoliyati esa ma'lum me'yoriy hujjatlar asosida olib borilishi talab etiladi. Xuddi shuningdek, sertifikatlashtirish faoliyati ham bundan mustasno emas.

Sertifikatlashtirish ikki xil bo'ladi: *majburiy* va *ixtiyoriy*. Mahsulotning u yoki bu sertifikatlashtirishga oidligi, uni tashqi muhitga, inson salomatligiga ta'siri asosiy mezon hisoblanadi. Ana shuning uchun tashqi muhitga, inson salomatligiga ta'sir ko'rsatuvchi mahsulotlar, albatta, majburiy sertifikatlashtirishga mansub bo'ladi, qolgan mahsulotlar esa sertifikatlashtirilishi ixtiyoriydir.

Majburiy sertifikatlashtirish deganda sertifikatlashtirish huquqiga ega bo'lgan idora tomonidan mahsulot, jarayon, xizmatning standartlardagi majburiy talablarga muvofiqligini tasdiqlash tushuniladi.

Ixtiyoriy sertifikatlashtirish deganda ishlab chiqaruvchi (bajaruvchi), sotuvchi (ta'minlovchi) yoki iste'molchi tashabbusi bilan ixtiyoriy ravishda o'tkaziladigan sertifikatlashtirish tushuniladi.

Sertifikatlashtirish (muvofiqlikni sertifikatlashtirish) mahsulotni, texnologik jarayon yoki xizmatlarni sertifikatlashtirishda uchinchi tomon qatnashishini nazarda tutadigan umumiy atamadir (birinchi tomon – ishlab chiqaruvchi, ikkinchi tomon – iste'molchi).

ISO tomonidan muvofiqlikning uch turi joriy qilingan:

- *muvofiqlik to'g'risida bayonot;*
- *muvofiqlikni attestatsiyalash;*
- *muvofiqlikni sertifikatlashtirish.*

Muvofiqlik to'g'risida bayonot

Bu yetkazib beruvchi (ishlab chiqaruvchi) sertifikatlashtirish tizimidan tashqari o'z zimmasiga to'la javobgarlikni olib, mahsulot, texnologik jarayon yoki xizmat ma'lum andoza yoxud boshqa me'yoriy-texnikaviy hujjatga mosligi haqida bayonotdir. Bu atama o'z-o'zini sertifikatlashtirish atamasi o'rnini bosadi.

O'z-o'zini sertifikatlashtirish

O'z-o'zini sertifikatlashtirish g'oyasi qadimdan ma'lum, masalan, ishlab chiqaruvchi tomonidan mahsulotni tamg'alash tovar yuqori sifatining tasdig'i bo'lgan. Lekin muvofiqlik haqida bayonot yetkazib beruvchi (ishlab chiqaruvchi)ning hech kanday yuridik, ma'muriy yoki iqtisodiy javobgarligini nazarda tutmaydi. Faqat ayrim mamlakatlarning qonunchiligi mahsulot yetkazib beruvchilar ular chiqaradigan mahsulot haqida ishonchli ma'lumot berishini majbur qiladigan qoidalarni nazarda tutadi.

Muvofiqlikni attestatsiyalash

Muvofiqlikni attestatsiyalash – bu uchinchi tomon sinov laboratoriyasi mahsulotning namunasi ma'lum andozalar yoki boshqa me'yoriy-texnikaviy hujjat talablariga muvofiqligi haqida bayonotdir. Bu holda turkumli chiqarilayotgan mahsulot sifati baholanmaydi. Gap sinov uchun taqdim etilgan mahsulot namunasi muvofiqligi haqida ketmoqda. Bu sinovlar sertifikatlashtirish tizimi doirasidan tashqari amalga oshiriladi.

Muvofiqlikni sertifikatlashtirish

Muvofiqlikni sertifikatlashtirish – bu uchinchi tomonning adekvat (to'la muvofiqlik) ishonchlilik darajasi bilan mahsulot, texnologik jarayon yoki xizmat andozaning ma'lum talablariga yoki boshqa me'yoriy-texnikaviy hujjatga muvofiqligining kafolatidir.

Shunday qilib, muvofiqlikni sertifikatlashtirish uchinchi tomondan kafolatlanadi va faqat tashkiliy tizim doirasida joriy qilingan qoidalarga binoan amalga oshirilsa, tan olinadi. Bunda uchinchi tomon seriyali chiqarilayotgan mahsulotning andoza talablariga mutlaqo muvofiqligini emas, balki ishonchlilikning adekvat darajasi bilan muvofiqligini kafolatlaydi. Mazkur ishonchlilik darajasi mahsulot sifati joriy qilingan talablarga muvofiqligini ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar hajmiga qarab har xil bo'lishi mumkin. Ishonchlilik darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, mahsulot sifatini ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar hajmi shunchalik katta, demak, tannarxi ham shunchalik yuqori bo'ladi. Lekin mahsulot sifati andozalar talablariga muvofiqligi darajasi ishonchliligi qanchalik kam bo'lsa, undan foydalanishda qilinadigan xarajatlar shunchalik kattadir. Shak-shubhasiz mahsulot sifati va undan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan jamg'arma xarajatlarning minimal miqdori mahsulot andozalar talablariga muvofiqligi ishonchlilik darajasi talab qilgan maqbul miqdorni aniqlaydi.

Muvofiqlikni sertifikatlashtirish o'z qoida va tadbirlariga ega sertifikatlashtirish tizimi doirasida o'tkaziladi. Tizim doirasida sertifikatlashtirish yagona qoidalar bo'yicha o'tkazilishi kerak. Sertifikatlashtirish tizimlari uch sathda yaratilishi mumkin: milliy, mintaqaviy va xalqaro.

Sertifikatlashtirish shakli

Sertifikatlashtirish shakli degan tushuncha mavjud, u bir andozalar va qoidalardan tarqalgan aniq mahsulot, texnologik jarayon yoki xizmatga taalluqli sertifikatlashtirish tizimidir.

Mahsulot sifatining andoza talablariga muvofiqligi muvofiqlik sertifikati va muvofiqlik belgisi bilan tasdiqlanadi.

Muvofiqlik sertifikati – bu sertifikatlashtirish tizimi qoidalariga binoan berilgan va mazkur mahsulot texnologik jarayon yoki

xizmat ma'lum andoza yoki boshqa hujjatlar bilan muvofiqligini tasdiqlaydigan hujjatdir.

Muvofiqlik (sertifikatlashtirish) belgisi – qonun tomonidan himoya qilinadigan, sertifikatlashtirish tizimida qabul qilingan qonun-qoidalarga muvofiq qo'llanadi va mazkur mahsulot, texnologik jarayon yoki xizmat ma'lum andoza yoxud boshqa hujjatlar bilan muvofiqligini ko'rsatadigan belgidir.

Muvofiqlik sertifikat va belgisi shakli ham, mazmuni bo'yicha ham sertifikatlashtirish tizimi tomonidan joriy qilingan talablarga javob berishi kerak. Ular amaldagi tartibga binoan beriladi yoki qo'yiladi.

Aytib o'tish kerakki, sertifikatlashtirish iste'molchiga faqat mahsulot andozalar talablariga to'la muvofiq ishlab chiqarilganligini kafolatlaydi. Lekin u mahsulotning jahon miqyosida erishilgan yuqori texnikaviy darajaga mosligini kafolatlamaydi.

Ekologik sertifikatlash – bu mohiyatan barcha yuridik va jismoniy shaxslar xo'jalik faoliyatining mantiqiy yakuni bo'lib, ularga rasmiy hujjat – ekologik sertifikat beriladi.

Mahsulot uchun ekologik sertifikat, agar MXlardagi ko'rsatilgan ekologik xavfsizlik va atrof-muhit muhofazasi bo'yicha talablariga mos kelganida tan olinadi. O'zbekiston Respublikasi MXlarida ekologik sertifikatlashtirish uchun, zaruriy qo'shimcha talablar bo'lganida yoki shartnomada bu haqida aytilgan bo'lsa, mahsulotning ushbu qo'shimcha talablarga mos kelishining sinovlari o'tkazilishi kerak.

Ekologik sertifikatlashtirish natijalaridan norozi taraf ESIga, Markaziy ekologik sertifikatlashtirish idorasiga, «O'zstandart» agentligining Apellatsiya kengashiga va bevosita sudga apellatsiya bilan murojaat qilish huquqiga ega.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining mutaxassis-texnologlari standartlashtirishdan muvaffaqiyatli va to'liq foydalanish uchun

agrosanoat majmuyi barcha tarmoqlaridagi standartlar talablarini yaxshi bilishlari lozim bo‘ladi.

Ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning eksport salohiyatini oshirib borish natijasida uning ishlab chiqarish darajasining yaxshilanishiga olib keladi. Mahsulot sifatidan davlatning texnik takomillashgani va rivojlanganligiga baho bersa bo‘ladi.

Respublikada iqtisodni rivojlantirishning asosiy shartlaridan biri mahsulot sifatini tizimli ravishda oshirib borishdir. Mahsulot sifatini oshirish, assortimentlarini kengaytirish va iste‘molchilar talabini qondirish hozirgi bozor iqtisodiyotining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Mahsulot sifat darajasini ta‘minlash uchun standartlar va texnik shartlarning me‘yoriy talablariga bog‘liq holda tizimli nazorat ishlarini olib borish lozimdir.

5.4. Sertifikatlashtirish to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik

O‘zbekiston Respublikasida sertifikatlashtirish bo‘yicha barcha ishlar O‘zbekiston Respublikasining «Mahsulot va xizmatlarni sertifikatlashtirish to‘g‘risida»gi Qonuniga muvofiq amalga oshiriladi.

Mazkur qonun 4 bob, 23 moddadan iborat bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasida mahsulotlar, xizmatlar va boshqa obyektlarni sertifikatlashtirishning huquqiy, iqtisodiy va tashkiliy asoslarini, shuningdek, sertifikatlashtirish ishtirokchilarining huquqlari, majburiyatlari va javobgarligini belgilab beradi.

Qonunning 1-bobi 1-moddasida sertifikatlashtirish bo‘yicha asosiy tushunchalarga alohida ahamiyat berilgan, shuningdek, qonunda O‘zbekiston Respublikasida sertifikatlashtirish organlari, ularning faoliyati, sertifikatlashtirish obyektlari va subyektlari, sertifikatlashtirishni o‘tkazish shartlari to‘g‘risida ham ma’lumotlar keltirilgan.

Qonunning 2-bob 7-moddasida ko'rsatilishicha, mahsulotning belgilangan talablarga muvofiqligi tasdiqlangan taqdirda sertifikatlashtirish organi muvofiqlik sertifikati beradi. Tayyorlovchi ana shu sertifikat asosida muvofiqlik belgisini ishlatish huquqiga ega bo'lishi ta'kidlangan va albatta, muvofiqlik belgilari sertifikatlashtirish organlari va sinov laboratoriyalarining akkreditatsiya qilinganlik to'g'risidagi guvohnomalari «O'zstandart» agentligi tomonidan belgilangan tartibda Davlat reyestriddan o'tkazilishi alohida ko'rsatilgan.

Ma'lumki, sertifikatlashtirish ishlari davlat tomonidan moliyaviy ta'minlanadi.

Sertifikatlashtirish qoidalariga rioya etilishini davlat tomonidan tekshirish va nazorat qilish «O'zstandart» agentligining davlat inspektorlari tomonidan qonun hujjatlarida belgilab qo'yilgan tartibda amalga oshiriladi.

«Mahsulot va xizmatlarni sertifikatlashtirish to'g'risida»gi qonunda sertifikatlashtirish organlari va sinov laboratoriyalarining (markazlarning) javobgarligi haqida ham ma'lumotlar berilgan bo'lib, 4-bobning 22-moddasiga binoan sertifikatlashtirish organlari va sinov laboratoriyalari (markazlari) muvofiqlik sertifikatini asossiz va qonunga xilof ravishda berganligi uchun, sinov natijalari haqida noto'g'ri ma'lumot berganligi uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javobgarlikka tortiladilar.

Qonunda ko'rsatilgan tadbir va tartiblar, albatta, sertifikatlashtirish ishlarining yuqori saviyada o'tkazilishini ta'minlaydi.

Har bir sertifikatlashtirish tizimi o'zining sertifikatlashtirish idorasiga ega bo'lib, u hamma tashkiliy va rahbariy vazifalarni amalga oshiradi. Sertifikatlashtirish idorasi uchinchi tomonning hamma ishlarini bajarishi lozim. Sertifikatlashtirish idorasining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- Tizim doirasida sertifikatlashtirishni o'tkazish tartibini ishlab chiqish;

- Attestatlash va sertifikatlashtirish sinovlarini o'tkazish uchun sinov laboratoriyasi tarkibidagi ishonchli vakillarining ro'yxatini tuzish va boshqarish;

- Korxona-tayyorlovchilarning mahsulot sifatini ta'minlovchi tizimini baholash;

- Sertifikatlashtirish tizimlariga korxonalarni ruxsat etish qarorini qabul qilish;

- Muvofiqlik sertifikatini berish va muvofiqlik belgisi bilan mahsulotni belgilash (tamg'alash) huquqiga ega bo'lgan holda litsenzion shartnoma tuzish;

- Sertifikatlashtiriluvchi mahsulotning ro'yxatini boshqarish;

- Sertifikatlashtirilgan mahsulotning sifati haqidagi ma'nolashuvini qurish.

Kimlar sertifikatlashtirish idorasi bo'la oladi? Sertifikatlashtirish idorasi vazifasini dunyo miqyosida obro'yi baland bo'lgan va tan olinuvchi xususiy tashkilotlar o'z mas'uliyatlariga olishlari mumkin. Shunday tashkilotlar qatoriga, masalan, Fransiya, Buyuk Britaniya, Amerika Qo'shma Shtatlaridagi sug'urta kompaniyalari kirishi mumkin. Bu holda, albatta, ular milliy akkreditlash tizimlarida akkreditatsiyadan o'tishlari maqsadga muvofiq.

Uchinchi tomon sertifikatlashtirish tizimining ajralmas qismi bo'lib, sinov laboratoriyalari xizmat qiladi. Ularning vazifalari sinovlar o'tkazish, bayonnomalarni rasmiylashtirish va sinov natijalarining haqqoniyligini ta'minlashdir.

Sertifikatlashtirish milliy idorasi o'zining ma'lum vazifalarini tizimda qatnashayotgan idoralarga berishi mumkin. Masalan, uning ruxsati bilan sinov laboratoriyalari korxona-tayyorlovchilarni attestatlashda qatnashish, sinov o'tkazishda namunalarni tanlab olish va boshqa vazifalarni olishi mumkin.

Nazorat idorasi, sertifikatlashtirish idorasining topshirig'iga binoan korxonalardagi sifatni ta'minlaydigan tizim ishini nazorat qilishi va shu maqsadlarda u o'zining shtatida tekshiruvchi-mutaxassislar tutishi mumkin. Bundan tashqari, ularning vazifasiga vaqti-vaqti bilan sinov laboratoriyalarida tekshiruvlar o'tkazishni nazorat qilish, ishonchli vakillar tomonidan sertifikatlashtiruvchi sinovlar olib borish kiradi.

Sertifikatlashtirish milliy tashkiloti sertifikatlashtirishning asosiy me'yoriy bazasi bo'lib, u standartlarni ishlab chiqishni ta'minlaydi. Va nihoyat, sertifikatlashtirishda qatnashuvchi zvenolardan biri metrologik xizmatdir. Bu bo'lim o'lchash vositalarini qonunlar asosida tekshirishni ta'minlaydi.

Yana bitta muhim tomonlaridan biri sertifikatlashtiriluvchi mahsulotning sifatini ta'minlashdagi mas'uliyatni sertifikatlashtirishda qatnashuvchi idoralar tomonidan to'g'ri taqsimlashdir. Bu masala mahsulotning sifatini ta'minlashda alohida ahamiyat kasb etib, u mahsulotdagi nuqsonlarning ko'rinishlarini to'rt turkumga bo'lish mumkin:

1. Me'yoriy hujjatlarning takomillashmaganligi uchun bo'ladigan nuqsonlar;

2. Me'yoriy hujjatlarning talablariga mahsulotning muvofiqligidan nuqsonlar;

3. Mahsulot tayyorlanganidan keyingi nuqsonlar, masalan, yomon joylashtirilganligi yoki noto'g'ri saqlanganligi tufayli;

4. Iste'molchining noto'g'ri ma'lumotga ega bo'lishi natijasida hosil bo'lgan nuqsonlar, masalan, uskuning vazifasi va uning ishlatish qoidalari nuqsonlar.

Ana shu nuqsonlarni tahlil qilish natijasida tizimda qatnashayotgan tomonlar javobgarlikni o'zaro taqsimlaydilar:

- tayyorlovchi (bajaruvchi, ta'minlovchi) sertifikatlashda nazorat qilayotgan va muvofiqlik belgisini to'g'ri ishlatishda

mahsulotning me'yoriy hujjatlar talablariga mosliligi uchun javobgar;

- sinov laboratoriyasi (markaziy) o'tkazilgan sertifikatlashtirish sinovlari me'yoriy hujjatlar talablariga mosligini va natijalarining to'g'riligi va haqqoniy ekanligi uchun javobgar;

- sertifikatlashtirish idorasi muvofiqlik sertifikati to'g'ri berilishi va uni qo'llanishining tasdig'i uchun javobgar.

Mahsulotning tarkibi yoki ishlab chiqarish texnologiyasi o'zgarsa, uning sifat ko'rsatkichlariga ta'sir etsa, u holda Sertifikatlash tashkilotiga zudlik bilan axborot berilishi kerak. Bu tashkilot, o'z navbatida, tajriba o'tkazish vositalariga o'zgartirishlar tavsiya etadi. Shunda ham talablarga mos kelmasa, muvofiqlik sertifikati bekor qilinadi.

Sertifikatlangan mahsulotning sifat ko'rsatkichlari barqarorligini tekshiruv nazorati shu mahsulotni ishlab chiqarish jarayoniga sertifikat bergan tashkilot tomonidan maxsus reja asosida amalga oshiriladi. Zarur hollarda betaraf mutaxassislarni tekshiruv nazoratiga jalb etish mumkin. Tekshiruv nazorati natijalariga ko'ra Sertifikatlash tashkiloti muvofiqlik sertifikati yoki muvofiqlik belgisini bekor qilishi yoki to'xtatib qo'yishi mumkin.

5.5. Nazorat va standartlashtirishda tovar yorliqlari va shtrixli kodlarining ahamiyati

Ba'zan biror mahsulot xarid qilganimizda, uning ko'rinarli joyida yoki etiketkasida har xil qalinlikdagi chiziqlar va raqamlar bilan belgilangan shakllarni ko'rishimiz mumkin. Ularga shtrix-kod nomi berilgan. Xo'sh, shtrix-kodlar nima va qachon paydo bo'lgan?

Shtrix-kodlarni mahsulotlarga nisbatan tatbiq etish g'oyasi ilk bora XX asrning 30-yillarida AQSHning Garvard biznes maktabida yaratilgan bo'lib, undan amalda foydalanish bir

necha o'n yillardan so'nggina, ya'ni 60-yillardan boshlangan. Shtrix-kodlarni dastlabki qo'llovchilar temiryo'lchilar bo'lib, shu usul orqali temiryo'l vagonlari identifikatsiyalashtirilgan. Mikroprotsessor texnikasining gurkirab rivojlanishi 70-yillardan boshlab shtrix-kodlardan keng ravishda foydalanish imkonini yaratdi. 1973-yil AQSHda Mahsulotning Universal Kodi (IPC) qabul qilinib, 1977-yildan boshlab esa Yevropa Kodlash Tizimi EAN (European Article Numbering) ta'sis etildi va hozirda undan nafaqat Yevropada, balki boshqa mintaqalarda ham keng ravishda foydalanilmoqda.

Shtrix-kod ketma-ket almashinib keluvchi qora (shtrix) va oq (probel) rangli, turli qalinlikdagi chiziqlardan iborat bo'lib, bu chiziqlarning o'lchamlari standartlashtirilgan. Shtrix-kodlar maxsus optik qurilmalar – skanerlar yordamida o'qishga mo'ljallangan. Uning vositasida, mikroprotsessorlar orqali shtrixlar raqamlarga dekoderlanib, mahsulot haqidagi ma'lumotlar kompyuterga uzatiladi.

Vazirlar Mahkamasining qaroriga binoan davlatimizda O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilayotgan tovarlarni shtrixli kodlash kirib kelgan. «GS1 International» (EAN Uzbekistan) (Belgiya, Brussel) xalqaro assotsiatsiyasi tomonidan bizning mamlakatimizga 478 raqamli identifikatlashtirish kodi berildi.

U bo'yicha bu tovar qayerda ishlab chiqarilganligini aniqlash mumkin. Mamlakat kodidan keyingi raqamlar tovarni ishlab chiqarayotgan yoki realizatsiya qilayotgan korxonani belgilaydi. Keyingi beshta raqamlar bilan mahsulotning iste'molchilik xossalari, o'lchami, massasi, tarkibi, shakli, o'ramining ko'rinishi va boshqa ma'lumotlar shifrlab qo'yilgan.

Bu raqamlar qatoriga muvofiq kompyuter yordamida shtrixli kod shakllantiriladi. Oxirgi 13-raqam tekshirish uchun va barcha kiritilgan axborotning shtrixli kodini skaner bilan o'qilishi

to'g'riligini tekshirish uchun ishlatiladi. Shtrixli kodga o'zgarib turuvchi, masalan, sifati va bahosi haqidagi ko'rsatkichlar kiritilmaydi.

Har bir tovar ishlab chiqaruvchi bizda tashkil etilgan «GSI International» (EAN Uzbekistan) tovarlar va xizmatlarni avtomatik identifikatlashtirish Markazida ro'yxatga olinadi.

Shtrixli kodlash texnologiyasini joriy etishning iqtisodiy samarasi aylanma mablag'lar harakatini tezlashtirish, tovar zaxiralarini boshqarish tezkorligini ta'minlash, omborxonalarda saqlash xarajatlarini kamaytirishdan tashkil topadi.

Shtrixli kodning borligi psixologik ahamiyatga ham ega, xaridor, albatta, «zebra» belgili tovarni tanlaydi. Lekin shtrixli kod shaxsan iste'molchi uchun axborotga ega emasligini ta'kidlash kerak. Ammo o'z hurmatini bilgan ishlab chiqaruvchi o'zining obro'si uchun yagona ma'lumotlar bazasiga ma'lumotlar berib, albatta, tovarlar va o'zi haqida umumiy ma'lumotlarini bildiradi. Bu ma'lumotlarni soxtalashtirish mumkin emas. Garchi ayrimlar intilsa ham, natijada ular bozorda aks reklamaga ega bo'ladilar, bu esa chiqimlarga olib keladi.

Tizimni O'zbekistonda joriy etish respublikaning dunyo bozoriga faol chiqishi bilan bog'liqdir. Dunyo bozorida raqobat keskindir va unda muvaffaqiyatli qatnashish uchun to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilishda menejerga yordam beradigan axborotga ega bo'lish kerak. Endi bizning tijorat tashkilotlarimizga bevosita O'zbekistonda u yoki bu tovarni ishlab chiqaruvchi xorijiy korxonalar to'g'risida ishonchli axborotni olish imkoniyati paydo bo'lmoqda. Xorijiy tijoratchilarning so'rovi bo'yicha ham O'zbekiston korxonalari to'g'risidagi o'xshash axborotlarni berish mumkin. Ya'ni shtrixli kod ishchan sherikchilikni yengillashtiradigan tashrif kartochkasidir.

Tovarlarni raqamlash bilan mashg'ul bo'lgan qator xorijiy tashkilotlar bilan kelishilgan holda ma'lumotlar banklarini

ayirboshlash rejalashtirilmoqda, bu esa O‘zbekiston tovarlarini import qilishni mo‘ljallagan mamlakatlarda bizning korxonalar uchun mahsulotlarning manzilli reklamasini ta‘minlaydi. Bunday xizmatlar dunyo bozorida keng qo‘llaniladi.

Bu muhim ishga «O‘zstandart» bo‘linmalaridan tashqari Tashqi iqtisodiy aloqalar vazirligi (TIAV), Respublika tovarlar ishlab chiqaruvchilari va tadbirkorlari palatasi jalb qilingan. Natijada tovarni bojxonadan olib o‘tish uchun TIAVda shartnomani ro‘yxatdan o‘tkazishda shtrixli kodning borligi talab qilinadigan tartib joriy qilinadi. Ichki bozorda ham ko‘p ishlarni bajarish lozim bo‘ladi. Xususan, shtrixli kodlarni o‘qib oladigan kassa apparatlari joriy qilingan. Bundan bir necha yil ilgari bizda faqat ikkita shunday supermarketlar mavjud bo‘lgan bo‘lsa, hozirgi kunda ularning soni aytish juda ko‘p. Chunki zamonaviy do‘konlarning barchasida shtrix-kodlarni o‘qiydigan kassa apparatlari va shtrix-kod chop etuvchi elektron tarozilar to‘liq joriy etib bo‘lingan desak, mubolag‘a bo‘lmaydi.

Vaqt o‘tishi bilan savdo korxonalarining texnik jihozlanishi bilan faqat eksport qilish uchun mo‘ljallangan tovarlarni emas, balki ichki bozor uchun mo‘ljallangan tovarlarni ham shtrixli kodlar bilan markalash zarurati kelib chiqadi. «O‘zstandart»da O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq, shtrixli kodlash tizimini qo‘llash tartibini aniq belgilaydigan me‘yoriy hujjatlar va usuliyatli materiallar ishlab chiqildi. Shtrixli kodlash bo‘yicha uchta asosiy davlat standartlari tasdiqlandi, shtrixli kodning to‘g‘ri ishlatilishi ustidan nazorat yo‘lga qo‘yilmoqda. Begona belgilashlarni o‘zlashtirish uchun jinoiy jazo beriladi.

Hozir ushbu to‘lqinda har xil «bosmaxonachilar» paydo bo‘lishi mumkinligini eslatib qo‘yish o‘rinli bo‘ladi. Shtrixli kodning asl nusxa maketi faqat «O‘zstandart»ning SMSITda amal qilayotgan shtrixli kodlash Markazida shakllanadi, tayyorlanadi va Davlat reyestrining kompyuterida ro‘yxatga

olinadi. Shunday qilib shtrixli kodlash lozim bo'lgan tovarlarning barcha tavsiflarini hisobga olib boradi. Bizning va xorijiy tadbirkorlar o'zlarining mahsulotlari realizatsiya qilinishi haqida to'la axborot oladi va uni sotib olishda tanlash imkoniyatiga ega bo'ladi.

Shtrixli kod bo'yicha me'yoriy hujjatlarni xalqaro talablar bilan uyg'unlashtirish bo'yicha tadqiqotlar olib borilmoqda, ushbu muhim sohada mutaxassislar tayyorlash bo'yicha kurslar amal qilmoqda.

Xullas, O'zbekiston tovarlarining raqobat qila olish imkonini oshirish, ularning tovarlarni raqamlash xalqaro tizimiga kirishi, iste'molchilar huquqlarini himoya qilish, «O'zbekistonda tayyorlangan» nomli markali mahsulot ishlab chiqarishning avtomatlashtirilgan hisobini ta'minlash uchun maqsadli ishlar olib borilmoqda.

Ko'pgina iqtisodiy rivojlangan davlatlarda mahsulotning o'ramida (upakovkasida) shtrix-kodning bo'lishi majburiy sanaladi. Aks holda savdo tashkilotlari mahsulotdan voz kechishlari mumkin. Bu xalqaro savdoga ham tegishlidir. Ushbu tizimning iqtisodiy jihatdan samaraliligi mahsulotning 85 foizidan ko'pi kodlashtirilganda yaqqol namoyon bo'ladi. Bundan tashqari, mahsulotga nisbatan bo'lgan talab va ehtiyojlarni shakllantirish, jamlash, hisobga olish, mahsulotning kelish-ketishini hisob qilib borish, munosiblik hisoblarida va hujjatlarni rasmiylashtirishda hamda mahsulotlarni saqlash va sotuvidagi nazoratlarni amalga oshirishda alohida o'rin tutadi.

EAN assotsiatsiyasi turli davlatlar uchun kodlar ishlab chiqqan bo'lib, ushbu kodlardan foydalanish uchun markazlashgan tarzda litsenziyalar tavsiya etadi. Masalan, Fransiya uchun davlat kodi sifatida 30–37, Italiya uchun 80–87 oraliqlari tavsiya etilgan. Ba'zi davlatlarning kodlari uch xonali sondan iborat. Masalan, Gretsiya – 520, Rossiya – 460, Braziliya – 789.

Asosan, EAN ning ikki kodidan ko'proq foydalaniladi: 13 razryadli va 8 razryadli raqamli kodlar. Bunda eng ingichka shtrix birlik sifatida olinadi. Har bir raqam (yoki razryad) ikki shtrix va ikki probeldan iborat bo'ladi. 13 razryadli kodning tarkibida quyidagi kodlar ko'rsatiladi:

- davlat kodi («davlat bayrog'i»);
- korxona (firma) – tayyorlovchi kodi;
- mahsulotning kodi;
- nazorat soni.

Tayyorlovchi korxonaning kodi har bir davlatda tegishli organlar tomonidan tuziladi. Odatda, bu kod beshta raqamdan iborat bo'lib, davlat kodidan keyin keladi.

Mahsulot kodi tayyorlovchi tomonidan tuziladi va u ham beshta raqamdan iborat bo'ladi. Bu kodning rasshifrovkasi standart emas, u mahsulotga taalluqli bo'lgan muayyan xususiyatlarni (belgilarni) yoki faqat tayyorlovchining o'zigagina ma'lum bo'lgan va shu mahsulotning qayd etish tartib raqamini ifodalashi ham mumkin.

EAN-8 kodi uzun kodlarni belgilab bo'lmaydigan kichik o'ramlar (upakovkalar) uchun mo'ljallangan. EAN-8 kodi quyidagi kodlar tartibidan iborat:


- davlat kodi («davlat bayrog'i»);
- korxona (firma) – tayyorlovchi kodi;
- nazorat soni.

Ba'zan, tayyorlovchi korxona kodining o'rniga mahsulotning qayd etish tartib raqami keltirilishi ham mumkin.


Raqamlar qatori skaner uchun emas, balki xaridorlar uchun mo'ljallangan. Talabgor (xaridor) uchun ma'lumot faqat mahsulot tayyorlangan davlatni bildirish bilan chegaralanadi, chunki davlat kodi maxsus nashrlarda va ma'lumotnomalarda keltirilib tura-di yoki ma'lumot bazalarida va banklarida saqlanishi mumkin. To'liq shtrixli kod tashqi savdo tashkilotlariga yoki savdo obyekt-

lariga mahsulotning aniq kelib chiqish rekvizitlarini bilish va kerak bo'lsa, mahsulotning kontrakt (shartnoma) talablariga mos kelmaydigan parametrlari va ko'rsatkichlari borasida aniq manzilga raddiya yoki norozilik bildirish imkoniyatini yaratadi.

Nazorat soni EAN algoritmi bo'yicha kodning skaner vositasida to'g'ri o'qilganligini tekshirish uchun xizmat qiladi.



13 razryadli EAN kodi



8 razryadli EAN kodi

O'zbekiston Respublikasida shtrix-kodlar tobora keng tatbiq etilib bormoqda. 1999-yili «O'zstandart» qoshidagi metrologiya, standartlashtirish va sertifikatlashtirish sohasidagi mutaxassislarni tayyorlash va malaka oshirish institutida shtrix-kodlash masalalari bilan shug'ullanuvchi markaz tashkil etildi. Ushbu markazning ta'sis etilishidan maqsad mahsulotlarni avtomatlashtirilgan tarzda identifikatsiyalash borasidagi muammolarni hal etish va bu faoliyatni keng ravishda targ'ib etishdir. Albatta, bunda xalqaro me'yoriy hujjatlarni hisobga olgan holda kodlashning standartlashtirilishi alohida ahamiyatga egadir.

Shtrixli kodlash ishlab chiqarish korxonalari uchun quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

– avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlarining tatbiq etilishini osonlashtiradi;

– ishlab chiqarish, mahsulotni saqlash va realizatsiya qilish kabi faoliyatlardagi hisob-kitob ishlarining samaradorligini oshiradi;

– resurslarni chuqur tahlil qilish imkoniyatini beradi;

– hujjatlar aylanishini qisqartiradi;

– mahsulotni realizatsiya qilish va harakati haqidagi ishonchli ma'lumotlarni muntazam ravishda yig'ishni yo'lga qo'yish mumkin;

– boshqaruv va nazorat organlariga tezkor ravishda mahsulot xususidagi ma'lumotlarni tavsiya etadi.

Biroq xaridor sotib olayotgan mahsulotining faqat tayyorlangan davlati borasidagi ma'lumotnigina emas, balki tegishli barcha ma'lumotlarni ham bilishni istaydi. Bu muammo ham vaqti kelib standartlashtirish yordamida hal etilishi mumkin. Buning uchun sertifikatlashtirish yo'li bilan tasdiqlanuvchi, standartlarning majburiy talablari ro'yxatini kengaytirish lozim bo'ladi.



NAZORAT SAVOLLARI

1. Sifat tizimini sirtdan baholash deganda nimani tushunasiz?
2. Sifat menejmenti tizimi haqida nimalarni bilasiz?
3. Ixtiyoriy sertifikatlashtirish deganda nimani tushunasiz?
4. Majburiy sertifikatlashtirish deganda nimani tushunasiz?
5. Shtrixli kodlashtirish nima uchun amalga oshiriladi?

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. *Karimov I.A.* Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. – T., 2009.
2. *Karimov I.A.* O'zbekiston – bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li. – T., 1994.
3. *Karimov I.A.* O'zbekiston iqtisodiy-siyosiy rivojlanishining asosiy yo'nalishlari. – T., 1995.
4. *Mirziyoyev Sh.M.* Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruza. 2017-yil 17-yanvar. – T.: «O'zbekiston», 2017.
5. *Берков В.И.* Технические измерения. – М.: Высшая школа, 1998.
6. *Гличева А.В.* Основы управления качеством продукции. – М., 2001.
7. *Купряков Е.* Стандартизация и качество промышленной продукции. – Киев, 1985.
8. *Лифиц И.* Основы стандартизации, метрологии и сертификации. – М., 2001.
9. *Ne'matov H.* Qishloq xo'jalik ekinlari urug'chiligi metrologiyasi standartlari. – T., 1995.
10. *Хахимов О.Ш.* Теоретическая метрология. Учебное пособие. – Т., 1996.
11. *Хилевин В.* Основы стандартизации в сельском хозяйстве. – М., 1989.
12. *Широков Е.П.* Технология хранения и переработки плодов и овощей с основами стандартизации. – М.: «Агропромиздат», 1988.

13. Шишкин И.Ф. Метрология, стандартизация и управление качеством. – М.: Издательство стандартов, 1990.
14. Чижикова Т.В. Стандартизация, сертификация и метрология. – М.: «Колос», 2003.
15. Цейтлин В.Г. Метрологическое обеспечение качества. – М.: Изд-во «Стандарт», 1988.
16. Bo'riyev X.Ch., Rizayev R. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini standartlash, metrologiya va sertifikatlash asoslari. – Т., 1999.
17. Кузнецов В.А. Ялунина Г.В. Основы метрологии. – М.: Изд-во стандартов, 1995.
18. Медведев А.М., Ряполов А.Ф. Международная стандартизация и сертификация продукции – М.: Изд-во «Стандарт», 1989.
19. Абдувалиев А., Авакян П. и др. Основы стандартизации, сертификации, метрологии и управления качеством продукции. – Т., 2002.
20. Швандар В.А. и др. Стандартизация и управление качеством продукции. – М.: ООО Изд-во «Юнити-ДАТА», 1999.
21. Филатов В.И. Баздурев М.Г. и др. Агробιοлогические основы производства, хранения и переработки продукции растениеводства. – М.: «Колос», 2003.
22. Peregudov L.V., Fayziyev R.R., Ismatullayev P.R., Saidov M.X., Obidov O.S. Mahsulot raqobatbardoshligi va sifatini boshqarish. – Т., 2002.
23. Абдувалиев А.А., Содиков А.Б. Нормативная основа обеспечения единства измерений в Узбекистане. – Журнал «Standart» №3, 2001.
24. Абдувалиев А.А., Авакян. П.Г. Метрологический контроль методик выполнения измерений. – Журнал «Standart» №2, 2001.
25. Авакян П.Г., Содиков. А.Б. Знаете ли вы законодательную метрологию. – Журнал «Standart» №3, 2001.
26. Авакян П.Г., Ким Л.П. Метрологическое обеспечение аналитического контроля в системе обеспечения единства измерений Республики Узбекистан. – Журнал «Standart» №1. 2002.

27. *Алимов М.Н.* Закон Республики Узбекистан «О Стандартизации в действии». – Журнал «Standart» №2, 2002.
28. *Воробьев О.В., Юнусов Б.Х.* Стандартизация и сертификация средств индивидуальной защиты». – Журнал «Standart» №3, 2002.
29. *Жебровский С.К.* Метрологическое обеспечение производства продукции и услуг на территории Республики Узбекистан. – Журнал «Standart», №4, 2002.
30. *Karimov A.K.* Davlat tilida ishlab chiqilayotgan atamashunoslik standartlarining va tarjima qilinayotgan me'yoriy hujjatlarning holati. «Standart» jurnali, 2001, №3.
31. *Максудов А.Н.* Развитие системы стандартизации Республики за годы независимости. – Журнал «Standart» №3, 2001.
32. *Мирагзамов М.М.* Проблемы стандартизации. «Анализ и разработка комплекса мер по выполнению условий присоединения Республики Узбекистан всемирной торговой организации». – Журнал «Standart» №1, 2001.
33. *Садиков А.* Единство измерений-важнейший объект законодательства Узбекистана. – Журнал «Standart» №1 2002.
34. Управление качеством продукции. Стандарты серии 9000, 1–2 тома. – Т., 1996.
35. «Standartlashtirish to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi qonuni 1993-yil 28-dekabr.
36. O'z Dst 1.0:1998 Государственная система стандартизации.
37. O'zRST 8.005-92. O'zR DO'T. Metrologik ta'minot. Asosiy qoidalar.
38. O'zRST 2-116-96. Mahsulot texnikaviy darajasi va sifati kartasi.
39. O'zRST 8.002-92. O'zR DO'T. Metrologik nazorat. Asosiy qoidalar.

Internet resurslar

1. [www. standart. uz](http://www.standart.uz)
2. [metrolog@.albatros.uz](mailto:metrolog@albatros.uz)
3. [www. uzstandart. gov.uz](http://www.uzstandart.gov.uz)
4. [www.bilimdon.uz.](http://www.bilimdon.uz)
5. [www. jahon.mfa.uz](http://www.jahon.mfa.uz)
6. [www. Smsiti.ilm.uz](http://www.Smsiti.ilm.uz)
7. [www. ISO.com](http://www.ISO.com)
8. [www. news.uzreport.com](http://www.news.uzreport.com)
9. [www. ura.uz](http://www.ura.uz)
10. [www. bir.uz](http://www.bir.uz)

MUNDARIJA

Kirish	3
--------------	---

I bob. STANDARTLASHTIRISH HAQIDA UMUMIY TUSHUNCHALAR

1.1. Standartlashtirishning asosiy maqsadlari	5
1.2. O‘zbekiston Respublikasida standartlashtirish davlat tizimi	10

II bob. STANDARTLASHTIRISHNING QONUNIY ASOSLARI VA NAZORAT QILISHNI TASHKILLASHTIRISH

2.1. O‘zbekistonda standartlashtirish sohasining rivojlanish tarixi	17
2.2. Standartlashtirishga doir me‘yoriy hujjatlar	19
2.3. Standartlar ustidan davlat nazorati organlari va obyektlari	22
2.4. Mahsulot sifati va raqobatbardoshligini aniqlash, me‘yoriy hujjatlarni ekspertizadan o‘tkazish	31
2.4. Ekspert auditorlar tayyorlash va ularga qo‘yilgan talablar	45

III bob. METROLOGIYA ASOSLARI

3.1. Davlat metrologiya xizmati haqida asosiy tushunchalar va uning vazifalari	53
3.2. Metrologiya sohasida qo‘llaniladigan asosiy atamalar	55
3.3. O‘lchamlar birligini ta‘minlashning huquqiy asoslari	58

IV bob. SERTIFIKATLASHTIRISHNING NAZARIY VA HUQUQIY ASOSLARI

4.1. Sertifikatlashtirishning asosiy tushunchalari	66
4.2. Sertifikatlashtirishning tashkiliy asoslari	68
4.3. Sertifikatlashtirish obyektlari va subyektlari	76
4.4. Sertifikatlashtirish faoliyatiga doir umumiy talablar	79

V bob. SERTIFIKATLASHTIRISHNING TASHKILIY ASOSLARI

5.1. Sifat tizimini sirtidan baholash.....	83
5.2. Sifat tizimini sertifikatlashtirish bo'yicha mintaqaviy va xalqaro tashkilotlar	88
5.3. Ixtiyoriy va majburiy sertifikatlashtirish.....	96
5.4. Sertifikatlashtirish to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik	102
5.5. Nazorat va standartlashtirishda tovar yorliqlari va shtrixli kodlarining ahamiyati.....	106
Foydalanilgan adabiyotlar.....	114

O'quv nashri

SH.E. UMIDOV, Z.A. DJABBOROV

NAZORAT VA STANDARTLASHTIRISHNING HUQUQIY ASOSLARI

Kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma

Muharrir *T. Mirzayev*

Badiiy muharrir *J. Gurova*

Texnik muharrir *D. Salixova*

Kompyuterda sahifalovchi *B. Babaxodjayeva*

Original-maket «NISO POLIGRAF» nashriyotida tayyorlandi.

Toshkent viloyati, O'rta Chirchiq tumani, «Oq-ota» QFY,

Mash'al mahallasi Markaziy ko'chasi, 1-uy.

Litsenziya raqami AI № 265.24.04.2015.

Bosishga 2017-yil 16-noyabrda ruxsat etildi. Bichimi 60×84^{1/16}.

Ofset qog'ozi. «Times New Roman» garniturasida. Kegli 12,5.

Shartli bosma tabog'i 7,5. Nashr b.t. 6,97. Adadi 167 nusxa.

Buyurtma № 656.

«NISO POLIGRAF» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Toshkent viloyati, O'rta Chirchiq tumani, «Oq-ota» QFY,

Mash'al mahallasi Markaziy ko'chasi, 1-uy.